

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO'LIMI**

Qo'lyozma huquqida


UDK: 811.512.133:83.373.82-84

NORMAMATOVA GULASAL TOSHBOY QIZINING

**O'ZBEK XALQ DOSTONLARIDA PAREMIOLOGIK
BIRLIKLARNING IFODALANISHI**

70230101-Lingvistika: o'zbek tili mutaxassisligi bo'yicha magistr akademik
darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar  **Maxmaraimova Shoxista Tuxtashevna**
f.f.d., prof.

Termiz- 2023

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2021-yil 3-dekabrdagi № 54-T/M sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universitet O‘zbek tilshunosligi kafedrasida bajarilgan.


Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat unuversitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR-kodi:



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat unuversitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (56 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko‘chasi 43-uy.)


Ilmiy rahbar:

 F.f.d., prof, Sh.T. Maxmaraimova

Kafedra mudiri:

 Ph.D, N. R.Amonturdiyev

Magistratura bo‘limi boshlig‘i:

 I.f.f.d., A. B.Narbayev



MUNDARIJA

KIRISH.....	8
I BOB. PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVISTIK TADQIQI MASALASI	
1.1. Paremiologik birliklarning jahon va o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi.....	12
1.2. Paremiologik birliklar filologik tadqiqotning o‘rganish obyekti sifatida.....	22
Bob bo‘yicha xulosa.....	28
II BOB. “GO‘RO‘G‘LINING TUG‘ILISHI” VA “ALPOMISH” DOSTONLARIDAGI PAREMALARNING LEKSIK-SEMANTIK VA MAVZUVIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI	
2.1. Dostonlardagi paremalarning leksik-semantik xususiyatlari.....	30
2.2. Dostonlardagi paremalarning mavzuviy-tematikasi tahlili.....	40
Bob bo‘yicha xulosa.....	54
III BOB. “GO‘RO‘G‘LINING TUG‘ILISHI” VA “ALPOMISH” DOSTONLARIDAGI PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI	
3.1. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” va “Alpomish” dostonlari tiliga xos frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari.....	56
3.2. Dostonlardagi maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari.....	66
Bob bo‘yicha xulosa.....	79
UMUMIY XULOSA.....	80
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	82

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

O‘zbek tili – boy, imkoniyatlari keng tildir. Tilimizning o‘ziga xos xususiyatlari uning qimmatini belgilaydi. Tilimizning tasviriy ifodalarga boyligi, bo‘yoqdorligi paremoilogik birliklarda ham namoyon bo‘ladi. Dono xalqimiz milliy madaniyatini, mentalitetini, o‘z imkoniyatlari-yu so‘z boyligini maqol, matal, farazalogik birliklar, aforizmlari orqali ham namoyon qiladi. O‘zlikni anglash milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruxiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiyki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili bu millatning ruhidir. O‘zlikni anglash, o‘z tilimizni tanish va tanitishda ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan ma’naviy boyliklarimizning hissasi katta. Ma’naviy boyliklarimizning katta qismini xalq og‘zaki ijodi namunalari tashkil etadi. Bugungi kunda oldimizda turgan eng muhim vazifalarni ko‘z oldimizdan o‘tkazr ekanmiz, aholining kundalik ehtiyojiga bevosita dolzarb masalalarni hal qilish bilan bir qatorda, biz eski tuzum davrida inson hayotining negizi va murakkab tomonlari, milliy qadryatlar, tarixiy an’analar, umuminsoniy ma’naviy boyliklar bilan hisoblashmaslik jamiyatimizga qanchadan-qancha zarar keltirganini unutmasligimiz kera. Milliy madaniyatimiz, xalq ma’naviy boyligining ildizlariga e’tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to‘plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o‘tgan. Insonlarga og‘ir damlarda madad bo‘lgan. Bizning vazifamiz – shu xazinani ko‘z qorachig‘idek asrash va yanada boyitish ilmiy tadqiqot ishlarida ham metodologik asos sifastida xizmat qilmoqda. Bu kabi qarashlarxalqimizning tili va tarixini, uning tarkibiy qismi bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi namunalarining lingvistik tarkibini keng yo‘nalishda o‘rganishga da’vat etadi. Xalq tajribasi ma’naviy qadryatlarining yaratilishida favqulotda muhim rol o‘ynaydi. “Insonlarda xotiralar tufayli tajriba paydo bo‘ladi: ayni bir narsa, predmet haqidagi bir qator xotira, nihoyat, bir tajriba ahamiyatiga ega. Tajriba esa fan va san’at bilan deyarli bir xildir.

O‘zbek folklorining keng tarqalgan, yirik janrlaridan biri dostonidir. Xalq dostonlari qadimiyatning noyob bir ehsoni, yaratilgan davrning umumiy dunyoqarashi, ayni paytda jonli an’anaviy ijod va ijro sharoitlarida xalq ruhiyatining obyektiv holatini davrlararo ifodalab, mazmun va shakl jihatdan goh kengayib, goh torayib, ajdodlardan avlodlarga og‘zaki ravishda yetib kelgan adabiy yodgorliklardir. Xalq og‘zaki ijodi tilimizning beqiyos boyliklari, cheksiz imkoniyatlari hamda uning umumturkiy va milliy bosqichlariga xos tarixiy taraqqiyot qonunlarini aks ettiruvchi dalillarni o‘zida asrab kelayotgan mumtoz badiiy manbalardandir. Shu nuqtayi nazardan xalqimiz orasida mashhur bo‘lgan dostonlar matnidagi paremiologik birliklarning lingvistik xususiyatlarini turli aspektlarda o‘rganish muhim vazifalardan biridir.

Ushbu magistrlik ishi ana shu nuqtayi nazardan tilshunoslikdagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti va predmeti sifatida “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonining Muhammad Jomurod o‘g‘li Po‘lkan shoir varianti va Ergash Jumanbulbul o‘g‘li hamda Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li ijrosiga mansub “Alpomish” dostoni, ularning audio, video va qolyozma matnlaridagi paremiologik birliklar(maqol, matal, frazeologik birliklar)tanlab olingan.

Ilmiy ishning maqsad va vazifalari. Ushbu ishning bosh maqsadi o‘rganish obyekti qilib olingan dostonlar matnidagi paremiologik birliklarning leksik-semantik xususiyatlarini yoritish, ularni mavjud lug‘atlardagi izohini qiyoslashdan iborat.

Qo‘yilgan maqsadga erishish uchun quydagi vazifalar belgilandi:

-o‘zbek adabiyotida uchraydigan folklor asarlarida keltirilgan paremiologik birliklarning o‘zbek tilshunosligida o‘rganilish tarixi, ushbu tadqiqotlarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish;

-tadqiqot obyekti qilib olingan dostonlardagi paremiologik birliklarning leksik-semantik va tematik xususiyatlarini o‘rganish;

-ushbu dostonlardagi paremiologik birliklarning leksik-semantik va tematik xususiyatlarini tadqiq etish asnosida qadimgi o‘zbek xalqining ma’naviy, madaniy va iqtisodiy hayot manzarasini ochib berish;

-dostonlar tiliga xos frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari tadqiqi qilindi;

-dostonlardagi maqol va matal, marosimlarning milliylikni aks ettiruvchi omil sifatida o‘rganish va lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilindi;

-tadqiqot natijalari bo‘yicha xulosa va takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ilmiy ish uchun tanlangan mavzuni o‘rganish jarayonidagi ilmiy yangiliklar quydagilar bilan belgilanadi:

-O‘zbek adabiyotida uchraydigan folklor asarlar, xususan, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” va “Alpomish” dostonlarida keltirilgan paremiologik birliklarning o‘zbek tilshunosligida o‘rganilish tarixi, ushbu tadqiqotlarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi;

-“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” va “Alpomish” dostonlari paremiologik birliklarning leksik-semantik va tematik xususiyatlarini o‘rganish asnosida qadimgi o‘zbek xalqining ma’naviy, madaniy va iqtisodiy hayot tarzi ochib berildi;

-dostonlar tiliga xos paremalarning lingvomadaniy xususiyatlari ochib berildi;

-dostonlardagi maqol, matal va marosimlarning milliylikni aks ettiruvchi omil sifatida o‘rganish va lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilindi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlar. Ilmiy tadqiqot ishida dostonlar matnida qo‘llanilgan paremalar lingvistik tahlilga tortildi va ularning lingvokulturologik mohiyati ochib berildi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodlar tasnifi. Dissertatsiya yozish jarayonida tahliliy, tasnifiy, eksprement, qiyosiy metodlardan foydalanildi. Ilmiy ishning amaliy ahamiyati shundaki, o‘zbek tili paremiologik birliklarining lingvistik tadqiqi bo‘yicha yaratilgan takomillashtirish, oliy o‘quv yurtlarining bakalavr va magistratura ta’lim yo‘nalishlarida “Etnolingvistika”, “Lingvokulturologiya”, “Leksikografiya” bo‘yicha maxsus kurslarni tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan ifodalanadi.

Ish tuzilmasining tasnifi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, 6 fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

Dissertatsiya kirish qismida mavzuning asoslanishi va dolzarbligi, maqsad va vazifalari, ilmiy, amaliy ahamiyati kabi jihatlari yoritilgan.

1-bob “Paremiologik birliklarning lingvistik tadqiqi” deb nomlanib, unda jahon va o‘zbek tilshunosligida paremiologik birliklarning tadqiqi borasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, xalq og‘zaki ijodining o‘rganilish darajasi va fandagi ahamiyati masalalari yoritib berilgan.

2-bob “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” va “Alpomish” dostonlaridagi paremiologik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari deb nomlangan bo‘lib, ushbu dostonlardagi paremalarning leksik-semantik xususiyatlari va tematikasi bo‘yicha ma’lumotlardan iborat qarashlardan iborat masalalar yoritib berilgan.

3-bob ““Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” va “Alpomish” dostonlaridagi paremiologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari” deb nomlanib, ushbu dostonlarda qo‘llanilgan frazologik birliklar va maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularda xalqimiz madaniyatining aks etishi haqidagi masalalar yoritib berilgan.

Xulosa qismida ishda amalga oshirilgan tadqiqotga doir asosiy holatlar to‘la aks etgan.

I BOB. PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVISTIK TADQIQI MASALASI

1.1. Paremiologik birliklarning jahon va o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi

Xalq og‘zaki ijodining qadimiy namunalaridan hisoblangan paremiologik birliklar boshqa janrlardan o‘zining qisqa, lo‘nda, obrazli va chuqur mazmunga egaligi bilan alohida ajralib turadi. Paremiologiya- (yunoncha: *paroimia* – hikmatli so‘z, zarbulmasal) 1) ma’lum bir tildagi avloddan – avlodga og‘zaki shaklda ko‘chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo‘lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralar; 2) muayyan tilda mavjud bo‘lgan maqol, matal kabi hikmatli so‘zlar paremlar tizimini tashkil etadi. Paremiologik birliklar orqali har bir xalqning o‘ziga xos qadimiy va boy ma’naviyati, madaniyati, turmush tarzi, hayoti, kishilarning jamiyatga bo‘lgan munosabati, kuzatishlar va tajribalariga suyanish asnosida chiqarilgan xulosalarini ifodalovchi ruxiy holati, etik va estetik tuyg‘ularini, ijobiy fazilatlarini o‘zida mujassamlashgan tuyg‘ulari namoyon bo‘ladi. Yana boshqa manbalarda - Paremiologiya – so‘zi grekcha “*Paroimia*” (Hikmat) va “*Logos*” (fan, talimot) so‘zlaridan olingan bo‘lib, ma’lum bir tildagi maqol, matal, iboralar, hikmatlar sistemasini o‘rganuvchi fandır – degan qarashlar ham mavjud. Demak, paremiologiya koinot qonuniyatlarini kuzatish, turmush tajribalariga suyanish asosida chiqarilgan xulosalarni ifodalovchi, xalqning jamiyatga munosabati, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashtirgan, avloddan-avlodga og‘zaki holatda ko‘chib yuruvchi ixcham va sodda, qisqa va mazmundor mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo‘lgan maqol, matal, aforizm va hikmatli so‘zlar hamda iboralarni – paremiologiya sohasi o‘rganadi.

Paremiologiyada quyma fikrni ifodalovchi eng mayda birlik *parema* deb ataladi. Paremiologiya tildagi maqol, matal, aforizm va hikmatli so‘z hamda iboralarni ikki uslubda o‘rganadi.

Paremlar avloddan – avlodga faqat og‘zaki holdagina o‘tib kelganligi, xalq og‘zaki ijodining mahsuli bo‘lganligi uchun adabiyotshunoslik fanining o‘rganish obyektidir, chunki shu hikmatli iboralarning ko‘plari ko‘proq she’riy formaga

o‘xshaydi hamda ularda o‘xshatish (tashbeh, istiora, metofara) taqqoslash (antiteza) parallelism, qofiyalash, anaphora, piching, kesatiq, kinoya kabi badiiy tasvir vositalari qo‘llangan bo‘ladi.

Paremalar so‘zlardan tuzilib ma’lum bir fikirni ifodalovchi gaplardan iborat bo‘lganligi uchun tilshunoslikning ham obyektidir, ya’ni ular so‘zlardan tuzilganligiga ko‘ra oddiy gaplarga o‘xshasa ham, mazmuni, tuzilishi, ohang jihatdan va boshqa Grammatik xususiyatlari jihatidan o‘ziga xosliklarga ega.

XX asrning 30-yillaridan so‘ng o‘zbek folklorshunosligining shakllanishi va taraqqiy etishi natijasida qator folklorshunos olimlar yetishib chiqdi va xalq og‘zaki ijodi asarlarining barcha janrlari bo‘yicha muhim tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. Bu borada G‘ozi Olim Yunusov, Hodi Zarif, Mansur Afzalov, Muzayana Aliviya, Buyuk Karimov, S.Ibrohimov, M.Saidov, M.Murodov, Z.Husanova, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, A.Musoqulov, va boshqa folklorshunos olimlar sohaning turli yo‘nalishlari bo‘yicha qator tadqiqotlarni amalga oshirishdi. Xususan, o‘zbek maqollariga bag‘ishlangan “Dengizdan qatralar”, “Qanotli so‘zlar”, “Qayroqi so‘zlar”, “O‘zbek xalq maqollari”, “O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati” kabi nomlar bilan bir necha bor nashr qilingan¹ paremalar yuzasidan ham ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan²

O‘zbek tilimizda hikmatli iboralarni umuman maqol deb atashadi, lekin ushbu tushunchani ifodalash uchun yigirmadan ortiq terminlar qo‘llaniladi: Maqol, matal, naql, hikmat, tanbeh, zarbulmasal, hikmatli maqol, xalq iborasi, xalq so‘zi, otalar so‘zi, qadimgilar so‘zi, donishmandlar so‘zi, donalar so‘zi, yaxshilar so‘zi,

¹ Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1984; Абдурахмонов М. Фольклорная афористика и словарь. –Тошкент: Фан, 1989; Шомаксудов Ш., Шорахмедов Д. Нега шундай деймиз (ўзбек мақолларининг изоҳли луғати), –Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987; Яна шу муаллифлар. Ҳикматнома (ўзбек халқ мақолларининг изоҳли луғати), ЎМЭ, 1990; Ўзбек халқ мақоллари (нашрга тайёрловчилар: Т.Мирзаев, А.Мусақулов, Б.Саримсоқов), –Тошкент: Шарқ, 2013; Қайроқи сўзлар (нашрга тайёрловчи: Шорахмедов Д.) –Тошкент: ЎМЭ, 2011; Ўзбек халқ мақоллари (нашрга тайёрловчи М.Қутлиева) –Тошкент: Янги аср авлоди, 2013.

² Абдурахмонов Х. Синтаксические особенности узбекских народных пословиц. АКД., –Тошкент, 1964; Яна ўша автор: Мақоллардаги боғловчисиз қўшма гаплар структурасининг баъзи бир хусусиятлари. Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1962, 6-сон, 32-38-бетлар; Яна ўша муаллиф: Мақоллардаги боғловчисиз қўшма гапларда айрим гап бўлақларининг такрорланиши.//ЎТА, –Тошкент., 1962, 3-сон, 28-31-бетлар; Усмонов Н. Мақолларда таълимга оид атамалар. //ЎТА, –Тошкент, 1992, 8-сон, 35-бет; Ўринбоев Б. Ўзбек халқ мақолларида трансформациялаш. Ўзбек тилшунослиги масалалари. –Самарқанд, 2001, 38-42-б.;

burungilar so‘zi, ulusning so‘zi, hikmatli so‘z va boshqalardir. Albatta, yuqoridagi turlicha nomlar turli davrlarda shunday atalgan. Ushbu terminlar adabiyotshunoslikda deyarli farqlanmaydi. Tilshunoslik sohasiga oid adabiyotlarda esa idiomatic ibora, qayroqi ibora, afarizm, ko‘chma ma’noli turg‘un birikma, frazeologik birikma, frazema kabi terminlar bilan yuritiladi. Har bir parema ma’lum bir davrning mahsuli sifatida paydo bo‘ladi, yashaydi va ma’lum bir davrga kelib istemoldan chiqadi. Paremalar ham ma’lum bir davrlar o‘tishi bilan silliqlanadi, sayqal topadi, ma’lum bir qolipga tushadi. Yillar o‘tib ma’lum bir formada “qotib” turg‘un holatda foydalaniladigan holatga kelib qoladi, yani tayyor holatdagi til birligi sifatida qo‘llaniladigan holatga keladi. Paremalar mantiqiy fikrlashning mahsuli sifatida umuminsoniy hodisa bo‘lsa ham u har bir xalqning o‘ziga xos turmush sharoitida shakllangan. Paremalarining kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyoti va ma’nolarini o‘rganuvchi paremiologiya frazeologiya bilan chambarchas bog‘liq. Paremiologiya tildagi turli xarakterdagi barcha iboralarni o‘rganadi, frazeologiya esa uning bir qismi sifatida – faqat ko‘chma ma’noli turg‘un birikmalarni o‘rganadi. Bular esa ularning o‘zaro farqlovchi tomonlaridir. Ularning umumiy, o‘xshash tomonlari esa o‘rganish obyektining birligi, ya’ni bir necha so‘zlardan tuzilganligi hamda barqaror birikmalarni tekshirish jihatlari bilan belgilanadi. Frazeologiya-yunoncha phrasis-so‘zidan olingan bo‘lib ibora, nutq aboroti, bilim, tushuncha, “logos”- fan, ta’limot ma’nolarini anglatadi. Frazeologiya ikki turga bo‘linadi;

- biror tilga xos barqaror so‘z birikma-iboralar majmuyi;
- tilshunoslikning biror turiga xos barqaror so‘z birikmalari va iboralarni o‘rganuvchi bo‘limi.

Frazeologiyaning mustaqil fan, fan sohasi sifatida qarashni birinchi bo‘lib, rus tilshunos olimi E.D.Polivanov olg‘a surdi va bu masalaga ko‘p martalab qaytdi. Olimning fikricha, leksika – so‘zlarning o‘ziga xos lug‘aviy ma’nosini o‘rganadi, morfologiya so‘zlarning shakiliy tuzilishini, sintaksis esa so‘z birikmalarining shakiliy ma’nosini o‘rganadi. “Shunday ekan, alohida bo‘linga ehtiyoj tug‘ilib, sintaksisga yaqin, lekin ayni paytda so‘z birikmalarining umumiy ma’nosini emas, balki alohida birikmalarining o‘ziga xos ma’nosini o‘rganuvchi, xuddi leksika

alohida soʻzning maʼnosini oʻrgangani kabi boʻlim yaratish zarur. Tilshunoslikning bu boʻlimini men frazeologiya deb atayman. Ushbu maʼnoni anglatuvchi boshqa atama ham taklif etish mumkin-“idiomatika”. Umuman olganda frazeologiyaning fan sifatida shakllanishida paremiologiyaning oʻrni kattadir.

Paremiologiya tarkibiga kiruvchi birliklardan yana bir bu-aforizm hisoblanadi. Aforizm – grekcha soʻzdan olingan boʻlib, “aphorismos” – qisqa, hikmatli soʻz³ maʼnolarini anglatadi. Hikmatli soʻzlarga turli adabiyotlarda turlicha taʼrif berib oʻtilgan:

1. Aforizm - aniq va ixcham ifodalaniib, tugal fikrni anglatuvchi hikmatli soʻzlar;⁴

2. Aniq va ixcham shaklli, chuqur mazmunli, muallifi aniq gap;⁵

3. Maʼlum shaxslar tomonidan aytilgan yoki asarlarida ishlatilgan ixcham, maʼnodar, ishlatishga qulay va quyma fikrlardir.⁶

Aforizmar tabiati haqida yuqoridagi kabi turlicha fikrlar mavjud. Adabiyotshunos olimlardan biri Z.Toshpoʻlatovning tatqiqotlarida aforizmlar xususiyatlari haqida turlicha qarash va mulohazalarning maʼlum sabablarini koʻrsatib oʻtadi:

Birinchiidan, ushbu janr dunyo xalqlarining barchasida mavjuda va ular haqida jahon paremiologiyasida turlicha fikr-mulohazalar bildirilgan.

Ikinchiidan, aforizmlarning badiiy shakli masalasida yagona hukmron fikr, yagona konsepsiya yoʻq.

Uchinchiidan, koʻpchilik olimlar aniq muallifga ega boʻlgan mazmunli, ixcham ifoda shakliga ega boʻlgan hikmatli gaplarni aforizm deb hisoblasalar, ayrimlar aniq muallifga ega boʻlgan qantli iboralarni ham ushbu janr tarkibiga kiritadilar.⁷

³ Homidiy H, Abdullayeva Sh, Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlar lugʻati. - Toshkent: Oʻqituvchii, 1967. – B. 35.

⁴ Homidiy H, Abdullayeva Sh, Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlar lugʻati. - Toshkent: Oʻqituvchi, 1967. – B. 35.

⁵ Hojiyev A. Tilshunoslik teminlarining izohli lugʻati. - Toshkent: Fan, 2002. -144 b.

⁶ Yoʻldosheva M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: FAN, 2006. – 54 b.

⁷ Toshpoʻlatov z. Aforizmlarning janr xususiyatlari va badiiyati.; Filol. fanlari nomzodi...diss. avtoref. 2006. 8 b.

Paremiologiya sohasining o'rganish obyekti keng bo'lganidek, paremalarning tiplari ham turlichadir. O'zbek tilidagi maqol-matal tipidagi paremiologik birliklarni uch guruhga bo'lishimiz mumkin

1. Maqollar – grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi kichik, ixcham, o'tkir mazmunli, ko'chma ma'noda yoki ham ko'chma ma'noda ham o'z ma'nosida qo'llana oladigan birikmalardir

2. Aforizmlar – umumlashtirilgan fikrni ifodalovchi lo'nda, hikmatli birikmalar. Shuni ham aytib o'tish joizki, aforizmlar aslida ikki guruhga bo'linadi: nutqiy aforizmlar, til aforizmlari. Nutqiy aforizmlar ma'lum bir shaxsga tegishli bo'ladi, Til aforizmlari umumiy hammaga tegishli bo'lib umumiy bo'ladi. Misol uchun; Alisher Navoiyning – *“Oz-oz o'rganib dono bo'lur, Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur”*, iborasi nutqiy aforizm bo'lsa, *“Yaxshiga yondosh, yomondan qoch”*, *“Yetti o'lchab bir kes”*, *“Tilingda bo'lsa boling kulib turar iqboling”* kabi hikmatli so'zlar til aforizmlariga aylanib ketgan.

3. Matallar – tarbiyaviy, pand nasihat ruhidagi, Grammatik jihatdan to'liq gap shaklida bo'lgan, faqat o'z ma'nosidagina qo'llanadigan qisqa, ixcham xalq iboralaridir. Masalan: *Odam olasi ichida – mol olasi sirtida, Kattaga hurmatda bo'l-kichikka izzatda. Yaxshidan bog' qoladi, yomondan dog'.*

O'zbek maqol, matal, ibora va aforizmlarining o'rganish va to'plash, ulardan yozuvchi va olimlarning o'z asarlarida foydalanishi ham uzoq davrlarga borib taqaladi. Xususan, XI asrning buyuk olimi M.Koshg'ariy o'zining “Devonu lug'atit turk” asarida turk tili oilasiga kiruvchi xalqlarning maqollaridan keng foydalangan. Bu asar yolg'iz o'sha davr tilidagi so'zlarni ifodalovchi kitobgina emas, balki shu vaqtda butun O'rta Osiyo doirasida, ya'ni, Yuqori Chindan tortib Movarounnahr, Xorazm, Farg'ona, Buxoroga qadar cho'zilgan keng va katta hududda yashagan urug', qabila, xalqlar, ularning tillari, o'sha davr xalq og'zaki ijodi to'g'risida ma'lumot beruvchi noyob filologik asardir. Demak, bu qimmatli ilmiy va nodir asar xalq og'zaki ijodining butun yutuqlarini o'rganuvchi ilmiy fikrlarni sharhlashda xalq og'zaki ijod namunalari katta e'tibor bergan, birinchi marta xalq maqollarini yig'uvchi asar hamdir. Bu haqda M.Koshg'ariyning o'zi shunday yozadi: “Men bu

kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli soʻzlar, sahlar, maqollar, qoʻshiqlar, rajaz va nasr dab atalgan adabiy parchalar bilan bezadim “⁸. Demak oʻzbek xalq ogʻzaki ijodini oʻrganish va toʻplash XI asrda Mahmud Koshgʻariy tomonidan boshlab berilgan. Uning “Devoni lugʻatit turk” asarida 275 ta maqol keltirib oʻtilgan. Olimlar qadimgi shohlardan Abbos Safoiyning amri bilan maqol matallarimiz bir joyga jamlangani haqida maʼlumot beradilar. Afsuski, bu majmua bugungi kungacha yetib kelmagan.

Yevropa tilshunosligida XVIII asrning boshlarida German paremiografi W.Wender yevropa xalqlariga oid 250,000 dan ortiq maqollarni oʻz ichiga olgan 5 ta kitobdan iborat paremiologik lugʻatni yaratdi. Va bu bilan u zamonaviy Yevropa tilshunosligida paremiografiya sohasiga tamal toshini qoʻydi. Biroz vaqtdan soʻng R.C. Trench “On the Lessons of Provers” nomli katta hajmli Ingliz tili paremiologik lugʻatini yaratdi. Bugungi kungacha bu asar Ingliz va Amerikan nashrlari paremiologiya sohasi bilan shugʻillanuvchilar uchun mukammal qoʻllanma sifatida xizmat qilib kelmoqda. Bu asarda maqollarning anglatadigan maʼnosi, kelib chiqishi, paydo boʻlishi, nazaryasi atroflicha yoritilgan. Shundan soʻng bir necha tadqiqotchilar paremiologiya sohasiga qiziqib, maqollarni toʻplashgan, nashq qilishgan. Bularning ichida eng mashhur tadqiqotchilardan biri A.Toylor oʻzining 223 sahifadan iborat “The Proverb” asarida maqollarni atroflicha tahlil qilgan va paremiologiya sohasining qay darajada boy soha ekanligini koʻrsatib bergan. Xususan, u asarning birinchi qismida u maqollarning kelib chiqishi, muomolari, tarifi, metoforik maqollar, proberbial(maqolga oid) turlar, variantlari, xalq ogʻzaki ijodiga oid maqollar, maqollar va adabiyot, boshqa tillardan kirib kelgan maqollar, biblical maqollar va tub maqollar, ularning muqobil variantlari haqida boʻlsa, ikkinchi qismida esa maqollarni tarixiy, tub, oʻzlashgan, huquqiy, mahalliy,diniy,ob-havo va tibbiyotga oid, urf odatlarni oʻzida mujassamlashtirgan iboralarni turkumlarga ajratgan.

⁸ Koshgʻariy M.”Devonu lugʻatit turk”I Tom. –Toshkent, 1960. – B. 44-45.

Jahon tilshunosligida ham o‘zbek tilshunosligida ham maqol, matal, frazalarni bir butun paremlar sifatida o‘rganilishidan ko‘ra maqol, yoki frazalarning alohida-alohida tadqiq qilinganini ko‘plab tadqiqotlar misolida ko‘rishimiz mumkin. Xususan, frazeologiya tilshunoslikning alohida mustaqil tarmog‘i sifatida XX asrning 40-yillarida rus tilshunosligida paydo bo‘lgan. Uning dastlabki shakllanishiga rus olimlari A.A.Potebnya, I.I.Sreznevskiy, A.A.Shahmatov asarlarida asos solingan bo‘lsa, barqaror (turg‘un) so‘z birikmalarini alohida tilshunoslik bo‘limi-Frazeologiyada o‘rganilish masalasi 20-40-yillardagi o‘quv – metodik adabiyotlarda – Ye.D.Polivanov, S.Abakumov, L.A.Bulaxovskiy asarlarida ko‘tarib chiqilgan. G‘arbiy Yevropa va Amerika tilshunosligida Frazeologiya tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida ajratilmaydi.Ushbu tilshunoslardan tashqari, frazeologiya va frazeologik birliklar sohasi doirasida S.A.Askaldova, V.N.Yartsev, J.D.Popova, lingvomadaniyatshunoslikka oid V.N.Teliya, Y.S.Stepanov, A.D.Artyunova, V.A.Maslova va boshqa ko‘plab olimlarning turli mavzudagi frazeologiyaga doir tadqiqotlari ham soha rivojiga katta hissa qo‘shgan.

O‘zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar o‘tgan asrning 50-yillaridan boshlangan. Shu kungacha frazeologizmlar turli jihatlardan o‘rganilgan: Sh.Rahmatullayev, B.Yo‘ldoshev, A.Mamatov va boshqalar tadqiqotlarida. Frazeologiya bo‘yicha bir necha lug‘atlar tuzilgan (Sh.Rahmatullayev, M.Sodiqova), yozuvchilardan: A.Qodiriy, A.Qahhor, H.Olimjon, Oydin, Said Ahmad asarlarining frazeologik tarkibi tadqiq etilgan.

Paremoilogik birliklar tarkibiga kiruvchi maqollarni to‘plash va o‘rganish XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. O‘zbek xalq maqollarini to‘plash va nashr etishda missioner N.G.Ostroumovning xizmati katta.

Bir necha o‘zbek olimlari tomonidan maqollarni tahlil qilishga e‘tibor qaratilgan. Sh.Shorahmedov, X.Sharafiddinova, va X.Abdurahmonovning maqollarning til xususiyatini yorituvchi tadqiqotlari yuzaga keldi. Maqollarning yangi nashrlari bilan shug‘ullangan tadqiqotchilar sifatida B.Sarimsoqov, K.Imomov va X.Abdurahmonovlarning ishlari ham diqqatga loyiq.

B.A.Soatov⁹ o‘zbek xalq maqollarining janr xususiyatlari va she’riy xususiyatlarini aniqlagan. X.Sharafiddinova o‘zbek xalq maqollarining tuzilishidagi qofiya va uning funksional-uslubiy xususiyatlariga e’tibor qaratgan. I.Begmurotov, R.A.Latipova, E.V.Ivanovalarning ilmiy tadqiqotlarida folklor aloqalari, jumladan, maqol va matallar qiyosiy planda ko‘rib chiqilgan. Rus maqollari V.D.Chernelevaning tadqiqotida qiyosiy aspektida o‘rganilgan.

Xalq tajribasi ma’naviy qadryatlarining yaratilishida favqulotda muhim rol o‘ynaydi. “Insonlarda xotiralar tufayli tajriba paydo bo‘ladi: ayni bir narsa, predmet haqidagi bir qator xotira, nihoyat, bir tajriba ahamiyatiga ega. Tajriba esa fan va san’at bilan deyarli bir xildir. Fan va san’at, gapga esa insonlar tajriba tufayli erishadilar. Chunki, V.Pol aytganidek, tajriba san’atni yaratgan va to‘g‘ri aytgan, tajribasizlik – hodisa”¹⁰.

N.Barlining tasdig‘iga ko‘ra, “maqolni unga o‘xshagan boshqa turdosh shakllar bilan munosabat kompleksidan alohida ko‘rib chiqish mumkin emas”¹¹. Har bir xalqning maqollar zahirasi o‘ziga xosdir. O‘zbek xalq maqollari o‘zbek xalqi donoligining – donishmandligining hosilasi hisoblanadi. O‘zbek xalq maqollari tasnifi masalasi bugungi kunda o‘z yechimini kutayotgan mavzu hisoblanadi. Ikki jildlik “O‘zbek xalq maqollari”¹² akademik to‘plamida maqollar alifbo tartibida berilgan. “Alfavitli tasnif” to‘plamida “Balandparvoz so‘zlar”¹³ deb qabul qilingan. Tuzuvchilar Sh.Shomaqsudov va Sh.Shoraxmedovlar o‘zlarining “Ma’nolar maxzani”¹⁴ to‘plamida ham maqollarni alifbo tartibida joylashtirganlar. To‘plam 20 ming maqolni o‘z ichiga oladi. Unda maqollarning etimologiyasi va muqobillari keltirilgan.

Boshqa to‘plamlarda, asosan, maqollarning predmetli-mavzuli tasnifdan foydalanilgan. Masalan, “O‘zbek xalq maqollari” to‘plamida 30 predmetli mavzu guruhi taqdim etilgan:

⁹ Soatov B.A O‘zbek xalq maqollarining janr va she’riy xususiyatlari. –Toshkent, 1990. 53-bet.

¹⁰ Аристотелью Метафизика. - Л., 1999. 6-С.

¹¹ Барли Н. Структурный подход к пословице. – М., 1984. – С.13.

¹² O‘zbek xalq maqollari . – Toshkent, 1987. 27-30-bet.

¹³ Sarimsoqov B. Balandparvoz so‘zlar. – Toshkent: 1986.

¹⁴ SHomaqsudov SH., SHoraxmedov SH. Ma’nolar maxzani. 2001.

- Vatan va vatanparvarlik haqida;
- Mehnat va mehnatsevarlik haqida;
- Kollektizm;
- Do‘stlik va kelishmovchilik haqida;
- Fan va san‘at haqida;
- Donolik va johillik haqida;
- Mardlik va insoniylik;
- Jasorat va qo‘rqoqlik haqida;
- Hushyorlik va ehtiyojkorlik haqida;
- Oila va yaqinlar haqida;
- Sevgi va sadoqat;
- Kattalarni e‘zoz qilish haqida;
- Kamtarinlik va tarbiya haqida;
- Qadr-qimmat haqida;
- Mehmon va mehmondorchilik haqida;
- Yaxshi so‘z va ezgulik haqida;
- Rostgoylik va samimiylik haqida;
- Ehtiyotkorlik va uquvsizlik haqida;
- Tejamkorlik haqida;
- Sabr qanoat haqida;
- Soflik, poklik haqida;
- Ishonch va umidsizlik haqida;
- Maqtanchoqlik va kibr haqida;
- Ochko‘zlik haqida;
- Hayvonat haqida;
- Nasihat haqida;
- Majoziy maqollar;
- Pand –nasihat maqollari;
- Kambag‘allik va muhtojlik:tarixiy o‘tmish haqidagi maqollar ;

- Haqsizlikka qarshi yo'naltirilgan maqollar;

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, maqollar turli mavzularga tegishli bo'lishi mumkin. Maqollarning o'rganilishi o'zbek millatining boy tarixini ko'rsatish bilan birga milliy madaniyatimizni ham o'zida namoyon qiladi.

O'zbek folklorida maqol, tabu va topishmoq singari janrlar hikmatga yo'g'rilganligi, g'oyat ixcham, siqiq, lo'nda va obrazli ifodalanishi bilan xalq paremik ijodini tashkil qiladi. Biroq u hanuzgacha alohida adabiy tur sifatida e'tirof etilmay, goh xalq nasri, goh xalq poeziyasi va frazeologiyasining bir qismi sifatida ko'rib kelinmoqda. Holbuki, maqollar xalqning necha ming yillar davomida turmush tarzida sinalib, anglangan haqiqatlar ixcham ahloqiy baho sifatida umumlashtirsa, tabularada xuddi shu ahloqiy baho taqiq yo'sinini olgan.

Xalq paremiologik ijodi o'ziga xos qonuniyatlar va tamoillarga ega.

H.Berdiyevning "O'zbek tilining paremiologik lug'ati"da keltirilishicha, Paremiologiya tildagi maqol, matal va aforizm kabi iboralarni ikki planda o'rganadi:

- paremlar avloddan avlodga faqat og'zaki holdagina yetib kelganligi, xalq og'zaki ijodining mahsuli bo'lganligi uchun adabiyotshunoslik fanining obyektidir, chunki, bu hikmatli iboralarning ko'pchiligi she'riy formaga o'xshaydi va ular o'xshatish (istiora, tashbeh, metafora), taqqoslash(anateza) paralezm, anaphora, qofiyalsh, evfonik vositalar(alliteratsiya,assonans)kinoya, piching, kesatiq kabi badiiy tasvir vositalari qo'llangan bo'ladi.

- paremlar so'zlardan tuzilib, ma'lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan iborat bo'lgani uchun tilshunoslikning ham o'rganish obyektidir, chunki u so'zlardan hosil bo'lishiga ko'ra oddiy gaplarga o'xshasa ham, mazmuni, strukturasi, intonatsiyasi va boshqa Grammatik xususiyatlari jihatidan o'ziga xosliklarga ega. Paremlarning qachon paydo bo'lganligini aniqlash qiyin, lekin shunisi ma'lumki, ularning ko'pchiligi juda qadim zamonlarda yaratilgani va ular o'zini ijod qilgan xalq bilan yashab kelmoqda. Har qanday hikmatli so'z va ibora ham ommalashib ketmaydi, faqat jamiyatdagi ko'pchilik insonlarning orzu-umidlari, istagini, hayoti va fikrini aks ettirganlarigina, hayotiyalarigina ommalashadi, avloddan avlodga o'tadi, arslar osha yashaydi – paremlarga aylanib boradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytganda, paremlar tarkibi juda keng va ularni turli jihatdan tahlil qilish bilan bog‘liq tadqiqotlar necha asarlar oldin o‘rganilgan va o‘rganilishda davom etmoqda. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, paremiologik birliklar har bir xalqning milliy urf-odatlarini hamda ananalarini verbal vositalar orqali ko‘rsatib beradi. Bu birliklarni qiyosiy o‘rganish xalqlarning o‘ziga xosliklari va birlashtiruvchi jihatlarini aniqlashga yordam beradi. Paremiologik birliklarda qo‘llangan paremlar ularning joylashuvi, milliy mentaliteti, diniy qarashlari bilan bog‘liq holatda bir-biridan farqlanadi. Ammo leksik –semantik jihatdan bir xil ma‘no ifodalaydiganlar ham talaygina.

1.2. Paremiologik birliklar filologik tadqiqotning o‘rganish obyekti sifatida

Paremik birliklar munosabati kompleks holda tadqiq etilmagan. Paremlar mazmuniy bir butunlik nomi ostida tilshunoslik yutuqlari asosida o‘rganilgan. Jumladan, M.Z.Sadriddinovaning ilmiy tadqiqoti¹⁵ o‘zbek maqol va matallari leksikasi tadqiqiga bag‘ishlangan. Maqollarga til birligi sifatida yondashish, ya‘ni turg‘un birikmalar sifatida ta‘rif berish oz bo‘lsada dissertatsiyalarda o‘z aksini topdi. Paremlar so‘zlardan tuzilib, ma‘lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan tuzilganligi uchun tilshunoslikning ham o‘rganish obyekti. Paremlar so‘zlardan hosil bo‘lishiga ko‘ra oddiy gaplarga o‘xshasa ham, mazmuni, qurilishi, intonatsiyasi va boshqa Grammatik xususiyatlari jihatidan tilshunoslar tomonidan ko‘plab tadqiqotlarga tortilgan. Ma‘lum bir tilni tushunish uchun o‘sha tilning so‘z boyligi va Grammatik qoidalarini bilshgina yetarli bo‘lmaydi. Paremiologlarning fikricha, boshqa bir tilni o‘rganish va tushunish uchun, o‘sha xalq madaniyati va tarixini o‘rganish bilan birga, tildagi eng ko‘p ishlatiladigan paremiologik minumumni (so‘zlashuvdagi eng ko‘p ishlatiladigan maqol, hikmatli so‘zlarni) bilish ham talab etiladi deyilar. Shu bilan birga tadqiqot ishlari orasida Bibish Jo‘rayevaning “Maqollarning lisoniy mevqeyi va ma‘noviy va uslubiy qo‘llanilishi”

¹⁵ Sadriddinova M.Z., O‘zbek maqol va matallari leksikasi. -T.:1984,128-bet.

mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini ham alohida ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotda olimlar maqol va ibora, maqol va matal o'rtasidagi o'xshash va farqli belgilarni tilshunoslik nuqtayi nazardan yoritishga harakat qilgan.

Maqol va iboralar turli soha mutaxassisleri hisoblangan olimlar tilshunoslar, adabiyotshunoslar, paremiologlar, folklorshunoslar, etnograflarning tadqiqotlar olib borishlari uchun keng maydon hisoblanadi. Bu hol tabiiydir, chunki paremlar shaklan ixcham, soda bo'lishiga qaramay, turli tadqiqot nuqtayi nazardan ko'rib chiqilishi, tahlilga tortilishi mumkin. Paremlar semantik va struktur jihatdan to'la tugallangan matn sifatida tilshunoslikning, til sohasining ancha navqiron sohasi bo'lgan matn lingvistikasining ham e'tiborini o'ziga jalb etmoqda.

Paremlar grammatik jihatdan muayyan sintaktik birlik hisoblangan gaplardir. Shu boisdan paremlarning sintaktik birlik sifatida shakliy tuzilishi grammatikada o'rganilishi lozim.

80-yillarning oxirida O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti xodimlari tomonidan o'n uch mingga yaqin maqollar alifbo bo'yicha tartiblashtirilgan holda nashr ettirildi. Bu misol ham o'zbek xalqining naqadar ulkan, bebaho madaniy merosga ega ekanligini ko'rsatadi. Maqollarning o'rganilishi, tarixi va to'plash ishlari haqida gap ketganda ularni tasnifi haqida ham fikr yuritishimiz kerak. O'zbek folklorshunos olimlari tomonidan maqollarni tasnif qilishning asosan quydagi ko'rinishlari mavjud:

Alifbo tartibida. Ushbu tasnifga ko'ra mavjud material maqol to'plamida alfavit tartibida beriladi. Bunday tasnifning afzalligi shundaki. Foydalanuvchi bo'lgan kishi o'ziga kerakli maqolni tezda topa olishi mumkin. Uning kamchilik tomoni maqollarning mavzu jihatdan berilmaganligi tufayli foydalanuvchiga ko'proq qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

Mavzular tartibida. Bu tasnif turi oldingisidan ancha murakkab va mukammalligi bilan ajralib turadi, chunki bunda material muayyan mavzu guruhlarga ajratiladi, hamda har bir mavzudagi material esa o'z ichida alfavit tartibi bo'yicha beriladi. Ushbu tasnif bo'yicha berilgan maqol to'plamlari foydalanish

jihatidan qulayligi, eng muhimi, muayyan xalq maqollari fondining mavzu doirasini ko'rsatib berishi bilan ham amaliy, ham nazariy ahamiyatga ega.

To'g'ri yoki ko'chma ma'no tashishiga ko'ra. Maqollarning semantik tabiati davrlar o'tib o'zgarib boradi. Oldin o'z ma'nosida qo'llangan maqollar hozirgi kunga kelib ko'chma ma'no kasb ettirishi mumkin. Shunga ko'ra maqollar ikki xil:

- a) o'z ma'nosida qo'llanuvchi;
- b) o'z va ko'chma ma'noda qo'llanuvchi;
- c) faqat ko'chma ma'noda qo'llanuvchi.

Bu tasnifga ko'ra davrlar o'tishi bilan xalq maqollari tabiatida yuz bergan semantik o'zgarishlarni aniqlashga, hamda har bir maqolning qay darajada davr talablariga javob bera olishini belgilashga imkon beradi

Qaysi ijtimoiy davrda yaratilganligiga – xronologiyasiga ko'ra. Maqollar – juda qadimiy janrdir. Maqollarning qadimiyligi xalq tarixi kabi uzoq. Xalq maqollarida muayyan xalq boshidan kechirgan turli ijtimoiy iqtisodiy jarayonlar o'z aksini topadi. Shunga ko'ra maqollarni qaysi davrda yaratilganligini bilib olish mumkin.

Tuzilishiga ko'ra. Ushbu tasnifda maqollar tarkibidagi mantiqiy markazlar miqdoriga qarab bir necha guruhlarga ajratiladi. Yani:

- a) 1 komponentli;
- b) 2 komponentli;
- c) 4 komponentli va undan ortiq holatda uchrashi mumkin.

Maqollar tilshunoslik nuqtayi nazardan o'rganilar ekan lingvokulturologiyada antroposentrik tadqiq muhim ekanligini ta'kidlash lozim. Tilshunoslikda bir butunlik doirasida milliy madaniyatning o'ziga xos jihatlarini yoritib berishda antroposentrik tadqiqning o'rni beqiyos, ushbu tadqiq orqali madaniyat- til hamda til-madaniyat munosabati mushtarakligi o'rganiladi.

Til dunyo manzarasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan ikki jarayonda ishtirok etadi. Birinchidan, uning negizida insondagi dunyo manzarasining eng chuqur qatlamlari shakllanuvchi dunyo manzarasining tilga oid ko'rinishi shakllanadi.

Ikkinchidan, tilning o‘zi insonning maxsus leksika yordamida tilga insonning, u mansub bo‘lgan madaniyatning unsurlarini olib bergan holda dunyo manzarasini ifodalaydi.

Maqollarning mazmun nuqtayi nazaridan kompleks tadqiq etilishi madaniyatshunoslik, etnolingvistika va etnografiya singari fan sohalari bilan bevosita bog‘liqdir. Madaniyat, odatda, til vositasida bir avloddan ikkinchi avlodga o‘tadi. Ijtimoiy taraqqiyotning ilk bosqichlarida bu og‘zaki shaklda, jumladan, xalq og‘zaki ijodi namunalari eng ko‘zga ko‘ringan janrlaridan biri bo‘lgan maqollar vositasida amalga oshirilgan.

“Maqollar – xalq og‘zaki merosining eng keng tarqalgan emas, eng xarakterli janri hisoblanadi. Xalq tarixi, xarakteri, mehnat faoliyati va turmushining o‘ziga xosliklari maqollarda muhrlangan yoki qadimiy turmushning toshlarga qoldirgan izlari singari ishonchli, metoforik tarzda yashiringan. Maqollar, ularni yaratgan xalq qancha umr ko‘rsa, ming yillar bo‘yi tirik jon kabi saqlanadi. Maqollarni yuzaga chiqargan xalq tili ham o‘zining obrazli qudrati bilan ming yillar bo‘yi saqlanib kelaveradi”

Shuni ham unutmaslik kerakki, paremlar ularni yaratgan xalqning donoligini ham o‘zida mujjassam eta oladi. Buyuk bir tajribaga ega bo‘lgan kishilargina unga ega bo‘ladilar. Buyuk donishmand, eramizdan oldingi IV asrning buyuk faylasufi Aristotel shunday degan: “Donishmandlik ba’zi sabablar va ibtidolar haqidagi fandır... Donishmandlikni, adolat nuqtayi nazaridan ilohiy demoq mumkin va shu bois donishmandlik, birinchi navbatda, tangriga o‘xshaydi...”¹⁶

Hozirgi kunda *parema* deganda: “Kundalik nutqdagi qisqa, lo‘nda, turg‘un, ohang jihatdan uyushgan, xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi aks etgan, tugallangan jumla (soda yoki qo‘shma gap)” tushuniladi.

Maqol – jamiyat parchasining modelidir. Shu bois uni o‘rganmasdan birorta dunyo jamiyatini tushunishning ma’nosi yoq. Nutqda muqobilik tamoiliga ko‘ra ko‘p ma’noda qo‘llanila oladigan qisqa nutqda mustahkam o‘rnashgan, ritmik

¹⁶ Горкий А.М.История русской литературы-М.:1957,-С.38.

tashkillashgan obrazli nutqqa maqol deyiladi. Mazkur ta'rifda ko'rsatib o'tilgan belgi va alomatlar – qisqalik, turg'unlik, ritm, ko'p ma'nolilik va b. Shuningdek, maqollar to'g'risida ularning xalqning ijtimoiy-tarixiy va turmush tajribalarini umumlashtirishi ham ta'kidlanadi"¹⁷. Ko'plab olimlarning fikricha, maqolning janr sifatidagi yagonaligi, agar uning tarixiy kelib chiqishi xalq turmushi, til va san'atining o'ziga xos hadisasi sifatida tahlil etiladigan bo'lsa, yanada oydinlashadi.

Paremiologik birliklar qadim zamonlarda paydo bo'lgan. Paremalar haqida gap ketganda juda ko'p mutaxassislar maqollarga ko'proq urg'u beradilar. "Maqollarning paydo bo'lish sinoatlari ularning mazmunida yashiringan. Maqollarning ko'pchilligi insonlar orasidagi ishlab chiqarish munosabatlari, urf-odatlar maydoniga kirib boradi va shu maydonning ajralmas qismiga aylanadi. Maqolladagi fikrning she'riy ifodasi voqeylikning ongsiz – badiiy shaklidir". Maqoldan farqli o'laroq, "metel – nutqda emotsional baho uchun mavjud bo'lgan va bir qator o'xshash hayotiy xolosalarga nisbatan muqobillik tamoyiliga ko'ra qo'llaniluvchi umumqabul qilingan obrazli ifodadir. Agar maqol nutqni alohida mazmun, yangi bir butun xulosa bilan mustahkamlanayotgan bo'lsa, matal bir tugal fikr (jumla), xulosa ichiga to'laqonli bir bo'lak sifatida kiritiladi"¹⁸.

XX asrning 30-yillariga kelib maqollarni tahlil qilishning yangi struktur-semantik yondashuvi yuzaga keldi. Bu yangi yondashuvlar matn lingvistikasi va paremiologiya fan sohalari taraqqiyotiga borib taqaladi.

Ilmiy paremiologiyaning asoschilaridan biri bu G.L.Permyakovdir. Uning fikricha, "tugallanmagan fikr"ni ifodalovchi majoziy so'z oborotlariga matallar, "tugallangan fikr"ni shakllantiruvchi majoziy ma'noli gaplarga maqollar deyilad¹⁹. Paremalar deb atalguchi maqollarni ham matallarni ham G.L.Permyakov (bosma qolip so'zlar) nazaryasi doirasida ko'rib chiqadi. Har bir tilning lug'at zahirasida murakkab o'ziga xos qoliplar bo'ladi, ya'ni turg'un, nutqda tayyor holda qo'llanadigan, bo'linmas birliklar mavjud. Bular frazeologizm-idiomalar shaklidagi

¹⁷ Аникин В.П.Круглов, Ю.Г.Русское народное поэтическое творчество.-Л.: 1983, –С.116.

¹⁸ Аникин В. Круглов. А,Русское народное поэтическое творчество.-Л.: 1983, –С.129.

¹⁹ Пермяков Г.Л.От поговорки до сказки (Заметки по общей теории клише) –М.:1970,-С.7.

tarkibiy atamalar, har turli maqollar, matallar, “balandparvoz so‘zlar”, xalq hikmatli so‘zlari, semiotika (belgilar haqidagi fan)da oson tafakkur qilinadigan odatiy gazeta va adabiy shtamplar va boshqalardir.

Paremalar tilshunoslik jihatdan tahlil qilinganda Grammatik zamon, mayl, nisbat, shaxs-son kategoriyalari, ularning intonatsiyasi ham odatdagi gaplardan farq qiladi. Bunday iboralar shaklan qaysi zamoni ko‘rsatishiga qaramasdan, har doim umumiy zamoni ifodalaydi. Bu maqollarning kesimi ikkinchi yoki uchinchi shaxsni ko‘rsatsa ham barcha shaxslar uchun umumiy bo‘ladi, mazmunan umunga qaratiladi va shaxsi umumlashgan gaplarni hosil qiladi. Paremalar ko‘chma ma‘noni bildirishi yoki bildirmasligidan qat‘iy nazar ularning ma‘nosini izohlash zarur, chunki har bir parema qanday vaziyatda, qanday holatda qo‘llanishiga qarab, umumiy ma‘noga ega bo‘lsa ham, biror ma‘nosi farqlanadi. Paremalar tugallangan gap shaklida bo‘lganligi uchun faqat kengaytirilgan gaplar orasida izohlanadi. Maqol, matal, ibora va aforizm kabi paremalarni to‘plash, ularning o‘ziga xos xususiyatini ochib berish ham tilshunoslik ham adabiyotshunoslik sohalarining zimmasiga tushadi. Adabiyotshunos olimlar o‘zbek tilidagi paremalarni faqat tematik jihatdangina tasnif qilishadi, masalan: “O‘zbek xalq maqollari” to‘plamida 1800 ta maqol, matal va aforizmlar 31 ta mavzuga ajratib tasnif qilingan²⁰. Ularni R.Jumaniyozov 22 ta mavzuga, A.Xolmuhammedov 56 ta mavzuga ajratgan²¹. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, maqol-matal tipidagi paremalarni tematik jihatdan tahlil qilishda ma‘lum bir qonuniyat yo‘q, shuning uchun ularni ko‘plab mavzularga ajratib tahlil qilish mumkin. Paremiologik birliklar badiiy tasvir vositalariga ko‘ra ham tahlil qilinadi, ya‘ni qofiyasiga, o‘xshatish vositalariga, taqqoslash, anaphora, kinoya – piching kesatiqni ifodalashiga ko‘ra ham turlarga ajratish mumkin. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan maqol, matal, ibora kabi paremalarni bir necha xil uslubda talqin qilinadi. 1) Strukturasiga ko‘ra 2) semantik xususiyatiga ko‘ra. Strukturasiga ko‘ra paremalar ikki qismga bo‘linadi: sodda paremalar va murakkab paremalar.

²⁰ Maqol, matal tipidagi paremalarning o‘rganilish tarixi X.Berdiyev, B.Yo‘ldoshev, R.Rasulov 1-qism 1976

²¹ O‘zbek xalq maqollari. Toshkent 1964-y R.Jumaniyozov

Dostonlar matniga asoslangan tadqiqotlardan: Ahmedov Hakim Yarashevichning “Alpomish” dostonida frazeologizmlarning tematik va mifologik strukturasi”, O‘rinboyeva Dilbar Bozorovnaning “Xalq og‘zaki ijodi: janriy-lisoniy va lingvostilistik tadqiq muammolari”, Xadjimusayeva Nilufar Nematovnaning “Orzigul dostonining statistik, semantik-stilistik va lingvopoetik tadqiqi”, Fayzullayeva Dilnoza Narimonovnaning “Xalq dostonlari tilining lingvomadaniy tadqiqi”, Ashurov Dilmurodning “Alpomish” dostonining lingvokulturologik xususiyatlari”, Xadjayev Yusuf Norqulovichning “Alpomish” dostonidagi shaxs ma’naviy sifatlarini ifoda etuvchi atov birliklarning semantik-struktur konseptual va leksikografik xususiyatlari”, Yunusova Barchinoy Mahmudxonovnaning “Alpomish” dostonida onamastik birliklarning leksik-semantik va uslubiy tadqiqi” kabi tadqiqotlar ishlarida o‘zbek xalq dostonlari turli aspektlarda tadqiq qilingan.

Birinchi bob bo‘yicha xulosalar

Xalq og‘zaki ijodi namunalari bo‘lgan dostonlar millat madaniyati, uning ijtimoiy-tarixiy takomili, dunyoqarashi, qadryatlari, urf-odatlari, mental xususiyatlari va belgilarini to‘laqonli aks ettirganligi bois antroposentrik izlanishlar uchun eng muhim, asosiy obyekt sifatida xizmat qiladi. Jahon va o‘zbek tilshunosligidagi paremiologik birliklarning o‘rganilishiga doir tadqiqotlar o‘rganib chiqildi.

Xalqimiz dunyoqarashi va milliy mentalitetimizning takomilida paremalarning alohida o‘rni mavjudligi, tilimiz boyligini ko‘rsatib beruvchi muhim vosita ekanligi aniqlandi. Paremiologik birliklarning lingvistik tahlili orqali milliy-madaniy jihatlaridagi o‘ziga xosliklari tahlil qilindi.

Paremiologik birliklar hisoblanmish: maqol, matal, ibora hamda aforizmlarni o‘rganish nafaqat tilshunoslik balki, etnografiya, folklorshunoslik, arxeologiya hamda madaniyatshunoslik fanlari hamkorligida amalga oshirilgandagina kutilgan natijalarga erishilishiladi. Dostonlar matnida qo‘llangan paremiologik birliklar va ularning o‘zbek milliy madaniy urf-odatlaridagi ahamiyati tahlil qilindi.

II BOB. “GO‘RO‘G‘LINING TUG‘ILISHI” VA “ALPOMISH DOSTONLARIDAGI PAREMALARNING LEKSIK-SEMANTIK VA MAVZUVIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI

2.1. Dostonlardagi paremalarning leksik-semantik xususiyatlari

Premalar ham tilning boshqa elementlari singari ma'lum qonunuyatlarga bo'ysunadi. Premalar so'zlardan hosil bo'ladi va ma'lum bir fikrni ba'zan ikki yoki undan ortiq fikrni to'g'ri yoki ko'chma ma'noni bildiradi, bu fikr o'sha so'zlovchilar uchun tushunarli bo'ladi. Bu kabi birliklar ham qo'shimchalar, so'zlar kabi nutqda emas, balki tilda mavjud bo'ladi. Umuman olganda tildagi so'zlar har xil tovushlardan tuzilib, bir tushunchani izohlaydi. Tilda aks etadigan leksik tizimlar orasida leksik tizim eng moslashuvchani hisoblanadi. Tilning boshqa darajalari singari (fonetik, hosilaviy, grammatik) so'z birikmasi ham tizimdir, ya'ni muntazam aloqada bo'lgan va birgalikda ma'lum bir yaxlitlikni tashkil etadigan elementlar to'plami (shuningdek, frazeologik birliklar). Bu tilning leksik(leksik-semantik) tizimidir. Uning elementlari shaxsiyat, o'xshashlik, qarama-qarshilik, inklyuza va boshqalar munosabatlari bilan bog'langan leksik birliklardir. Sodda leksik birlikka misol sifatida uning ma'nolaridan birida olingan so'z yoki so'z tushunchasi keltirilgan. Leksik tizimdagi so'z tilning asosiy birligi hisoblanadi, so'z ko'p qirrali lingvistik belgidir. Unda belgi-tashqi, tovush tomoni, tovush qobig'i va belgisi – ichki tomoni, ma'nosi birlashtiriladi. Leksik ma'no so'z semantikasining eng muhim qismi. Leksema so'zining mazmuni (semantikasi) ikki tarkibiy qismdan iborat: predmet-material(leksik) va rasmiy (Grammatik) ma'nolar. Har bir tilda leksik-semantik paradigmalari ancha barqaror va kontekst ta'siri ostida o'zgarishlarga duch kelmaydi. Ma'lum so'zlarning semantikasi kontekstning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirishi mumkin, bu esa so'z birikmalaridagi tizimli aloqalarni aks ettiradi.

Premiologik birliklar tarkibidagi so'zlarning o'z ma'nosida yoki ko'chma ma'noda qo'llanish xususiyati bunday birliklarni leksik-semantik tahlilga tortishni taqazo etadi. Premiologik birliklar ham tildagi boshqa birliklar kabi diaxronlik va sinxronlik taraqqiyot qonunlariga ega. Bu esa uning sistemali xarakterga ega

ekanligini ko'rsatadi Paremiologik birliklar nutqda emas, tilda tayyor holda mavjud bo'lganligi uchun ular til hodisasi sifatida leksikografik, semantik, fonetik va Grammatik jihatdan endigina o'rganilmoqda. Masalan, ba'zi paremalardagi komponentlarning bir-biriga munosabati hozirgi tilimizdagi so'zlarning leksik-semantik, Grammatik birikishiga (grammatik normaga) to'g'ri kelmayotganlik holatlarini ham uchratishimiz mumkin. Paremiologik birliklarni leksik jihatdan tahlil qilish - qadimda foydalanilgan so'zlarimizni bugungi kunga kelib arxaik so'zga aylanganmi yoki tarixiy so'zga aylanganmi, arxaik so'z holiga kelgan bo'lsa bugungi kundagi muqobili qanday shu kabi savollarga oydinlik kiritish uchun ham leksik tahlilga suyanamiz. Masalan: tadqiqot ishimiz doirasidagi "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida keltirilgan – "*Es berganga das berar, Das berganga es berar*" [Go'ro'g'lining tug'ilishi, 53-b] paremasi qo'llangan bo'lib, bir o'qishda bugungi kun yoshlari ba'zi bir so'zlarini tushunmasligi mumkin. Ushbu paremada "Es" – hozirgi kunimizda aql, zakovat, bilim ma'nolarini ifodalaydi. Ushbu "es" shakli Surxondaryo, Qashqadaryo shevalarida hozir ham foydalaniladi. Yuqoridagi paremada "das" so'zi hozirgi tilimizdagi ish, hunar ma'nolarini ifodalaydi. Ushbu parema struktur jihatdan murakkab parema hisoblanadi. Paremalar semantik jihatdan uch qismga bo'linadi. 1) faqat kochma ma'noda qollaniladigan paremalar, 2) ham o'z ma'nosida ham ko'chma ma'noda qollaniladigan paremalar, 3) faqat o'z ma'nosida qollaniladigan paremalar. Yuqoridagi dostonda qo'llangan paremani semantik jihatdan tahlil qilinganda uning tarkibidagi barcha so'zlar ham umumiy ma'nosi ham faqat o'z ma'nosida qo'llangani oydinlashadi. Tuzilioshiga ko'ra ikki komponentli parema hisoblanadi, chunki mazmuniy markazlar soni ikkita.

Quyida biz "Go'ro'g'lining tug'ilishi" va "Alpomish" dostonlarida uchraydigan paremalarning leksik-semantik tahlilini ko'rib o'tamiz. Leksik-semantik tahlil doirasiga sinonimlik, antonimlik, omonimlik kabi so'zlarning shakl va ma'no munosabatlari ham kiradi. Sinonimlar tilning lug'at tarkibini boyituvchi tilda va nutqda rang-baranglikni ta'minlovchi muhim vositalardan hisoblanadi. Sinonimlardan paremalar tarkibida ham ko'plab uchratamiz bu esa ma'lum bir parema tashiydigan ma'noni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Akademik A.Hojiyev sinonimik qatordagi soʻzlarni:

- ifodalaydigan tushuncha doirasining oʻzaro farqli boʻlishi;
- tushuncha belgisining turli daraja bilan ifodalanishi;
- emotsional boʻyoqdorligi;
- nutqning biror turiga, uslubiga xosligi;
- adabiy til nuqtayi nazaridan eskirgan boʻlishi ;
- adabiy tilga yoki dialektlarga xos boʻlishi ;
- koʻp yoki oz qoʻllanilishi jihatidan farqlanishini qayd etgan.

Sinonimlar qatoridagi soʻzlar maʼno va uslubiy boʻyoqdorligi, maʼno darajasi jihatidan shu soʻz ifodalaydigan tushunchani bildiruvchi boshqa soʻzlardan farq qiladi. Sinonimlardagi bu xususiyat, yozuvchilarning, yaratuvchi xalqning soʻz qoʻllash mahorati asosida badiiy matnning obrazlilikini, taʼsirchanligini oshiradi. Professor A.I.Yefimov sinonimlarni yozuvchining soʻz qoʻllash mahoratini vujudga keltiruvchi cheksiz imkoniyat ekanligini alohida qayd etadi. Darhaqiqat sinonimlar yozuvchi mahoratini, xalq dunyoqarashini koʻrsatuvchi lingvistik vositadir. Chunki nutq sohibi soʻzlardan foydalanayotganda, soʻzning barcha xususiyatlarini, maʼno qirralarini hisobga olgan holda ish koʻradi. Sinonimlar maʼnosidagi boʻyoqdorlik, tushunchaning har xil darajasini ifodalash imkoniyatining mavjudligini isbotlaydi. Sinonimlar ham tilning lugʻat tarkibidagi boshqa soʻzlar kabi umumiy va xususiy sifatlarga ega boʻladi. Vaholanki, har bir sinonim boshqa soʻzlar singari maʼno ifodalash xususiyati jihatidan umumiylik kasb etsa, sinonimik qatordagi soʻzlarning maʼno ifodalashdagi rang-barangligi uning xususiy sifatlaridan biridir. Shu jihati sinonimlarni badiiy nutqda keng qoʻllanishiga zamin yaratadi. Chunonchi, badiiy matn ifodada obrazlilik, taʼsirchanlikka asoslanuvchi matn boʻlganligi uchun bir tushunchani har xil darajalarda ifodalash zaruriyatining tugʻilishi tabiiy holdir. Bu kabi vazifalarni badiiy nasrda sinonimlar bajaradi. Badiiy matnda sinonimlardan foydalanish uzoq tarixning mahsulidir. Tilshunosligimizda sinonimlar leksik maʼno darajasi va uslubiy boʻyoqdorligi nuqtayi nazaridan ideografik hamda stilistik sinonimlarga ajratilgan holda tahlil qilishadi. Sinonimlarga xos bu xususiyatlarning

barcha nutq turida birday saqlanishi, ularning leksik va uslubiy jihatdan barqaror ekanligini namoyon qiladi.

Tilshunoslikda ma'nodoshlikning asosan, uch turi farqlanadi:

-leksik ma'nodoshlik;

-frazologik ma'nodoshlik;

-leksik-frazologik ma'nodoshlik.

O'zaro ma'nodoshlik qatorini hosil qiluvchi so'zlar tushunchaning belgisini turlicha daraja bilan ifodalashi, ba'zi so'zlar belgini normal darajada ifodalasa ayrimlari belgini kuchli darajasini ifodalashi mumkin. Sinonim so'zlar emotsional bo'yoqli va emotsional bo'yoqsiz so'zlarni tashkil etadi hamda ular salbiy emotsional va ijobiy emotsional so'zlarga ham bo'linib ketadi.

“Go'ro'g'lining tug'ilishi” dostonida Po'ltan shoir: *“Haq saqlasa balo yo'q, Haq qarg'asa davo yo'q”* paremasidan ham foydalangan. Ushbu paremani semantik tomondan tahlil qilinganda ushbu parema tashiyotgan ma'no o'z ma'nosida, birorta leksema ko'chma ma'noda qo'llanmagan. Paremadagi so'zlarning leksik tomoniga nazar tashlasak sinonimlik xarakteriga ega, sinonimlar qatori mavjud bo'lgan so'zlar ham uchraydi. Masalan: “Haq” so'zi –*Yaratgan, Alloh, Yaratuvchi, Parvardigor, Xudo* kabi sinonimlar qatori bilan ma'nodoshlik hosil qila oladi. Bundan tashqari “Haq” so'zi omonimlik xususiyatiga ham ega “haq” – ulush (ulush) – *U mehnatiga yarasha haq oldi*. “haq”-to'g'ri(sifat) *Ustoz haq gapni aytdi*. Dostonda qo'llangan yuqoridagi paremada “balo”- so'zi ham qo'llangan bo'lib ushbu so'z ham – *ofat, kulfat* leksemalari bilan sinonimlik qatorni tashkil qilsa, “davo” – so'zi *shifo, darmon,chora* kabi leksemalar bilan ma'nodoshlar qatorini hosil qiladi. Vaholanki, “davo” – so'zi “da'vo”(shikoyat, arz) leksemasi bilan paronimlik jihatini ham namoyon etadi. Ushbu parema struktur jihatdan murakkab parema bo'lib, paremaning tarkibiy qismlari orasida mazmuniy jihatdan zidlash munosabatini ham ko'rishimiz mumkin. Hamda ushbu paremada leksik ma'nodoshlik hodisasi kuzatilgan. Ma'nodoshlar qatoridagi leksemalar nutqning turli uslublariga xosligi hamda tushunchalarning emotsional bo'yog' darajalariga ko'ra ham farqli tomonlarini ko'rishimiz mumkin.

Keyingi yillarda soʻz leksik maʼnolaridagi paradigmatic munosabatni semantik jihatdan eslatuvchi yana bir hodisa – lugʻaviy darajalanish (graduomiya) hodisasi mavjudligi, unda soʻzlar maʼno farqlashiga asoslanishi koʻpgina tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etildi²². Leksik sinonimiya maʼnolari bir xilligiga, oʻzaro yaqinligiga hamda oʻxshashligiga asoslansa, graduonimiya boʻlsa farqlilik omillariga tayanadi. Xulosa qilib aytganda, sinonimiya hamda graduonimiya hodisalari bir biridan keskin farq qiladi. Lekin shunga qaramasdan ularning orasida maʼnoviy munosabat ham mavjud boʻladi. Aslini olganda sinonimlarning biri oʻrnida ikkinchisini qoʻllash imkoniyati mavjud boʻlsa, denotativ maʼnolarga asoslangan graduonimlar orasida darajalanish farqlari kuchli yoki kuchsiz boʻlishi mumkin. Sinonimlar leksemalarni oʻrinsiz takror ishlatishga yoʻl qoʻymaydi, badiiy nutqimizni taʼsirchanligi va ravonligini taʼminlaydi, jumalarning ixcham tuzilishiga keng yoʻl ochadi, semalarni oʻrganishda chuqur fikr yuritishga imkon beradi. Nutqda, yaʼni yozma va ogʻzaki nutqda sinonimlarning katta amaliy ahamiyati bor. Maʼnodosh soʻzlar nutqiy taʼsirchanlikni, kitobxonning soʻz qoʻllash mahoratini oshirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, sinonimlar til lugʻat sostavining qanchalik boy va rang barangligini koʻrsatuvchi hodisalardan biridir. Sinonimlar ham maʼno qoʻllanish doiralariga koʻra uch xil boʻladi. Ideografik, stil hamda stilistik sinonimlar. Ideografik sinonimlar oʻzaro leksik maʼno ottenkali bilan farqlansa, stil sinonimlari qoʻllanish doirasiga (nutqning turli stiliga mansubligiga), stilistik maʼnodoshlik esa ekspressiv boʻyogʻiga (sinonimlik qatorida asosiy, neytral soʻzga nisbatan ekspressiv ottenkaga egaligiga) koʻra farqlanadi. Sinonimik qatordagi soʻzlar leksik maʼno qirradi, uslubiy tomoni va pragmatik semasi bilan oʻzaro farqlanishidan kelib chiqib, tilshunos olim M.Mirtojiyev sinonimlarni bir necha tipga ajratadi.

-Kontekstual sinonimiya – til birligi sifatida oʻzaro sinonim boʻlmagan leksemalarning maʼlum bir kontekst doirasida(demak nutq ichida) sinonimik

²² Rahmonov G'.Sinonimlar qatorida graduomiyaning ifodalanishi .Oʻzbek tili va adabiyoti .2012-yil 3-son ,71-72-b.

munosabatga kiritilish ²³. Katta mahoratli yozuvchilar badiiy til borasidagi ustunliklaridan biri shuki, ular faqat tilda mavjud bo'lgan, tayyor ma'nodosh so'zlardangina foydalanmasdan ma'nodosh bo'lmagan so'zlarni ham shunday qo'llaydiki, bu so'zlar ham matnda ma'nodosh so'zlardek idrok etiladi..Kontekst doirasidagina sinonimlashish hodisasi ayniqsa muallif leksemasining nutqdagi qo'llanishida ko'p uchraydi.

Xalq og'zaki ijodi asarlari tilini lingvistik jihatdan o'rganish hozirgi o'zbek adabiy tili, til tarixi, o'zbek dialektologiyasi fanlari uchun ham qimmatli materiallar beradi hamda adabiy tilning leksik-grammatik tomondan boyishiga, shuningdek xalq dostonlari tilida uchraydigan paremiologik birliklarni aniqlashda ham katta imkoniyatlarni ochib beradi.

Dostonlarda sinonimlarning xusisiyati, mohiyati jihatidan adabiy tildagiga mos kelsa-da, ammo ularning soddaligi, ifodaliligi, obrazlilik, estetik-ekspressivligi bilan farq qiladi. Sinonimlar ma'lum bir uslubiy vazifalarni ham bajarishga xizmat qiladi. Haqiqatdan ham sinonimlar qatoridagi so'zlar bir-biridan tashuvchi ma'nolari darajasiga ko'ra ham bir so'zni nomlab bir xil ma'noni ifodalab kelsa ham, darajalanishiga ko'ra ham farqlanadi.

Go'ro'g'libek bardosh berib,

Sabr qilar har kimga (Xoldorxon 112-b.)

Bu misolda *bardosh va sabr* so'zlari o'zaro sinonim *bardosh, sabr, toqat, qanoat, chidam, turum* kabi sinonimik qatorga ega. Bular "*sabr, chidam*" ma'nosini anglatadi. Bu sinonimik qarordagi *sabr so'zi dominant so'zdir*²⁴.

Xullas, dostonlardagi sinonim so'zlarni tahlil qilish jarayonida shuni guvohi bo'ldikki, ularning o'ziga xos xususiyatlarida xalq og'zaki ijodi tilining, dialekt va shevalarning ta'siri sezilib turganligini ko'rishimiz mumkin.

Tilimizda zid ma'noli so'zlardan foydalanish badiiy nutqning ifodaliligini, ekspressivligini, ta'sirchanligini ta'minlashda qulay vositalardan biridir. Sharq

²³ Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-Toshkent, 2005.-B.168.

²⁴ Fayzullateva Dilnoza Narimonovna. Xalq dostonlari tilining lingvomadaniy tadqiqi. Jizzax-2022. 16-bet.

adabiyotida juda qadim zamonlardan buyon tildagi sinonimlik, antonimlik, paronim hamda omonim soʻzlardan foydalanish orqali badiiy matnning qiymatini, badiiyligini yanada oshirishgan. Chunki oʻsha davrlardan buyon yomonlik ustidan qozonilib kelinayotgan har qanday gʻalabalarda ziddiyatning turli koʻrinishlari mavjuddir. Yevropa tilshunosligida antonym soʻzlardan foydalanish hodisasi “antiteza” deb yuritiladi. Badiiy matnning lingvopoetik tahliliga baʼgʻishlangan ishlarda ushbu hodisa zidlantirish, qarshilantirish, qarama-qarshilik atamaları bilan qoʻllanilib kelinadi. Antonim soʻzlarni yonma-yon qoʻllash orqali tushunchalar, belgilar, holatlar obrazlar zidlantiriladi. Aslida, antonimlik hodisasi koʻpincha, bir soʻz turkumi leksemalari doirasida yuz beradi. Zidmaʼnolilik, asosan, belgi anglatuvchi soʻzlarda uchraydi. Miqdor, vaqt, oʻrin, harakat-holat maʼnolarini ifodalaydigan soʻzlarda zidlik munosabati kam boʻladi. Xususan, antonimlik sifat, ravish soʻz turkumlarida nisbatan koʻp uchraydi. Feʼllarda, son, olmosh, modal va yordamchi soʻzlarda antonim hosil qiluvchi soʻzlar deyarli yoʻq. Odatda, leksik, kontekstual yoki nutqiy zid maʼnoli soʻzlar bir-biridan farqlanadi. Bir soʻz bir maʼnosida antonimga ega boʻlishi boshqa maʼnolarda umuman antonimga ega boʻlmasligi mumkin.

Baʼzi soʻz yasovchi affikslar ham antonimlik juftlikni hosil qilishi mumkin. Tilshunoslikda zid maʼnoli soʻzlar boʻyicha koʻplab tadqiqotlar olib borilgan. Kontekst tarkibida fakultativ tarzda yuzaga chiquvchi antonimlarni okkazional antonimlar sifatida baholash va ularning turli nutq uslublaridagi oʻziga xos lingvostilistik, semantik-ekspressiv xususiyatlarini oʻrganish, ularning paydo boʻlish asoslarini tahlil etish rus tilshunoslari L.A Vvedenskaya, G.E Goncharenkolar tomonidan oʻrganilgan²⁵ hozirgacha oʻzbek tilshunoslarining tadqiqot obyekti boʻlib kelmagan.

Tadqiqotimiz obyekti boʻlgan “Goʻroʻgʻlining tugʻilishi” dostonida ham koʻplab antonimlik munosabatidagi paremiologik birliklarni sanashimiz mumkin. Masalan: *Yaxshining bolasi yaxshi, yomonning bolasi yomon, yaxshidan yomon*

²⁵ Baydayeva G. Okkazional antonimlarni vujudga keltiruvchi obyektiv va subyektiv omillar//OʻZta, 2010-y 2-son .- B.92.

bo'ldi dema, bu ham o'z nasliga tortadi, yomon yaxshi bo'ldi, deb quvonma, bu ham tartadi o'z nasliga. (26-bet) Yuqoridagi parema bugungi kundagi “*Qazisan qartasan asl naslingga tortasan*” paremasi bilan ma'nodoshlik hosil qiladi. Ushbu paremadagi yaxshi-yomon so'zlari bir biriga nisbatan qarshilantirilgan. Ushbu paremiologik birlikda insonga xos bo'lgan xususiyatlar qarama qarshi qo'yilganligining guvohi bo'lamiz. Ma'lumki, zidlash munosabati kontekstual-situativ xarakterda ham bo'ladi. Antonimik munosabat nutq situatsiyasida, ya'ni so'zlarni ma'lum kontekstda qo'llash orqali hosil bo'ladi. Bunday antonimlar kontekstual antonimlar deyiladi. Kontekstual antonimlar ko'pincha individual, ya'ni biror bir muallifga tegishli bo'ladi. Ba'zi hollarda mahoratli yozuvchilar asar qahramonlari ruhiyatidagi kontrastlikni bo'rtirib tasvirlash maqsadida muayyan bir kontekstual sinonimik qatordagi bir necha so'zni boshqa bir kontekstual sinonimik bir necha so'zga birdaniga zidlantiradilar. Ko'pincha badiiy asarda kontekstual antonimlardan tasvirning ta'sirchanligini oshirish maqsadida foydalandilar. Chunki unda lingvistik jihatdan noodatilik kuchli bo'lib, ta'sir kuchi ularda odatdagilarga nisbatan kuchliroq bo'ladi. “Alpomish” dostoninida uchraydigan quyidagi parchada keltirilgan paremani tahlil qilaylik:

Jonim bolam, Barchin, ko'ngling bo'lmagin,

Otam qoldi, deb sen hafa bo'lmagin,

Ko'p yashagin, ko'p yilgacha o'lmagin,

Yaxshilik ko'r, yomonlikni ko'rmagin....

Tengquringga qo'shdim senday bolamni.

Yuqoridagi parchada keltirilgan – *Ko'p yashagin, ko'p yilgacha o'lmagin, Yaxshilik ko'r, yomonlikni ko'rmagin* paremasida ham mazmunan zidlik munosabati yuzaga keladi. Yashamoq-o'lmoq; yomonlik-yaxshilik so'zlari orqali antonimlik hodisasi yuzaga chiqadi. Ushbu paremadagi antonimlik leksik antonimlik xos bo'lib, gapdagi qarshilantirish san'ati orqali baxshilarning tildan foydalanish mahoratini belgilashda badiiy nutq ifodaliligini qay darajada ta'minlay olganligiga e'tibor qaratiladi. Yuqoridagi parema ham tuzilishiga ko'ra to'rt komponentli birikma hizoblanadi bunda ham mazmuniy markazlar soni to'rttani tashkil etadi.

Antonimlar ma'nosi strukturasi hamma vaqt umumiy sema bilan birga differensial sema ham mavjud bo'ladi. Ana o'sha sema o'zaro zid bo'ladi. Shunday ekan, ikki so'zning antonim yoki antonim emasligi faqat ularning semama strukturasi ochish asosidagina to'g'ri belgilash mumkin.

Xullas, antonimlar bir–biriga zid tushunchalar birligini ifoda etish bilan tilda stilistik vosita sifatida qo'llaniladi va badiiy ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi, badiiy matnning uslubining ravonligini ta'minlaydi. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida uchraydigan quyidagi paremada ham antonimlik munosabati ko'zga tashlanadi: *Do 'st kelsa dushman* er (81-bet). Paremada *do 'st va dushman* so'zlari bir-biriga nisbatan qarama–qarshi qo'yilgan. Dostonda dialektik ruhdagi "*Ko 'kayimni kesmoq*" turg'un birikmasi ham qo'llanilgan bo'lib, etimologiyasiga qaraydigan bo'lsak ushbu birikma tarkibidagi *ko 'kay* leksemasi "ko'ks" leksemasining shevaga xos ko'rinishidir. Uning ma'nosi "*ko 'ksimni kesdi*", "*azob berdi*" mazmuniga mos keladi.

Tilshunoslikda dostonlar tilining leksikasi tahliliga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar talaygina. Ushbu tadqiqotlar guruhiga S.Tursunov, A.Ishayev, D.Abdurahmonov, H.Bektemirov, F.Xaitova, M.Jumaniyyozova, J.Xolmurotova, J.Boyzoqov, E.Choriyev, S.Raximov, E.Jabborov, Z.Xolmonova va boshqalarning ishlari mazkur yo'nalishdagi yetakchi tadqiqotlar sanaladi, ayni chog'da ular filologiya sohasida ilmiy nazariyliligi va dolzarbligi bilan ham muhim o'rin tutadi.

Muayyan bir doston leksikasiga keng qamrovli yondoshilgan ishla sirasiga S.Tursunovning dissertatsiyon tadqiqoti ham alohida o'rin tutadi. Ushbu olim bir doston matni misolida folklore leksikasi va frazeologiyasining o'ziga xosligi, umumxalq tilining shu mazmundagi birliklaridan farqli ravishda tahlil etganligi bilan ilmiy-amaliy ahamiyatga molikdir. S.Tursunov birinchi bo'lib "Alpomish" dostonining dialektal leksikasini monografik planda o'rgangan. Ushbu ishida tadqiqotchi asosiy e'tiborni leksik, Grammatik, frazeologik dialektizmlarga qaratadi, ularning o'zbek adabiy tilida muqobillari bormi yo'qmi, kitobiy-poetik va xalq poetik leksikasining o'rganilganligi ham doston lingvopoetikasini tekshirish uchun munosib hissa bo'lib qo'shilgan. Ushbu tadqiqotdan tashqari

“Shayboniyxon” dostoni leksikasi”²⁶ ishida ham Z.Xolmonova asosiy e’tiborni leksik material tahliliga qaratadi. Unda qadimgi davrlardan an’ana sifatida saqlanib kelinayotgan qadryatlar, urf-odatlar va xalq ruhiyatiga xos bo’lgan paremiologik birliklarni o’zida mujassamlashtirgan doston leksikasi tahlilga tortilgan. Yana leksik tahlilga asoslangan ishlardan biri “O’zbek xalq o’yinlari leksikasi”²⁷ nomli ishda asrimizning 20-yillaridan so’ng ijtimoiy-siyosiy hayotda yuz bergan parokandaliklar o’zbekona urf-odatlar va an’analarga o’zining salbiy ta’sirini ko’rsatdi. Milliy madaniyatimizning ajralmas qismi sanalgan “xalq o’yinlari” taqiqlandi. “Zararli tarbiya uchun ziyon” bahonasida hatto ko’pkari, kurash singari ommaviy o’yinlar unitildi, ularning nomlari i’stemoldan chiqib ketdi. Fan texnika rivojlanayotgan bugungi kunda ham milliy o’yinlar unitilmoqda. Hozirgi yosh avlod o’yinning o’ziningina emas hatto ularning nomlarini ham bilmayotganligi, xalq o’yinlarini qayta tiklash, ularning nomlarini zikr etish, milliy madaniyatimiz ko’zgusi bo’lmish “xalq o’yinlari”ni kelgusi avlodga yetkazish ayni davrda umr guzaronlik qilayotgan xalqimiz farzandlarining, qolaversa, bizning eng muhim vazifalarimizdan ekanligini muallif ta’kidlab o’tadi. “Alpomish dostoni tilining leksik-semantik va stilistik xususiyatlari”²⁸ nomli tadqiqot ishida ham leksik xususiyatlar tahlilga totirilganini ko’ramiz.

Yuqorida sanab o’tganlarimizdan ko’rishimiz mumkinki, xalq dostonlari leksikasini kang qamrovda o’rganish, leksik tahalilga ilmiy jihatdan yondoshish sohasida tilshunoslikda e’tiborga molik muayyan ilmiy ishlar olib borilgan, o’ndan ortiq dissertatsiyalar yozilganligiga guvoh bo’lib turibmiz.

Umuman olganda, so’z va iboralarni, maqol hamda matallarni o’rganish ayniqsa, xalq ijodining gultoji hisoblangan dostonlar tilini o’rganish nafaqat o’zbek tili, qolaversa umumturkiy tillar uchun ham muhimdir. Shunday ekan, dostonlarimiz tilini o’rganish nafaqat folklorshunoslar uchun hamda tilshunoslarimiz, balki barcha til o’rganuvchilar ucun ham ulkan manba va tadqiqot obykti bo’la oladi.

²⁶ Xolmonova Zulxumor Turdiyevna .” SHayboniyxon” dostoni leksikasi-T.:1998.

²⁷ Jabborov Eshpo’lat. O’zbek xalq o’yinlari leksikasi –T.:1998.

²⁸ Abdiyev Azamat Turg’unboyevich .Alpomish dostoni tilining leksik-semantik va stilistik xususiyatlari Nukus.2011.

Dostonlar leksikasini tahlil qilar ekanmiz unda biz shevaga xos hamda arxaik paremalarning ham guvohi bo‘lamiz, bugungi kunda o‘zgargan lekin ma’nolari bir bo‘lgan paremiologik birliklarni ham uchramiz.

Xullas, adabiy til leksikasining shakllanishi, rivojlanishi hamda o‘zgarish bosqichlarining xususiyatlarini anqilashda epik ijod namunalari alohida o‘rin tutadi shu sababdan, dostonlardagi maqol va iboralarning lug‘atini o‘rganish nafaqat folklorshunoslik, balki tilshunoslik oldidagi eng muhim vazifalardan biridir.

2.2. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” va “Alpomish” dostonlaridagi paremalarning mavzuviy tematikasi tasnifi

O‘zbek xalq dostonlari tarkibini dialektal frazeologizmlar hamda maqollar asosiy tarkibini tashkil etadi. Dostonlar tilidagi paremiologik birliklarni to‘plash va tasniflash ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etgani holda, o‘zbek tilining leksik-frazeologik fondini boyitishga ham barakali tasir etadi. Paremiologik birliklarning mavzu ko‘lami keng qamrovliligini hisobga olib tadqiqot obyektiga olingan dostonlarda nisbatan ko‘proq uchraydigan temalarni tahlilga tortishni lozim deb topdik. Ushbu tadqiqotimizda paremiologik birliklarni bir qancha xususiyatga ko‘ra ajratib tasnif qilishni, o‘rganishni maqsad qildik. Yuqoridagi dostonlarimizdagi paremiologik birliklarni quyidagi mavzuviy guruhlariga ajratib tahlil qilib o‘tamiz:

1. Epik qahrmonlar ruhiy holati bilan bog‘liq paremiologik birliklar.
2. Diniy atamalar va qarashlar bilan bo‘g‘liq paremalar.
3. Milliy urf-odatlar bilan bog‘liq paremalar.
4. Tuli ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq paremalar (1-jadval).

1-jadval. Dostonlardagi paremiologik birliklar mavzuviy guruhlari

Epik qahramonlar ruhiy holati bilan bog‘liq paremlar	Diniy atamalar va qarashlar bilan bog‘liq paremlar	Milliy urf-odatlar bilan bog‘liq paremlar	Turli ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq paremlar
iching kuymoq	ena rozi xudo rozi	Nikoh quymoq	Nonni katta tishlasang ham, gapni katta gapirma
yurak bag‘ri ezilmoq	ona rozi xudo rozi	Boshi bo‘sh bo‘lmoq	Birovning buzog‘i o‘lsin desang, o‘zingning ho‘kizing o‘lar
ko‘ngli qolmoq	Suv bergan savobga botar emish, dilozor imonsiz tip-tikka qotar emish	Beshikkerti qilmoq	Bor maqtansa topilur, yo‘q maqtansa chopilur
rangi somonday sarg‘aymoq	Haq saqlasa balo yo‘q, haq qarg‘asa davo yo‘q	Bo‘ri bo‘lib kelyapsizmi, tulki bo‘lib kelyapsizmi	O‘zingniki o‘zagiga tepsang ham ketmaydi ekan, birovning bolasiga kishmish bersang ham turmaydi ekan

Dunyo xalqlari tilshunosligida u yoki bu tilning lug‘at boyligini tashkil etuvchi so‘zlarni “tematik guruhlar” asosida tasnif qilish, shuningdek, o‘zbek tilshunosligida ham so‘zlarni tematik qatorlarga ko‘ra tasnif qilib o‘rganish tajribasi allaqachonlar isbotlangan, ammo, bu usulni nomlashda aniq izchillik qayd etilmagan.

E.Begmatovning aytishicha “tematik guruhlar” atamasi ikki tushunchani anglatadi: so‘zlarni tahlil qilishning lingvistik metodlaridan birini va ushbu metodda tasnif qilingan til materiallarining leksik guruhlarini. Tematik guruhlar ilmiy metod, ya’ni lingvistik usuldir. Ushbu usul yordamida belgilanuvchi leksik guruhlarini til materiali beradi. Paremiologik birliklarni ham guruhlarga ajratib tahlil qilish tilning xalq hayoti bilan bog‘liq jabhalarini ham o‘rganishga imkon beradi. Ushbu jihatlari bilan tematik tasnif metodi lingvosotsiologik qimmatga egadir. E.Begmatov o‘zining monografiyasida tematik tasnifning qo‘llanilish o‘rinlari haqida to‘g‘ri va asosli fikr-mulohazalar bildiradi” tematik tasnif ma’lum leksik qatlamlarga yoki konkret uslublarga oid so‘zlarni guruhlash uchun, muayyan dialekt va shevalar leksikasini yoki tilning ma’lum sotsial tarmoqlariga oid so‘zlarni guruhlash uchun, ba’zi hollarda alohida yozuvchilarning lug‘aviy boyligini namoyish etish uchun,” degan xulosani beradi.

Epik qahramonlar ruhiy holari bilan bog‘liq paremlar: *iching kuymoq, yurak bag‘rim ezilmoq, yuzi tuman bo‘lmoq, rangi somunday sarg‘aymoq, dimog‘i kuymoq, gina qilmoq, ichi kuymoq, ko‘ngli qolmoq, chiroyi ochilmoq, og‘zi angrayib, burni tangraymoq, bag‘ring kuyganday bo‘lib yig‘lamoq, dimog‘i chog‘ bo‘lmoq, yurak bag‘ri ezilmoq, ko‘ngli qop-qora bo‘lmoq, ko‘ngliga og‘ir olmoq, ko‘ngli buzulmoq, ko‘zi to‘rt bo‘lmoq, darmoni qurimoq, dami ichiga tushmoq, qon yutmoq, ko‘ngli nozik, o‘zidan ketmoq, ko‘nglida bir shumligi bo‘lmoq, ko‘ngli qora, ko‘ngli yumshamoq* va boshqa ko‘plab turg‘un birikmalarni misol keltirishimiz mumkin.

Ushbu misollardan ko‘rinadiki, baxshilarimiz umumiste‘moldagi iboralardan unumli faydalana olganlari baxshi bobolarimizning hamda xalqimizning har bir so‘z va ibora hamda maqollar-u matallarning mazmunini yaxshi bilganliklaridan dalolat beradi.

Epik qahramonlar ruhiy holatini anglatishda, nisbatan “ko‘ngil” uzvli birikmalardan keng foydalanilgan. “Ko‘ngil” uzvli iboralardan xalq dostonlari tilida keng qo‘llanilgan bo‘lib ularning hammasida qahramonlar ruhiy kechinmalarini ochib berishda foydalanilgan. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining “Malikayi ayyor” dostoni leksikasiga bag‘ishlangan ilmiy ishda ham ko‘ngil leksemasi frazeologik birliklar tarkibida turli ma‘nolarda kelganligi haqida so‘z boradi ²⁹. G.Jumanazarova dostonlar matnida “ko‘ngil” uzvli iboralar sevish hissi, fe‘l-atvor, xarakter, xulq, shuningdek, xohish- istakka mos tushadigan ish yoki harakat bilan o‘ziga moyil qilishlik kabi semantik ma‘nolarni ifodalashga xizmat qilishini aytadi ³⁰. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” va “Alpomish” ham ko‘ngil uzvli iboralar ko‘plab uchraydi va turli ma‘nolarni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi:

Xursand qilmoq ma‘nosini tashuvchi ko‘ngil uzvli birikmalar: *Bobom Qultoy shunday ishlarni qilar, // Mehrigon bop ko‘p ko‘nglimni ko‘tarar* (F.Y.:420).Ushbu o‘rindagi “ko‘ngilni ko‘tarmoq” iborasida “xursand qilmoq” ma‘nosi bilan

²⁹ Уринбоев Б.Бозорбоев К. “Алпомиш “достони фразеологизмларининг твѣбири. - Самарканд: Сам ДУ,1998.- Б.9.

³⁰ Жуманазарова Г.Халк дostonлари тилидаги иборалар семантикаси// Узбек тили ва адабиѣти .-Тошкент , 2015.- № 6.-Б.81.

birgalikda “ruhlantirish” sememasi ham namoyon bo‘lmoqda. Fozil Yo‘ldosh variantidan boshqa variantlarida ham “ko‘ngil” bilan bog‘liq birikmalar juda ko‘p uchraydi: *-E shohning qizi. Olib borsang, uyin beradi, so‘yib yesang, go‘sht bo‘ladi, ko‘ngilginang xush bo‘ldi. Agar menga xavas qilsang sening bosh oting shul bo‘ladi,-dedi (E.O.: 384); Yuzim qaro bo‘ldi, deb, // Egam g‘amni soldi, deb, // Ko‘nglim ravshan bo‘lg‘ay-da, // Shul poygani olgaysan, // Yuzim bo‘lg‘ay-da (E.O.:332)* Yuqoridagi misollarda ko‘ngilning ravshan bo‘lishi xursand bo‘lmoqlikni, ko‘ngli tinchiganlik ma‘nolarini bildiradi.

“Ko‘ngil” bilan bog‘liq iboralarda xursand bo‘lish ma‘nosiga qarama qarshi xafa bo‘lmoqlikni bildiruvchu frazeologizmlar ham talaygina. *Ko‘ngli qop-qora bo‘lmoq, ko‘ngli buzilmoq, ko‘ngliga olmoq va boshqalar. Bularidan ko‘p qo‘llaniladigani ko‘ngli buzilmoq* bolib unda ko‘ngilni bir binoga o‘xshatish uchun asos bo‘lmoqda. Tasavvuf adabiyotida ham ko‘ngilni binoga, Ka‘baga o‘xshatish holatlari ko‘p uchraydi. Shu sababdan ham xafa bo‘lish ko‘ngil uyining buzilishiga o‘xshatiladi:

Alpomishbekning ko‘ngli buzilib, o‘zining yolg‘izligi, ota-onasining sariligi yodiga tushib, ko‘zining yoshi munchoq –munchoq bo‘lib, yuziga tizilib turdi (B.J.:55). “Ko‘ngil” uzvli birikmalarni g‘am yemoq, o‘ylamoq ma‘nolarida ham qo‘llasa bo‘ladi: *Polvonlarning sira yo‘qdir hunari. // Polvonlarning ko‘nglida yo‘q o‘lari (E.O.:342);* Surxaylning ko‘ngliga keldi: *“Shuning oldiga boray, shundan bir gap so‘rab qolay. Mobodo Alpomish bo‘lsa, buni bir ko‘ray”, -dedi (E.O.:361);* *Alpomishning ko‘ngliga keldi: “Meni-ku tortib ololmaydi, ko‘ngli o‘zidan qolib ketsin”, -dedi. -Arqoningni tashla, do‘stim,-dedi (B.J.:117).*

Doston matnlarida uchraydigan *ko‘ngli to‘ldi* birikmasi qoniqdi, *yoqdi ma‘qul keldi* kabi leksemalar ma‘nosini tashisa, *ko‘ngilga soldi* - iborasi orzu niyat qildi ma‘nolarini anglatadi, shuningdek, *ko‘ngli bo‘sh* iboralari ham qo‘llanilgan bo‘lib fe‘l-atvorni bildirishda foydalaniladi.

Hol-ahvol so‘ramoqlik ma‘nosi: *Manglayimni silab ko‘ngil so‘radi, // Boshdan oyog‘imga juda qaradi (F.Y.:420)*

Xotirjamlikni bildirish ma'nosidagi: *Bunday kunda ko'ngli to'qlar, // Agar kim bir-birini yo'qlar, // Otilmagan xurma to'plar, // Otil, Alpomish keldi (F.Y.: 445).*

“Bag‘ir” leksemasi bilan bog‘liq frazeologizmlar ham ko‘p o‘rinlarda kelgan. N. Bo‘ronova o‘zining “Alpomish” turkumi dostonlarida etnografizmlar nomli dissertatsiya ishida: *Bag‘ir o‘zbek tilida jigarni bildirib, shuningdek, ko‘chma ma‘noda “tananing bo‘yindan qoringacha bo‘lgan old qismi; kokrak, koksi, to‘sh” shu ma‘nodan kelib chiquvchi boshqa semalarga ega – degan fikr-mulohazalarni atib o‘tadi. E’tibor beradigan bo‘lsak, o‘zbek xalqida, shuningdek turkiy xalqlarda qarindosh-urug‘larga nisbatan jigirim, bo‘vurim kabi so‘zlarni qo‘llash holatlariga ko‘p guvohi bo‘lamiz. Bag‘ir uzvli frazalarda ham qahramonlar ruhuy olamini, kechinmalari, holatini ochib berishda baxshilarimiz mahorat bilan foydalanishganlar. Yuqoridagi dostonlarimizda: *bag‘ring kuyganday bo‘zlab yig‘lamoq hamda bag‘ri ezildi* birikmalari qo‘llangan bo‘lib, “bag‘ri ezilmoq” frazemasi tarkibidagi ezilmoq fe‘li mustaqil holatda yaxshi pishib yetilgan mevani holatini, yo bo‘lmasam biror ovqatni pishib masalliqdari ezilishi kabi holatlarga nisbatan qo‘llaniladi. “Bag‘ri ezilmoq” frazeologik birlik sifatida ma‘noni bo‘rtirish, kuchaytirish uchun qo‘llaniladi. “Bag‘ri ezilmoq” – “ruhan ezilmoq”, “qattiq qiynalmoq, tushkunlikka tushmoq” ma‘nolarini ifodalaydi.*

Dostonlarimizda, odatda bag‘ir so‘zi ruhiy holatlarni ifodalash uchun keng foydalanilgan bo‘lib, foydalanilgan o‘rinlarning aksaryati tushkun kayfiyatni ifodalash uchun qo‘llanilgan. Bag‘irni kabob qilmoq iborasi - qattiq kuyinmoq, ruhiy azob tortmoq tarzida izohlanadi³¹. “Alpomish” dostonining Egamberdi Ollomurod o‘g‘li variantida bir necha o‘rinda qahramonlarning ruhiy holatini ifodalash maqsadida qo‘llanilgan: *// bag‘rimni qilaman kabob, // Barchinoy yorimni qilayin tavof (E.O.:290); Yodgor bag‘rini kabob qildi, sari yoyni tavof qildi, yoyning g‘irishidan olib, tushiga soldi (E.O.:458)* va boshqa o‘rinlarda kuzatishimiz mumkin.

Xullas, yuqorida aytilganidek, bag‘ir uzvli frazeologizmlarda tushkunlik kayfiyati yetakchilik qiladi. Yurak – bag‘rini dog‘lab frazemasi ham ana shunday

³¹ Узбек тилининг изоҳли лугати. - Тошкент: Узбекистан миллий энсклопедияси, 2006, - 5 –ж. - Б.289.

frazeologik birliklar qatoriga kiradi. Ushbu frazema o'zbek tilining izohli lug'atida alam o'tqazib yoki boshga kulfat solib, dilda qattiq alam qoldirmoq, dilni yaralamoq kabi ma'no mazmuni beradi. O'tgan asrlarda xalqimiz asosan, paxta yog'idan foydalanishgan bo'lib ovqat tayyorlashdan oldin yaxshilab qizdirilib tozalangan, dog'langan. Ushbu holatlardan kelib chiqib tahlil qilinsa frazemaning ma'nosi yana ham oydinlashadi. *Bul so'zni deng onasi zor-zor yig'lab, yurak bag'rini dog'lab, betoqat bo'lib, nima qilarini bilmay, shu bilan so'zni toxtatdi (B.J.:21).*

Xulasa qilib aytganda, dostonlarimizda qo'llangan yuzlab frazeologizmlar millat tilida hissiy-ta'siriy bo'yoqqa ega leksik birliklarga bo'lgan ehtiyojning nihoyatda yuqoriligini hamda xalqimizning naqadar zukkoligi, baxshilarimizning har bir so'zni o'z o'rnida takrorlamasdan qo'llay olish mahoratiga ega ekanligini birgina frazeologik birliklar misolida ham ko'rish mumkin. Badiiy matnda, qolaversa so'zlashuv uslubida ham frazeologizmlardan foydalanish fikrni tinglovchi hamda o'quvchilarga obrazli, ta'sirchan qilib yetkazishga imkon beradi.

2. Diniy atamalar va qarashlar bilan bog'liq paremlar: *ena rozi xodo rozi, tuproq ushlang oltin bo'lsin, suv bergan savobga botar emish, dilozor tip-tikka imonsiz qotar emish, haq saqlasa balo yo'q, haq qarg'asa davo yo'q, ona rozi xudo rozi, mushkulini oson ber, Ollohdan madad tilamoq, Shaytonlab qochmoq*, va shunga o'xshash ko'plab paremlarni misol qilish mumkin. Aslida e'tibor beradigan bo'lsak tilining frazeologik fondining yarim qismini diniy tushunchalar bilab bog'liq elementlar tashkil etadi. Ular tilimizga tayyor holda kirib kelgan emas, balki milliy lingvokulturologik mahsulot sifatida keyin paydo bo'lgan [Bayzakov,1967]. Arabcha, forsha, hamda turkiycha diniy onamastik leksika bunday turdagi teofrazeologik birliklar semantikasida Alloh va uning qudrati, insonni yaxshilik va islomiy e'tiqodga davat qiluvchi niyatlar va duolar bilan bog'liq tarzda rang-barangdir [Omonturdiyeva, 2022].

“Teonim” (yunoncha-teog-xudo (Olloh) +onoma-nom, atoqli ot) - *Ollohning nomi va atributlarining atoqli oti* ³² degan ma'noni bildiradi. H.Ahmedov

³² Axmedov Hakimjon Yarashovich. Alpomish dostonida qadimiy , diniy e'tiqodlar bilan bog'liq frazeologizmlar va ularning semantikasi.Oriental Renaissance: Innovative educational ,natural and social sciences.2022. 382

“Teonimiya” diniy xarakterdagi atoqli otlarning to‘plami, yig‘indisi “teonimika” diniy, ilohiy onamastik ko‘lamga mansub atoqli otlarni o‘rganuvchi soha ma’nosini bildirishini aytib o‘tgan. Shuningdek o‘zbek onamastikasining haqiqiy bilimdonlaridan biri professor E.Begmatov diniy (xudo, payg‘ambarlar va avliyolar) va muqaddas joylar (jannat, do‘zax, Ka’ba...) kabi onamastik birliklarni teonim deb ataydi.

Tadqiqotimiz doirasidagi “Go‘ro‘glining tug‘ilishi” va “Alpomish” dostonlarida yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek ko‘plab diniy atamalar bilab bog‘liq paremlar uchraydi. Xususan ulardan biri: *ena rozi xudo rozi*-birikmasida Alloh nomlaridan biri *xudo* so‘zi qo‘llangan bo‘lib, ushbu so‘z ham teonim hisoblanadi. Paremanada ko‘rinadiki, musulmon olamida ena(ona)ga bo‘lgan yuksak hurmat, izzat qadimdan mavjud bo‘lgan. Bugungi kunda ushbu parema *ota rozi xudo rozi* – shaklida ham ishlatilishi dinimizda har bir farzand biror ish boshlashda, avvalombor, ota–onasining maslahati, yordami hamda roziligiga suyangan holda omalga oshirishi kerakligi shundagina Alloh taolo ham ularning yo‘lini ochishi mushkulini yengil qilishi oydinlashadi. H.Ahmedov o‘zining tadqiqot ishida teonimlar bilan bog‘liq quydagi muhim fikrlarni aytib o‘tgan: *Islom ta’limotiga ko‘ra, Alloh taolo – yuksak fazilatlar sohibi. Diniy amallarning barchasi Alloh va uning elchilari – payg‘ambarlari bilan bog‘liq. “Alpomish” dostonida ham Alohning xislat va xulqlarini ifoda etuvchi nomlar asosiy o‘rin tutadi va dostonida islomiy din ruhini ta’minlaydi. O‘zbekcha diniy matnlarda Alloh, turkey(mo‘g‘ilcha) tangri, fors-tojikcha xudo so‘zlarining barchasi qo‘llanadi. Alloh lafzi barcha tillarda, tangri faqat turkiy tilda, xudo so‘zi fors-tojik, o‘zbek, hind, urdu, pushtu, dariy, va turkey tillarda ishlatiladi. Demak, Alloh so‘zi bugungi kunga kelib, ekzotizmlik xususiyatini yo‘qotib, tilga o‘zlashgan. Biroq yuqorida tilga olinganidek, Alloh shunday ulug‘ qudrat va hikmat, fazilat va xulqlar egasiki, bu uning nomlarida o‘z ifodasini topgan. Chunonchi: o‘zbekcha diniy matnlarda Alloh, xudo, tangri so‘zlariga odatda sifat qo‘shib, Alloh taolo, Xudoyi taolo, Tangri Taolo, shaklida ishlatiladi: Taolo so‘zi arabcha bo‘lib, ulug‘ va oliy degan ma’nolarni bildirishini muallif aytib o‘tadi.*

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” hamda “Alpomish” dostonlarida Allohning 99 ismi bilan bog‘liq paremlar deyarli uchramaydi. Ularda Xudo, Haq, Yaratgan, Tangri Alloh kabi nomlari bilan bog‘liq paremlarni uchramiz. Allohning 99 ismini keltirilmasligiga sabab ushbu dostonlar ham xalq jonli, og‘zaki tilining namunasi ekanligidir. Dostonlarimizda keltirilgan-*Haq saqlasa balo yo‘q, Haq qarg‘asa, davo yo‘q* paremasi ham teonim komponentli birlik bo‘lib, teonim komponentli birliklar doimo o‘z ma‘nosida qo‘llaniladi. Paremalardagi keyingi komponentlar ko‘chma ma‘noda yoki nutqda avvaldan tayyor holda qo‘llangani uchun ham muhim semantik vazifa bajaradi. Yuqoridagi *Haq* so‘zi ham Alloh, Xudo, Tangri, Yaratgan kabi so‘zlar qatorida Alloh taoloni birdiruvchi so‘zdir.

Onamastikaga doir ilmiy tadqiqotlarda teonim tushunchasiga yondosh hodisa sifatida demonizm termini tilga olinadi. Demonizm- yunoncha “daimon”- “ruh”, “jin” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, insonlarning yovuz ruhlar, shaytoniy xislatlarini ifodalovchi termin hisoblanadi.

Ruscha sinonimlar lug‘atida demon so‘zining quyidagi ma‘nodoshlari berilgan: qora, ruh, shayton, lanati, satir, azazel, rakshas, nopok ruh, dushman, jin, iblis, yovuz kuch, isitma nopok kabi. Demon, demonizm so‘zlari monizm, ya‘ni yagonalik(Allohning yagonaliligiga ishora qilingan) so‘ziga zid so‘zlardir. Ya‘ni demonizm yakkaxudolik emas, balki ko‘p xudolikni targ‘ib etuvchi hodisadir, shu tufayli bu termin salbiy ma‘no anglatuvchi hisoblanadi. [Xudoynazarova, 2021].

Til inson hayotining turli tomonlarini, shu jumladan diniy hayotni ham aks ettiradi. Aslida, til va din ikki madaniy hodisa sifatida chambarchas bog‘liqdir. Gao Chiang =Jiangning fikricha, “til dinni yaratadi, din ham tilni yaratadi. Til aloqa va imo ishora vositasi sifatida ma‘naviy dunyoni qurish uchun asosdir. Din o‘ziga xos madaniy funksiyaga ega bo‘lgan ma‘naviy tizim sifatida tilni yaratadi” [Gao Chang-Jiang, 1992].

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida diniy atamalar ishtirok etgan paremlar ham qo‘llangan: *Suv bergan savobga botar emish, dilozor imonsiz tip-tikka qotar emish*, diniy komponentli paremasida *savob, imon* kabi diniy so‘zlar qo‘llangan. Dinimizda islomning dastlabki ustuni deb imon belgilangani barchamizga

ma'lumdir. *"La ilaha ilolohu, Muhammadur rasululloh"* demoq ya'ni iymon keltirmoq. Iymon degani aslida mazmunan tasdiqlash degan ma'noni bildiradi. Dostonda keltirilgan paremadan-suv bergan savobga botar emish, birovning dilini og'ritgan, o'zida bor bo'la turib bermagan hasis kishilar dinsiz, kalimasiz tip-tikka vafot etar emish mazmuni kelib chiqadi. Dinimizda *savob va gunoh* so'zlari har doim ham qarama qarshi tushunchalar sifatida qaraladi. *Savob* termini juda keng mazmun mohiyatga ega so'z hisoblanadi. Ushbu so'z o'zida yaxshilik, mehr-oqibat, yordam, sahiylik, oliyjanoblik, ochiqko'ngillilik, sadaqa va boshqa ko'plab insonga xos bo'lgan ijobiy xislatlarni, amallarni o'zida mujassam etadi. Yana shuni ham tassnif qilish joizki, dostonda duo darajasiga ko'tarilgan paremiologik birliklar ham qo'llanilgan: *Tuproq olsang, oltin bo'lsin* birikmasi bugungi kunga kelib otonalarimiz tomonidan duo, olqish darajasiga ko'tarilgan desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu paremadan tuproq olsang barakasi oltinchalik bo'lsin, ishlaringni rivojini bersin, risqu-ro'zing mo'l bo'lsin kabi ma'nolar o'rnida ham foydalanishadi.

Din leksikasi bo'yicha ustoz olim va olimalarimizdan E.Begmatov, Sh.Maxmaraimova, Sh.Omonturdiyeva, H.Ahmedov, Bayzakov, O'.Xudoynazarova, G.Begmatova kabi tadqiqotchi olimlarimiz ish olib borganlar.

Dunyo tilshunosligida ham din va frazeologiya o'rtasidagi aloqani o'rganishga urinishlar bo'lgan. Masalan: L.LGrigoriyeva rus, ingliz, arab tillari egalarining diniy olamini aks ettiruvchi frazeologik birliklarni hozirgi kunda dolzarb hisoblangan lingvokulturologik paradigma doirasida tadqiq qilgan ³³. Sh. M.Sultonova maqolasida E.E.Chikinaning xristianlik bilan bog'liq turli ekstrolingvistik realiyalarni nomlovchi komponentlar ishtirok etgan frazeologik birliklarni lingvokulturologik yondashishdan tashqari lingvomamlakatshunoslik jihatdan ham o'rganganini ta'kidlab o'tadi. Qardosh boshqird tilida diniy leksikani tadqiq qilgan Z.R.Xofizova diniy leksikani 14 ta mavzuviy guruhga bo'lib tasnif qiladi. Mamlakatimizda so'ngi yillardagi ijtimoiy va siyosiy vaziyatda yuz berayotgan o'zgarishlar natijasida tadqiqotchilar uchun diniy leksikani o'rganish

³³ Григорьева Л.Л Фразеологическая репрезентация религиозного мира человека (на материале русского, английского и арабского языков) Авторуф.дис...канд.филол.наук.Казаню .2009.-21 с.

imkoniyati yanada kengaydi. Diniy leksik qatlamni turli nuqtayi nazardan o‘rgangan o‘zbek olimlaridan yana bir qanchasini sanash mumkin: H.M.Uluqov (o‘zbekcha diniy matnlardagi ekzotik leksika), M.Umarxo‘jayev (diniy uslub va diniy terminologiya), Sh.S.Sirojiddinov (o‘zbek klassiklari ijodida diniy –falsafiy ta’limot), Sh.T.Maxmaraimova (teomorf metofaralarning kognitiv aspekti), Sh.M.Sultonova (muqaddas matnlarda zamon kategoriyasi), M.R.G‘aliyeva (olaning lisoniy manzarasida mifologik-diniy ong) kabi ilmiy ishlari fikrimizning yorqin dalilidir.

3. Milliy urf-odatlar bilan bog‘liq paremiologik birliklar tasnifiga dostonlarimizda uchraydigan *beshikkerti qilmoq, nikoh quymoq, boshi bo‘sh bo‘lmoq* turg‘un birikmalari hamda *Bo‘ri bo‘lib kelyapsizmi, tulki bo‘lib kelyapsizmi* metofarik birliklari va boshqa paremlar sirasiga kiruvchi birliklarni tahlil qilishimiz mumkin. Yuqoridagi frazeologik birliklarning barchasi o‘zbeklarda to‘y oldi marosimlari bilan bog‘liq birliklar hisoblanadi. Aslida o‘zbek nikoh to‘ylari uch bosqichda o‘tkaziladi: toygacha bo‘ladigan urf odatlar, nikoh to‘yi vaqtida bajariladigan urf odatlar hamda to‘ydan so‘ng o‘tkaziladigan urf – odatlar shular jumlasidandir. Biz yuqorida sanab o‘tilgan iboralar o‘zbek nikoh to‘ylarining birinchi bosqichi bilan bog‘liq urf odatlar sirasiga kiradi. Biz o‘zbeklarda to‘yning birinchi bosqichlarida “qiz tanlash” yoki “qiz ko‘rish” hamda “sovchilik” udumlari muhim o‘rin tutadi. Qiz tanlash udumlarida, odatda, ayyollar faollik ko‘rsatishgan. Sovchilikka borishda esa erkaklar faollik ko‘rsatishgan. An’anaga ko‘ra, tanlangan qiz xonadoniga ayollar borib “og‘iz islash” qilishgan. Xalq orasida bunday sovchilik “mokiyon sovchilik” nomi bilan yuritilgan³⁴. “Qiz islash” jarayonida qizning “boshi bo‘shmi “yo “boshi bog‘liqmi” ekanligi surishtirilgan. Shundan so‘ng rasmiy holda sovchi bo‘lib kelishgan. “Og‘iz islash” nomi bilan yuritiluvchi sovchilikning bu bosqichi “Alpomish” dostonida ham keltirilgan. Ushbu dostonida yetti polvonlarning onasi Surxayl kampir Qorajon o‘g‘li uchun Barchin yashaydigan

³⁴ Худойкулова Л.Сурхон воҳаси совчилик кушиклари ва айтимлари./ Узбек фолклоршунолиги масалалари .Таникли фолклоршунос олим,профессор О.Сафаров таваллудининг 70 йиллигига бағишланган илми мақолалар топлами.Ўзбекистон. -Т .:Фан ,2010. -Б .157.

xonadonga “og‘iz islash” maqsadida bir necha ayollar bilan boradi. Bu holat dostonidagi quyidagi she‘riy parchada o‘z aksini topgan:

O‘zbeklarning yaxshi qizi bor bo‘lsa,

Atashirib ro‘mol berib kelaman.

O‘zbeklarning yaxshi qizi bor bo‘lsa,

Boshi bo‘shmi deyin, avval so‘rayin.

Yaxshi qizlar agar boshi bo‘sh bo‘lsa,

Kelin qilib, biror ro‘mol o‘rayin.

Uylantirsam, senga xabar berayin,

*Borishli, kelishli bo‘lib yurayin*³⁵

Yuqoridagi parchagi “boshi bo‘sh” birikmasi o‘zbeklarda ko‘proq qizlar turmushga chiqqandan so‘ngina, asosan, ro‘mol o‘rashgan shu nuqtayi nazardan hamda ushbu ibora turmushga chiqmaganmi, birov bilan boshi biriktirilmaganmi kabi ma’nolarni anglatadi.

Etograf K.Shoniyozov qarluqlarning nikoh to‘yi marosimi udumlari haqida to‘xtalar ekan, quyidagilarni aytib o‘tadi: “Kelin bo‘ladigan qiz tanlangandan so‘ng yigit tomonidan ikki ayol – kuyov bo‘lgichning ammasi va holasi yoki turmushga chiqqan opasi sovchilikka borishadi”. Ushbu ma’lumotlar asosida “Alpomish dostonidagi” Surxayl kampirning Barchinga sovchilikka borish epizodiga e’tibor qaratilsa, Surxayl tomonidan shu udumning noto‘g‘ri ado etilganligi, buzulganligi oydinlashadi. Chunki udumlarimizda yigitning onasi emas, balki unga yaqin qarindosh bo‘lgan ayol borib bilib kelishi, keyin agar u tomonning qizni berishga ko‘ngli bo‘lsa keyingina erkak sovchilar borishi qadimdan buyon an’ana tusiga kirgan. Ushbu holatdan ko‘rinib turibdiki, Surxaylning manman, nopisand, befarosat ayol ekanligiga ishora berilyapdi.

Urf – odatlarimizga ko‘ra sovchi kelgan xonadonga qizning onasi ularni ochiq chexra va muloyimlik bilan izzat ehtirom ilan kutib olishi, mehmonlar oldiga

³⁵ Алпомиш, 42 –bet.

dasturxon yoyishi, choy van noz-nematlar keltirishi odt tusiga kirgan. Choy ustida mehmonlardan biri oz maqsadini bayon qilishi kabi udumlarimiz “Alpomish” dostonida ham Barchinga Surxaylning sovchi bo‘lib kelish epizodida ham quydagicha aks etgan: “Mehmonlar ko‘rishib o‘tirdi. Boybicha mehmonlarga osh taraddud qildi, ziyofatga palov pishirib damlab: “Endi mehmonlar bilan gaplashib o‘tirayin”, - deb boybicha ham kelib o‘tirdi. U yoqdan bu yoqdan gap talashib, besh to‘rt og‘iz gap boshlashib, shunda kampir boybichaga qarab, shu qizingning boshi bo‘shmi, -deb so‘rab turgan edi:

Qozonda qaynagan shirboz g‘oshtmidi?

Shul qizingning agar boshi bo‘shmidi?

Boshi bo‘shmi deyin, sendan so‘rayin,

Kelin qilib biror ro‘mol o‘rayin,

Qorajonga atashdirib borayin...³⁶

Sovchilik bilan bog‘liq holda “boshi bo‘sh” va “ro‘mol o‘rash” birikmalarida ham milliyeligimiz namoyon bo‘ladi, odatda ro‘mol o‘rash udumi qizning boshini band qilish, ya’ni fотиha qilish rasmini ramziy ifoda etadi. Ro‘mol o‘rash udumidan so‘ng bu qizga boshqa birov tomonidan sovchi yuborilmaydi, chunki endi qizning atalgani bor hisoblanadi.

“Alpomish” dostonida “qiz tanlash”ning yana boshqacha ko‘rinishlarini ham kuzatamiz. Yetti qolmoq bahodirlardan biri Ko‘kaman tilidan shunday deyiladi: “Bular yotgan eliboy, bu qizlarga burilib borayin, borib bulardan qimiz so‘rayin. Qimiz bersa, shu qizning birovini olaman, suv bersa, quruq qolaman, peshonamni shu yerda sinab ko‘raman” shunday deya Ko‘kaman qizlardan qimiz so‘rab keladi. Shunda Barchin kaniziga aytadi: “Bu qolmoq qimizni bizdan so‘rayapdi. Bir jom suv bergin bizdan suvday sovib ketsin”, - deydi. Suqsur kaniz bekasining gapini qilib jom toldirib suv beradi. Ko‘kaman alp jomdagi qimiz emas suv ekanligini ko‘rgach achchig‘i kelib, kanizning bilagiga himchi bilan soladi. Jom jiringlab yerga tushib ketadi. Suqsur kaniz Ko‘kaman alpdan bu zulmni ko‘rganiga ko‘ngli buziladi ³⁷.

³⁶ АлПОМИШ, 45-bet

³⁷ АлПОМИШ , 554-55-betlars

“Alpomish” dostonida *Bo‘ri bo‘lib kelyapsizmi, tulki bo‘lib kelyapsizmi*³⁸ metofarik birikmasi ham qo‘llanilgan bo‘lib, ushbu birikma zoonim komponentli metofara hisoblanadi. Zoonimlar bilan metofaralarning guvohlik berishichainsonlar va hayvonot olami hayot yaralibdiki, bir-biri bilan bog‘liq holda hayot kechirayotganini ko‘rishimiz mumkin. Parema va metofaralarda uchraydigan zoonimlar salbiy yoki ijobiy holatda qo‘llanishiga qarab, ushbu xalqning qaysi hayvon yoki qushga asrlar davomida shakllangan bahosi, qarashlarini ko‘rishimiz mumkin. Yuqoridagi kabi hayvon nomlari uchraydigan birikmalarda majoziy ma‘no ustuvorlik qiladi. Bahodir Sarimsoqovning ta‘kidlashicha : “Maqollar ham o‘z ham ko‘chma ma‘noda qo‘llana olish imkoniyatiga egadir. Bu xususiyat maqollarning tematik doirasini, qo‘llanish darajasini kengaytiradi”. Majoziy xarakter ifodalangan birliklarda hayvon obrazlarini keltirish orqali insonga xos xususiyatlar hayvonlar orqali ko‘rsatiladi, ya‘ni metofara yoki paremada keltirilgan ibratli fikr aynan maqolda keltirilgan hayvonga emas, aksincha, insonlarga, ularning fe‘l-atvorlariga, xatti-harakatlariga qaratilgan hisoblanadi. Aksariyat paremiologik birliklarda hayvon vositasida, salbiy xarakterli insonlarga dashnom beriladi, tanqid qilinadi. Yuqoridagi *Bo‘ri bo‘lib kelyapsizmi, tulki bo‘lib kelyapsizmi* metofarasida xalqimizning bo‘ri hamda tulki obrazlariga bergan bahosini ko‘rishimiz mumkin. Bo‘ri o‘zbek xalq og‘zaki ijodida totemikobraz hisoblanadi. Qadimiy manbalardan yetib kelgan rivoyatlarda *Bo‘ri* turk urug‘i avlodining davomchisi sifatida ta‘riflanadi. “Ona bo‘ri” nomli afsonada tasvirlanishicha, qadimgi turklar go‘yo dushman tomondan qirilgan turk urug‘i orasida tirik qolgan o‘n yoshli o‘g‘il bola ona bo‘ridan tarqalgan degan rivoyatlar mavjud. “Bo‘ri”, “Bo‘ri qiz”, “Cho‘loqbo‘ri” kabi ertaklarda talqin etilgan totemik bo‘ri obrazi insonning xaloskori, uning himoyachisi sifatida tasvirlanadi. Keyinchalik totemik e‘tiqotlarga ishonchning yo‘qolishi tufayli ertaklarda bo‘ri yovuzlik, qonxo‘rlik, zulm va zo‘rlik, bosqinchilik timsoliga aylandi. Jahon xususan o‘zbek badiiy ijodida bo‘ri goh ijobiy goh salbiy obraz sifatida gavdalanadi. Demak, yuqoridagi birikmada o‘zbek xalqi

³⁸ Алпомиш, 48-bet

bo‘rini kuch-quvvat ramzi deb, biror ishga kirishdimi, albatta, o‘sha ishni uddasidan chiqishi kabi tassavurda ekanligi oydinlashadi. Tulki obrazi esa ertaklarda ham keltirilganidek ayyorlik ramzi hisoblanishi ushbu metofarada ham keltirilgan. Tahlilga tortilgan metofaradan bo‘ridek o‘ljani olib, ishni yakunlab kelyapsizmi, yoki tulkidek aldab, ayyorlik qilib gapni aylantirib kelyapsizmi kabi ma’nolar yuzaga chiqadi.

4. Turli ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq paremlar tasnifi: *noni katta tishlasang ham gapni katta gapirma, birovning buzog‘i o‘lsin desang, o‘zingning ho‘kizning o‘lar, zorim boru zo‘rim yo‘q, boshing eson davlatingni kam dema, bor maqtansa topilar yoq maqtansa chopilar, el elga kelsa davlat, el eldan ketsa mehnat, omonatga qaynim qilma hiyonat, o‘zing tug‘may ul bo‘lmas sotib olmay qul bo‘lmas, o‘zingniki o‘zagiga tepsang ham ketmaydi ekan, birovning bolasiga kishmish bersang ham turmaydi ekan, dushmaning has bo‘lsa qo‘rq, ol oldirma, quvgin qochma* va boshqa paremiologik birliklar doston tiliga xosdir. Yuqorida keltirilgan “*Birovning buzog‘i o‘lsin desang, o‘zingning ho‘kizning o‘lar*” paremasi “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida qo‘llanilgan bo‘lib, bugungi kunda ko‘p qo‘llaniladigan “*Birovga choh qazisang o‘zing tushasan*” mazmunidagi paremaga mos keladi. Ushbu birliklarda ham xalqimizga xos bo‘lgan birovga yomonlik tilamaslik, qarg‘ish deymizmi, yomon niyat deymizmi uning bir uchi o‘zingga kelib tegishi haqidagi haqiqat oydinlashadi. “*Nonni katta tishlasang ham gapni katta gapirma*” paremasida manmanlik qilmaslik, gapirayotgan so‘zimizga ehtiyot bo‘lish kabi ma‘no-mazmun kelib chiqadi. Ushbu tasnifimizda insonlarning ijtimoiy tabaqalanishi bilan bog‘liq paremlar ham uchraydi masalan: “*Bor maqtansa topilur, yo‘q maqtansa chopilur*” paremasi “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida qo‘llanilgan bo‘lib, paremadagi “*bor*” hamda “*yo‘q*” leksemalari orqali “*bor*” so‘zi orqali boylik, ya‘ni boy tabaqasi nazarda tutilmoqda. “*Yo‘q*” leksemasi orqali esa, kambag‘al leksemasi ma‘nosi oydinlashib turibdi. Yuqoridagi parema bugungi kunda tilimizda ko‘p ishlatiladigan “*Boy kiysa qulluq bo‘lsin, Kambag‘al kiysa-qayerdan olding*” paremasi bilan mazmunan yaqin bo‘la oladi. “*Boshing eson davlatingni kam dema*” birligida ham ijtimoiy tabaqalanish terminlari qo‘llanilgan

bo‘lib, ushbu birikma bugungi kundagi *“Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topiladi”* paremasi ma‘nodoshi bo‘la oladi. Ushbu birikmalar pand-nasihat ruhidagi matal bo‘lib, insonlarga shukronalik, qanoat tuyg‘ularini uyg‘otish, singdirish vazifalarini bajaradi.

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa

Leksik sathimizda shunday so‘z va birliklar borki, ular xalqimizga xos bo‘lgan milliy madaniyatni, o‘ziga xos mentalitetni aks ettiradi. Ushbu birliklarda ifodalanayotgan lug‘aviy ma‘nodan tashqari faqat o‘zbek xalqigagina tegishli bo‘lgan urf-odatlar, marosimlar, an‘ana va qadryatlar, turmush tarzi ham aks ettiriladi. Bunday xususiyatlarga ega bo‘lgan birliklarimizni ilmiy atamalar doirasida *“Paremalar”* deb ataymiz.

Xalq dunyoqarashi va madaniyati takomilini namoyan qiluvchi paremiologik birliklar *“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”* hamda *“Alpomish”* dostonlari misolida leksik-semantik jihatdan tahlil qilindi.

Shuni ham alohida ta‘kidlash joizki, paremiologik birliklar leksik mavzu va hajm jihatdan keng qamrovli bo‘lib, yuqoridagi dostonlarimizdagi paremalarni alohida o‘rganishni taqozo etadi.

Mazkur bobda biz *“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”* va *“Alpomish”* dostonlari tiliga xos paremiologik birliklarni ma‘no va mazmun jihatdan guruhlariga bo‘lib tahlilga tortdik.

III BOB. “GO‘RO‘G‘LINING TUG‘ILISHI” VA “ALPOMISH” DOSTONLARIDAGI PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOKUTROLOGIK XUSUSIYATLARI

3.1. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” va “Alpomish” dostonlari tiliga xos frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari

Ma’lum bir millat lingvokulturologiyasini aks ettiruvchi birliklar sirasiga paremiologik birliklar ham kiradi. Paremiologik birliklar muayyan xalqning uzoq tarixi hayotiy kuzatishlari orqali paydo bo‘luvchi maqol, matal, ibora, hikmatli so‘z hamda aforizmlardir. Frazeologizmlar turg‘un birikmalar hisoblanib, ular ham millat lingvomadaniyatini, o‘ziga xos dunyoqarashini, qiyofasini obrazli namoyon qiluvchi vositalardir. Frazeologizmlar tarkibidagi biror so‘z yoki o‘sha ibora anglatayotgan mazmun o‘sha tilga tegishli bo‘lgan millat haqida milliy madaniy axborot beradi. Har bir til o‘z taraqqiyoti davomida mukammallashib, rivojlanib boradi. Tilning Grammatik fonetik, leksik va boshqa jihatlari normalashib, barqarorlashib lug‘at tarkibi boyib boradi. Bunday jarayonlarda frazeologizmlar qatori ham shakllanadi, boyiydi, nutqimizning obrazliligi va emotsionalligi oshib boraveradi. Frazeologik birliklar ma’lum bir millat mentaliteti va madaniyati haqidagi ma’lumotlarning yig‘indisidir. “Frazeologizmlar tilda madaniy axborotni, xalq milliy tafakkur tarzini o‘zida aks ettirgan inson kommunikativ-situativ jarayonining eng muhim birliklaridan biri hisoblanib”³⁹, Ular xalq, millat og‘zaki ijodi namunalarida, badiiy asarlarda va xalq tili hamda urf-odatlarida o‘zgarmay saqlanib kelinmoqda. B.A.Larin “Tongda yorug‘lik shudring tomchilarida qanday aks etsa, iboralar xalq dunyoqarashi, ijtimoiy tuzum, o‘z davri mafkurasini shunday aks ettiradi”, - degan edi⁴⁰. Shuning uchun dunyo tilshunos olimlarini frazeologik birliklar doimo qiziqishlar markazida bo‘lgan. Rus tilshunosligida V.N.Teliya va uning maktabi vakillari iboralarni o‘rganganligi bilan mashhurdirlar. Aslida rus tilshunosligida frazeologik birliklar bo‘yicha tadqiqotlar XVIII asrdan boshlab shug‘illanib kelishmoqda. Xususan, M.V.Lomonosov rus adabiy tili lug‘atini tuzar

³⁹ Исмоилов Ф.Оламнинг фразеологи манзарасида “ инсон “концепти// Узбек тили ва адабиёти .- Тошкент, 2015.- № 6 .Б.22.

⁴⁰ Каранг: Маслава В.А. Лингвокуьтурология. Учебное пособия . 4- е изд – Москва: Академия, 2010.- 208 с.

ekan ushbu jarayonada soʻzlar bilan ber qatorda “xalq maqollari”, “frazeslar” hamda “ideomatizmlar” oʻz aksini topishini alohida taʼkidlab oʻtadi. Maʼlumotlarga koʻra, frazeologiya sohasining ilk tadqiqotchisi sifatida shevtsar –fransuz tilshunosi Sharl Balli hisoblanar ekan. U oʻzining “Stilistika ocherki” v “Fransuz stilistikasi” nomli asarlariga soʻz birlashmalari, yaʼni frazeologizmlarni tadqiq etuvchi maxsus boblar ham kiritgan. Frazeologizmlarni oʻrganishdan maqsad, avvalombor ularning miliy – madaniy koʻchma manolarini tahlil etish hamda mentalitetning xarakterlovchi qirralarini ochib berishdir. “Frazeologik birliklar aynan madaniyat haqidagi axborotni, milliy mentallikni ifodalaydigan til birligidir”⁴¹. Xususan, oʻzbek tilshunosligida Sh.Raxmatullayev, B.Yoʻldoshev, Sh.Usmonova kabi olimlar qarashlarida frazeologik birliklarning oʻziga xos belgilari, tarqqiyoti, uslubiy jihatlari, etimologik xususiyatlari, ayrim tillar frazeologizmlari bilan qiyoslanishi, iboralarni modellashtirish muammolari, strukturaviy va semantik xususiyatlari kabi muhim masalalar oʻrganilgan. Keyingi yillarda eʼlon qilinayotgan ishlarda frazeologizmlarning lingvokulturologik tomonlariga alohida eʼtibor beryotganligini koʻrishimiz mumkin.

Oʻzbek va jahon tilshunosligida xalq dostonlari tilining xususiyatlari, ularning lisoniy, tipologik va badiiy-estetik xususiyatlari keng koʻlamda oʻrganilayotganligi jamoatchilikka maʼlum. Oʻzbek tilshunosligida xalq dostonlari tilidagi lingvomadaniy birliklar borasida Sh.Absurahmonov, S.Tursunov, Z.Xolmonova, J.Xolmurotova, A.Rahimov, X.Toshmatov, Sh.Mahmataliyev, A.Ishayev, N.Mahmudov, X.S.Roʻziboyev, S.M.Sariyev, S.H.Yoʻldosheva, U.Jumanazarov, G.Jumanazarovalar, ilmiy tadqiqotlarida⁴² qiyosiy-tarixiy hamda sistem-struktur

⁴¹ Маматов А, Болтаева Б.Фраzeологик birlikларнинг лингвомаданий ва семантик - прагматик тадқиқи. - Тошкент ,2018 .- Б.5.

⁴² Шаабдурахманов Ш. О художественных средствах языка поэмы “Равшан”. Автореф. дис...канд. филол. наук. – Тошкент, 1949. – 19 б.; Турсунов С. Лексические особенности дастана “Алпамыш”. Автореф. дис...канд. филол. наук. – Ташкент, 1990. – 19 б.; Холманова З. “Шайбонийхон” достони лексикаси (Пулкан шоир варианты асосида). Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 1998. – 25 б.; Холмуротова Ж. Шимолий Хоразм дostonлари лексикасининг функционал-услубий хусусиятлари. Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2000. – 160 б.; Ишаев А. Дostonлар тилининг баъзи бир хусусиятлари // Эргаш шоир ва унинг дostonчиликда ўрни. – Т.: 1971. – Б. 173-179.; Рўзимбоев Х.С. Жанубий Хоразм дostonлари тилининг луғавий-маъновий таҳлили (“Шаҳриёр” ва “Маликаи Завриё” дostonлари мисолида) Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 2000. – 25 б.; Сариев С.М. Хоразм “Тўрўғли” дostonларининг қўлёзма вариантлари. Филол. фан. номз. ...дисс., Тошкент, 2007; Раҳимов А.С. Ўзбек халқ дostonлари лексикасининг қиёсий-тарихий таҳлили (Эргаш Жуманбулбул ўғли ижоди мисолида). Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Самарқанд, 2002. – 25 б.;

yoʻnalishda esa D.Oʻrinboyeva, Q.M.Olloyorov, I.Umarov, N.Xadjimusayeva, A.Eshmurotov va boshqalarning dissertatsiyalarida tadqiq etilgan. Tilshunoslikning alohida sohasi sifatida shakllangan lingvokulturologiya boʻyicha ilk tadqiqotlar Moskva frazeologik maktabi tilshunoslari V.N.Teliya, Yu.S.Stepanov, A.D.Aruteynova, V.V.Vorobyev, N.F.Aefirenko, V.M.Shaklein, B.A.Maslavalar tomonidan olib borilgan izlanishlar⁴³ bilan bogʻliq ravishda paydo boʻlgan. Lingvokulturologiya tilni madaniyat fonomeni sifatida oʻrganuvchi fan boʻlib, oʻzaro aloqadorlikda boʻlgan til hamda madaniyat uning predmetini tashkil etadi. V.N.Teliya bu haqda shunday yozadi: “Lingvokulturologiya insoniy, aniqrogʻi, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır”⁴⁴.

Lingvikulturologiya oʻzbek tilshunosligida yangi yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Shunga qaramasdan, oʻzbek tilshunoslari ham bu borada ham anchagina tadqiqotlarni yuzaga keltirishdi. Jumladan, A.Nurmonov, Sh.Safarov, S.Karimov, N.Turniyozov, Z.Jumayeva⁴⁵ va boshqa tadqiqotchilar ishlari eʼtiborga loyiq. Shuningdek, bu sohada T.M.Olimjonova, X.S.Rasulov, Sh.R.Usmonova, Sh.S.Xolmatov, M.T.Eshonqulova, A.A.Nosirovlar ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishmoqda. Hozirgi kunda oʻzbek tilshunosligida shakllanib borayotgan lingvokulturologiya inson madaniyatini shakllantiruvchi va til bilan chanbarchas

Халиков А.А. “Тўрўғлининг туғилиши” достони тилининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 2009; Жуманазарова Г. “Ширин билан шакар” достонининг луғавий ва лингвопоэтик хусусиятлари (Фозил Йўлдош ўғли варианты асосида): Филол. фан. номз. ...дис. автореф., – Тошкент, 2008. – 26 б.; Шу муаллиф. Фозил Йўлдош ўғли достонлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил). Филол. фанлари д-ри дис. Тошкент, 2017. – 268 б.; Ўринбаева Д.Б. Халқ оғзаки ижоди: жанрий-лисоний ва лингвостатистик тадқиқ муаммолари: филол.фан. д-ри (DSc) дисс.автореф. – Самарқанд, 2019; Оллоёров Қ.М. Хоразм достонлари ономастикаси (“Тўрўғли” ва “Ошиқнома” туркум достонлари асосида). Филол. фан. фалсафа д-ри... (PhD) дисс. Автореф. – Самарқанд, 2018, – 46 б.; Умаров И. “Малика айёр” достони лексикаси филол. фан. фалсафа д-ри... (PhD) дисс. Автореф. – Фарғона, 2020, – 46 б. ва бошқалар.

⁴³ Телия В.Н. Русская фразеология: семантические, прагматические и лингвокультурологические аспекты. - Москва, Школа. «Языки русской культуры».1996.С.-286; Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие.-Москва, Наука.2010.-С.21.; Маслова В.А. Лингвокультурология.Учебное пособие для студентов высших учебных заведений.-Москва, Изд. Центр «Академия».2001.С.-208.; Шаклеин В.М. Лингвокультурология. Традиции и инновации. Монография - Москва, Флинта.2012.С.-301.; Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. Монография.- М.:Изд.РУДН.2008.-С.240.

⁴⁴ Телия В.Н. Русская фразеология: семантические, прагматические и лингвокультурологические аспекты.- Москва. Школа «Языки русской культуры»,1996. С.-222.

⁴⁵ Жуманазаров У., Жуманазарова Г. Халқ достонлари тилидаги лингвомаданий бирликлар. Монография. – Тошкент, 2019. –Б. 277; Жумаева З.Ш. Фразеологик бирликларнинг семантик ва лингвокультурологик тадқиқи. Филол.фан.фалсафа док (PhD) дис. ...автореф. –Жиззах, 2021. –Б. 58.

bog‘liq muhim hodisa sifatida qaralmoqda. Chunki “tilning obyektiv xususiyatiga bog‘liq ravishda antroposentrik paradigmadagi inson til egasi sifatida asosiy o‘ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi”⁴⁶.

O‘zbek xalq dostonlariga xoslangan frazeologizmlarni lingvokulturologik jihatdan tadqiq etar ekanmiz, ularni mazmuniy guruhlariga ham ajratishni lozim topdik: 1 – qahramonlikni aks ettiruvchi paremiologik birliklar: *Ot chopsa gumburlar tog‘lar orasi, Botirlarni ingratar nayza yarasi*; 2-Vatanparvarlik ulug‘lanuvchi paremiologik birliklar: *Tog‘lar aziz bo‘lar tuman chalmasa, Yo‘llar aziz bo‘lar, karvon yurmasa-Gul ketar bo‘lsa guliston emranar, Shaxar vayron bo‘lsa, sulton tebrantar*. 3- Ijtimoiy qatlam bilan bo‘g‘liq paremlar: *Bor maqtansa topilur, Yo‘q maqtansa chopilur*, 4-Do‘st va dushmanlik bilan bog‘liq paremlar: *Do‘st kelsa dushman er, Do‘st yig‘latib dushmanni kuldirmoq* va boshqa ko‘plab mavzuviy guruhlariga bo‘lish mumkin. Frazeologizmlarda tilda so‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan ekspressiv munosabatini ifoda etuvchi vositalardir. Frazeologizmlar nominativ va qo‘shimcha (kesatish, jirkanish, nafrat, so‘kish, qarq‘ish singari salbiy; erkalash, hazil, rag‘batlantirish kabi ijobiy) ma‘no munosabatlarni aks ettiruvchi nutqiy birliklardir. Aslida, frazeologizmlar biror hodisani atash, nomlash vazifasini bajarmaydi, balki shu predmet yoki hodisani aniqlashtirib, ularni emotsional, obrazli tarzda baholaydi, yetkazadi. Ayni shu jihati bilan ham lingvokulturologiya fani uchun ahamiyatli hisoblanadi. Frazeologizmlar xalq ijod mahsuli bo‘lganligi uchun ham uning manbalari u yoki bu xalq yashayotgan joyning tabiati, iqtisodiy tuzumi, tarixi, madaniyati, hayot tarzi, og‘zaki ijodiyoti, badiiy adabiyoti, san‘ati, fani, urf-odatlarini bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbek tili leksikasida mavjud frazemalarning deyarli hammasida lingvokulturologik belgilar sezilib turadi. Misol uchun: “qoli ochiq” iborasida qo‘llaniluvchi belgi bildiruvchi frazema bo‘lib, aynan tanti va mehmondo‘st xalqimizning qiyofasi gavdalanadi. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida

⁴⁶ Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012 № 5. –Б-6-7.

qo‘llangan: *Urayxon podshoning dimog‘i chog‘ bo‘lib (Po‘lkan shoir.:89-bet)* gapida qo‘llangan “dimog‘i chog‘ bo‘lmoq” iborasi aytilishi va eshinishi bilan ko‘z o‘ngimizda o‘zbek xalqining hamda uning samimiy, sodda, tanti arzimagan narsaga ham ko‘ngli yorishadigan soddadil o‘zbek vakilining xushchaqchaq qiyofasi ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Yana ushbu dostonida qo‘llanilgan: *Otasining o‘limiga dimog‘i kuyib (Po‘lkan shoir.:96-bet)* jumlasidagi “dimog‘i kuyib” frazemasi orqali o‘zbek xalqiga xos yaqinidan ajralganda qanchalik iztirobga tushish, to‘y tomoshalarga bormaslik, vafot etgan yaqiniga nisbatan hurmat – ehtirom sifatida azador bo‘lib yurish kabi xalqimizga xos yana bir jihat oydinlashadi. Istalgan bir frazemani olsak ham barchasida lingvokulturologik ahamiyatga molik mazmun, vaziyat yuzaga chiqaveradi. Ularda ham shaklan ham mazmunan xalqimiz madaniyati va ma‘naviyatiga xos belgilar namoyon bo‘laveradi. Bugungi kunga kelib lingvokulturologiyaga oid ishlarning salmog‘i ortib borishi bilan o‘zbek frazeologik birliklarini lingvokulturologik jihatdan tadqiq qilish bugungi kun tilshunoslari oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi. Frazeologizmlar asosida metofara va turg‘un o‘xshatishlarning mushtarak qorishmasi yotadi. O‘zbek xalq dostonlarimizda asosan ko‘p uchraydigan iboralar bu sonatik frazemalardir. Ular “jonli so‘zlashuv nutqida katta miqdorni tashkil qiladi, kishilarning ruhiy, emotsional holatlari va xarakterini ifoda etishga xizmat qiladi⁴⁷”, xalq dostonlari matnlarida ham keng uchrab makon, vaqtga doir madaniy kod vazifasini bajaradi. Frazeologizmlar tadqiq qilinggan ko‘plab asarlarda somatik frazeologizmlar katta qismni tashkil etganligi aytib o‘tiladi.

Sh.Usmonova “Aynan somatik frazeologiyasida har bir xalqning ko‘p asrlik tajribasi, turmush tarzi, madaniyati, ma‘naviyati, urf-odatlar va an‘analari o‘z aksini topgan bo‘ladi.”- deya yozadi.

Yuqoridagi fikrlarni “Alpomish” va “Go‘ro‘g‘ning tug‘ilishii” dostonlarida uchraydigam frazeologik birliklar misolida ham ko‘rishimiz mumkin.

⁴⁷ Жуманазарова Г.У. Халқ дostonлари тилдаги иборалар семантикаси. Узбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 2015 -№ 6. Б.80.

Tana a'zolari bilan bo'g'liq frazeologik birliklar, odatda, olamni bilishning o'xshatish, metofara, qiyoslash uslublari nomoyon bo'ladi. Inson mavhum narsalarni tasvirlashda ularni moddiylashtirishda, haratada bo'ladi. Moddiylashtirish tana a'zolariga qiyoslashdan tashqari, insonga singdirilgan olam tasviri hamdir⁴⁸.

“Alpomish” dostoni frazeologizmlarining ta'biri lug'ati⁴⁹da quydagicha tana a'zolar bilan bog'liq iboralar qo'llanishgan.: boshlari aylanib, boshiga balo bo'lmoq, bosh olib ketmoq, boshiga yetar, boshiga savdo solmoq, boshi bo'sh, boshini aylantirib, bosh olib ketayin singari frazeologik birliklar tavsiflangan ushbu birikmalar o'zbek xalq dostonlari tilida ham faol qo'llaniladi. Bosh so'zi bilan bog'liq iboralar insonning ma'lum “ruhiy holati”, “oilaviy holati”, “jismoniy holati”, “yo'nalish”, biror harakatga aralashish, ergashish, inkor etish”, “tilak” kabi maqsadlar uchun ekspressiv ifodalarga egaligi tadqiqotchi Sh. G'aniyevaning monografiyasida o'z aksini topgan⁵⁰ ularda “aql, es-hush” semasi yetakchilik qiladi. Shuningdek bosh tana a'zosi sifatida peshona, soch, qovoq,soqol, burun, og'iz, yuz, quloq, tish, kabi qismlardan iborat. Tadqiqot obyektimiz doirasidagi “boshi bo'sh” frazeologizmi bo'yi yetgan, turmushga chiqmagan qizlarga nisbatan qo'llaniluvchi birikma hisoblanadi. O'zbek, umuman sharq xalqlarida kelinlarimiz, ayollarimiz boshlariga ro'mol o'rab yurishgan, turmushga chiqmagan qizlar esa bosh yalang ya'ni, ro'molsiz sochlarini turmak yoki o'rib yurishgan mana shu ro'mol o'ragan yoki o'ramagani, tashqi qiyofasidan ham oila qurgan yo qurmagan ma'lum bo'lgan. “Alpomish” dostonida Barchinga kelgan sovchilar quydagicha aytimlar bilan qizning qo'lini so'rab keladi: *Qozonda qaynagan shirvon go'shmididi // Shul qizingning agar boshi bo'shmididi ?//Boshi bo'shmi deyin, sendan so'rayin, // Kelin qilib biror ro'mol o'rayin(F.Y.):*. Matndan turkiy qabilalarda “boshi bo'sh” iborasi oila qurmagan, turmushga chiqmagan ma'nosida qo'llanilgan. Unashtirilgan qizlarning boshiga ro'mol o'rab ketishgan va o'sha qizni endi boshi ochiq

⁴⁸ Никитина У.С. Игръ с телом / Никитина У.С.Психосемантика телесности. -Москва , 2005. -С .51.

⁴⁹ Уринбоев Б.Бозорбоев К. “Алпомиш “достони фразеологизмларининг твъбири. - Самарканд: Сам ДУ,1998.- 40 б.

⁵⁰ Ганиева Ш. Узбек фразеологизмларининг структур тадқиқи.-Тошкент: Фан , 2013.- Б . 73 -75.

hisoblanmagan. “Chaqaloqlarni bir biriga unashtirib qo‘yish odati ham ro‘mol o‘rash deb nomlangan”⁵¹ Ushbu gapda ham shunga ishora qilib “Kelin qilib biror ro‘mol o‘rayin deyilmoqda”. Ushbu gapda ro‘mol o‘rash ifodasi “unashtirish” ma’nosini ifodalaydi. Shu kabi birliklarning ma’nolari tarkibida “harakat”, “marosim”, “kelishish” singari semalar mavjud bo‘lib, ro‘mol o‘ramoq ifodasi evfemik vosita sifatida o‘ziga xos tarzda shakllangan.

Boshi bo‘sh, boshi ochiq, boshi bog‘lanmagan kabilarning barchasi oila qurmagan, turmushga chiqmagan iboralari bilan sinonimik xarakterga ega. Erga tegmagan ifodasi ham yuqoridagilar bilan sinonimik xarakterda bo‘lib salbiy ma’noni ifodalaganligi “qo‘pollik” pragmatik semasi mavjud bo‘lib, boshi bo‘sh iborasining evfemik vosita sifatida qo‘llanishida o‘zbek millatiga xos andisha, uyat, milliylik kabi xususiyatlar ham ko‘zga tashlanadi.

“Saodat asri qissalari” asarida johiliyat davrida arablarda ham shunday odat bo‘lganligi eslatiladi. Xattoki eriga aza tutib turgan ayolning boshiga kutilmaganda ro‘mol tashlash orqali uni boshqa erkakka turmushga chiqishini majburiy holga aylantirishgan⁵². Bundan xulosa qilinsa, boshi bog‘liq, boshi bo‘sh iboralarining tarixi islomdan avvalgi davrlarga borib taqaladi, binobarin, dostonning ham yoshini belgilaydi.

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” va “Alpomish” dostonlari bosh bilan bog‘liq iboralar ko‘p o‘rinlarda uchraydi. Xususan, *Akam suydi menga zulm o‘tkarib.// Men ketayin bundan boshimni olib* (F.Y.:) Quydagi misolda bosh olib ketmoq iborasida biror ishga qo‘shmoq iborasining zidi, bosh tortmoq, ketmoq ma’nolari bilan sinonimlik hosil qiladi. Bundan tashqari bosh olib ketish “harakat”, “o‘rin” ya’ni biror joydan ketmoq ma’nolarini anglatishda ham foydalaniladi. Bosh olib ketmoq –“ushbu yurtdan, makon, joydan ketish, g‘ariblik, musofirlikni, vatandan uzoqlashish kabi ma’nolarni bildiradi. *Rostini aytmasangiz, men bu Boysun shahrining bahridan o‘taman. Boshimni olib ketaman,- deb Alpomish so‘zini*

⁵¹ Uzbek xalq ijodi ёдгорликлари. 100 жилдлик. 1-жилд. Алпомиш (Фозил Йулдош угли варианты). Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. - Б. 488.

⁵² Ахмад Лутфий Саодат асри киссалари. 1-китоб. - Б. 114. //www.zivouz.com.

to 'xtatdi (B.J.: 20). Bosh olib ketmoq iborasi "Butunlay tashlab ketmoq va qaytmas bo'lib ketmoq" ma'nolarini bildirgan. B.O'rinboyev, K.Bozorboyevlar Fozil Yo'ldosh o'g'li og'zidan yozib olingan "Alpomish" dostoni tilidagi bosh uzvli frazeologizmlarning o'ndan ortiq leksik-semantik xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi^{53 54}. *Bul ishlarga endi hayron qolibman, // Bir boshimni ko'p savdoga solibman, // To'y sizniki, go'sht sizniki, Ultonbek, // Bul odamlar nimasini olibman* (B.J.: 214). Mazkur satrlarda boshini savdoga solmoq iborasi qo'llanilgan bo'lib, bosh – o'z, shaxsiyat ma'nosiga ega. Sinekdoxa usulida ma'no ko'chishi orqali insonni ifodalaydi. Boshini savdoga solish o'zbek tilidagi boshini tiqmoq (aralashmoq, xabar olmoq), bosh qo'shmoq kabi iboralar bilan birgalikda "jamlik" semasini ifodalaydi. Bosh chiqarmoq, bosh tortmoq frazeologik birliklari esa "ajralish" semasiga ega. Markaziy Osiyo xalqlari mentalitetiga xos bo'lgan jamoa bo'lib yashash, undagi ichki jarayonlar mazkur iboralarning ijtimoiy hodisalarni ifodalashiga ham ishora qiladi.

Ushbu dostonlarimizda inson tana a'zolari bilan bog'liq ko'plab biriklamar uchraydi. Dostonlarimizda bosh, peshona, quloq, burun, til, bo'yin, og'iz va boshqa a'zolar bilan bog'liq birliklar juda ko'p uchraydi. Xalqimiz qarashlariga ko'ra yaratgan har bir bandasining peshonasiga uning taqdirini yozgan bo'lar emish. Dostonlarimizda ham bunga ishoralar ko'zga tashlanadi. Masalan, Alpomishga tiklab bir g'oz o'zini zindonga tashladi. Alpomishning ko'ziga ko'ringan maloika edi. Ularning maqsadi Alpomishni zindondan chiqarib ketmoq edi. Shunday Alpomishning oldiga qo'nib qarasa, peshonasida yetti yil zindonda yotish yozilgan.

Buni ko'rib bo'lmas ekan, deb turdi (B.J.: 93). Yuqoridagi misoldan ko'rinib turibdiki xalqimiz orasidagi peshona uzvli birliklarimizda xalqimizning islom diniga xos bo'lgan "taqdirga ishonish", "taqdir ishiga ko'nish" kabi lingvokulturologik semalari namoyon bo'ladi. Yana peshon uzvi bilan bog'liq iboralardan *Bu savdolar peshonangda bor ekan,/Eliborlar, bu peshonang sho'r ekan* (E.O.: 239). "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "*pehonasi sho'r*" iborasi "omadsiz", "baxtsiz" semalariga

⁵³ Рахматуллаев Ш. Узбек тилининг изоҳли фразеологик лугати. - Тошкент: Укитувчи. 1978. - Б. 51.

⁵⁴ Уринбоев Б., Бозорбоев К. «Алпомиш» дostonи фразеологизмларининг таъбири. - Самарканд: 1998. - Б. 89.

ega bo‘lib, izohli lug‘atda qismati yomon, iqboli past, baxtsiz tarzda izohlangan. Xalqimiz tomonidan bu kabi iboralar baxtsizlikni, g‘am-g‘ussani, g‘alvani boshni ifoda etadi. Xullas, dostonlarimizda keltirilgan peshona uzvli birliklar “taqdir”, “taqdir bitigi”, “tavakkal”, “rizolik” madaniy semalarini bildiradi. Shuningdek “ko‘z” uzvli birliklarimiz ham talaygina. Xalqimizda ko‘z inson his-turg‘ulari ifodachisi, u sezgi organlarning ifodachisi hisoblanadi. Xalq og‘zaki ijodiyotimizda ko‘z jalb qiluvchi ta’sir vositasi sifatida turli badiiy san’atlarni yuzaga chiqaruvchi tasvir vositasi sifatida qo‘llaniladi. “Devonu lug‘atit –turk”da ham “Bulnar meni ulus ko‘z, qora mengiz, qizil yuz”- deb yoziladi⁵⁵⁵⁶. Yuqoridagi parchadan: Ulus – aldovchi, mastona ma’nosini bildirib kelayotgan bo‘lsa, xalq dostonlarida parilarning nazari tushushi bilan odamni toshga aylantirib qo‘yishi haqidagi ba’zi bir qarashlarga ishora sezilyapdi. Yana bir misol: *Ko‘zim ochib boqsam o‘ngu so‘limga, / Ko‘zlarim to‘rt bo‘lib qoldim yo‘lingga* (B.J.:79). Birikma tarkibidagi to‘rt raqamining qo‘llanilishida ham, xalqimiz tasavvurida dunyoning to‘rt tomoni, to‘rt farishta, to‘rt kitob yoki chor kitob, chor yor, to‘rt yor, to‘rt mucha, to‘rt fasl kabi to‘rtliklar mavjud⁵⁷. Ko‘zi to‘rt bo‘lmoq iborasida intizorlik, intiqlik, kutaverib charchash kabi semantik ma’nolar mavjud. Bundan tashqari insonning ruhiy holatini ham ifodalash uchun hatto, ikki ko‘zning kamlik qilishi, boshqa a’zolarining ham ko‘zga aylanganligini ta’kidlash uchun ham ko‘z ikkilantirilgan.

Dostonlarimizda inson tana a’zolaridan biri og‘iz so‘zi bilan ham bog‘liq paremiologik birliklar ham qo‘llanilgan. Masalan: “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida *og‘zi angrayib, burni tangrayib* birikmasi tahliliga nazar solsak ushbu birikma dialektik xarakterda bo‘lib, o‘zbek xalqiga xos soddalik, arzimagan holatga ham hayratlanish xususiyatlari mavjudligi namoyon bo‘ladi. *Og‘zi angrayib, burni tangrayib* birligida xalqimizga xos bo‘lgan biror voqea yoki, holat, vaziyatni guvohi bo‘lganda og‘zi ochilib hayratdan qotib qolishi kabi xatti-harakatlari madaniy semasi ko‘zga tashlansa, “Alpomish” dostonida ular “*og‘zini bulg‘amaq*”, “*og‘ziga*

⁵⁵ Узбек тилининг изохли лугати. - Тошкент: Узбекистан миллий энциклопедияси, 2006. - 5-ж. - Б. 12.

⁵⁶ Махмуд Кошгарий. Девону луготит-турк. Уч жилдлик. - Тошкент: Фан, 1963. - Б. 92.

⁵⁷ Жураев М. “Сехрли” ракамлар сири. - Тошкент: Узбекистан, 1990. - Б. 66-71.

olmoq” tarzida uchraydi: *Mol dunyongga mening otam zor emas.*//*Ketaber, Surxayl, yo’ldan qolmagin,*//*Kelinim deb og’zingni bulg’ab yurmagin* (E.O.:260). Ushbu parchadan ma’lumki, Surxaylning gaplari Barchinga yoqmaydi. Bunaqa odam hazar qiladigan gaplarni aytish “*og’izni bulg’ash*” deb ta’riflaydi, bu o’rinda Surxaylning so’zlariga nisbatan kam presuppozitiv o’xshatish qo’llanilgan.

Frazeologik birliklar insonning nutqiy faoliyatini ifodalovchi harakat-hoлатlarni ham ifodalsh uchun ham qo’llanilgan bo’lib, ular o’zbek xalqining milliy qadryatlarini, so’z qo’llash uslubiyatini aks ettirgan “Alpomish” dostonida bollalarning katta bo’lishi tasvirida: *Shunda bollalar kundan kun o’tib, birdan ikkiga kirib, tili chiqib, elga enib, tili chiqqandan keyin, elga engandan keyin tutib, uchovini ham maktabga qo’ydi.* Matnda *tili chiqmoq* iborasi vaqtga oid kod vazifasini bajarib, insonning nutqiy salohiyatga ega bo’lish vaqtini ifodalamoqda. Til bilan kuydirmoq iborasi inversiyaga uchrab qofiya talabiga ko’ra kuydiradi til bilan shaklida qo’llaniladi//til bilan kuydiradi –ma’nosi: alam qildirmoq, alam bilan bo’g’iltirmoq, g’am-alam chektirmoqdir⁵⁸: *Sozandalar sozin chertar qo’l bilan, //Yomon odam kuydiradi til bilan* (F.Y.:92). Til so’zi kuydirmoq so’zi bilan birikkanda salbiy ma’no ifodalaydi. Frazemada tilning olovga o’xshatish holatlari kuzatiladi. Bu o’rinda xalq didaktikasida keng tarqalgan til odabi masalasi ko’tariladi. Tilning qilichga, arlonga o’xshatilishi “Qutadg’u bilig” da uchrasa, “Devonu lug’atit-turk”da “*Ardam (odob) boshi til*” shaklidagi maqollar kuzatiladi. O’zbek xalq dostonlari va ertaklarida so’zning qudrati, barcha odobga oid asarlarda tilning zarari haqida so’z ketadiki, bu xalqimizga xos mentalitetning yana bir qirrasini nomoyon bo’ladi.

O’zbek xalq dostonlarimizning har birida yuzlab frazeologik birliklarning qo’llanilganligi millat tilida hissiy-ta’siriy bo’yoqqa ega leksik birliklarga bo’lgan ehtiyojning nihoyatda yuqoriligini belgilaydi. Frazeologizmlarda obrazli ifodalardan foydalanish fikrni tinglovchiga ta’sirchan qilib yetkazish imkonini beradi. Frazeologik birliklar xalq tiliga juda yaqin turadi, shuning uchun xalq tilini

⁵⁸ Уринбоев Б., Бозорбоев К. «Алпомиш» достони фразеологизмларининг таъбири. - Самарканд: СамДУ, 1998. - Б. 31.

ularsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, chunki iborada milliylik, umumxalq ahamiyatiga ega bo‘lish ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Xullas, frazeologik birliklar til boyligidir. Frazemalarni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish, xalq tili bilan qiyosan o‘rganish orqali til egalarining milliy mentaliteti, madaniyati, milliy qarashlari, tasavvurlari, hayotga munosabati kabi masalalarni tadqiq qilish mumkin.

3.2. Dostondagi maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari

Paremiologik birliklar ma‘lum bir xalqning qaysidir davrining hayotiy xulosasi natijasi sifatida shakllangan hamda tildan-tilga o‘tib sayqallanib kelayotgan xalq og‘zaki ijodi namunasi hisoblanadi. Paremlar sirasiga kiruvchi maqol va matallar xalq ijodiyotining bebaho durdonasi bo‘lib, xalqning qadimdan sayqal topib shakllanib kelayotgan tajriba mevasidir. Milliy madaniyat, urf-odatlar hamda insonning tabiat va jamiyatga bo‘lgan munosabatlari maqol va matallarda ixcham shaklda aks etgan. Ma‘lum bir o‘tkinchi davr uchun xos bo‘lgan ayrim maqollar eskirishi va istemoldan chiqib ketishi mumkin. Maqollarning ko‘pchiligi vaqtlar o‘tishi bilan ma‘lum qolipga tushib, quyma holatda qo‘llaniladigan bo‘ladi, hamda tayyor holdagi til birligiga aylanadi. Maqol va matallar davrlar o‘tishi bilan shakliy jihatdan o‘zgarishi mumkin, lekin mazmuni saqlanib qolganlari ko‘plab uchraydi. Paremiologik birliklar ham tilning boshqa bir birliklari singari tildagi ma‘lum unsurlari kabi so‘z va birikmalardan tashkil topadi, muayyan bir fikrni ifodlash bilan birga paremlar nutqning ta‘sirchanligini oshirishga ham xizmat qiladi. Nutqimizdagi har bir maqolda uni yarargan millat dunyoqarashi, mentaliteti aks etadi. Shu xususiyati bilan xalq madaniyati shakllanishini o‘rganishda yetakchi o‘rinda turadi. “Darhaqiqat, maqollarda ota bobolarimiz bosib o‘tgan yo‘lni, kechirgan turmushlarini, shodliklari va chekkan azob uqubatlarini, ezuvchi sinfga nisbatan bo‘lgan qahr-g‘azablarini, teran mazmunli pand-nasihatlarini, qadimgi davrlarda, o‘rta asr va undan keying asrlarda yashagan ajdodlarimizning urf-odatlarini, an’analarini ko‘ramiz, his qilamiz”⁵⁹. Haqiqatdan ham, o‘zbek xalq

⁵⁹ Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Nega shunday deymiz: O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1987. – B. 6.

maqollarida, umuman barcha xalqlar maqol va matallarida o'sha millatga xos bo'lgan davr gavdalanadi.

O'zbek tilshunosligida maqol va matallarning lisoniy jihatlari borasida bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Keyingi yillarda ular antroposentrik tadqiq usuli obyektiga aylanib, maqol va matallarda olamning lisoniy manzarasi ifodalanishi borasida ko'plab qaydlar kuzatilmoqda⁶⁰. Turli tillarda maqol va matallarning qiyosiy tahliliga bag'ishlangan ishlar salmog'i ham ortib bormoqda⁶¹. Paremiologiya birliklar tildagi turli xarakterdagi qator iboralarni, maqol va matallarni o'rganadi. Paremiologik birliklar, ayniqsa, maqol va matallar, aforistik birliklar tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham tahlil qilinadi.

Tilshunoslikda paremlar tarkibiga, tuzilishiga ko'ra, semantik xususiyatlariga ko'ra ham tahlilga tortiladi. Dostonlarimiz tilining paremiologik fondini xalq durdonalaridan tuzilgan va uning madaniyatidan mustahkam o'rin olgan maqollar ayniqsa muhim o'rin tutadi. Maqol va matallarimiz folklorshunoslikning o'rganish obyekti sifatida keng o'ganilgan. Maqollarni tilshunoslikda, xususan, lingvokulturologiyada o'rganish yaqin yillardan buyon boshlandi. Xalq dostonlarida berilgan maqollar tadqiqida birmuncha murakkabliklar yuzaga chiqadi. Xususan, dostonning badiiy matn ekanligi, maqol va matallarning shakli o'zgartirilib, mazmuni berilishini taqozo qiladi, natijada maqolning mazmuni butun bir gap, xatboshi bilan ifodalanishi mumkin. Ikkinchidan, doston kuylovchi baxshilar boshqa-boshqa hududlar madaniyatiga tegishli bo'lgani uchun turlicha xalqona va muallif bilan bog'liq variantlar yuzaga keladi. Maqollar asrlar, hududlar osha sayqallanib, mazmunan boyib boradi. Birgina "Alpomish" dostonining qirqdan ortiq yozib olingan varianti mavjud bo'lib ularning o'rtasida farqlar baxshilar tili va shevasiga qarab o'zgarib borganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, "Yolg'iz otning changi chiqmas" maqoli M.Koshg'ariyda "Yolg'iz g'oz utmas (ovoz

⁶⁰ Tosheva D.A. Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2017. – 56 b.; Shamsiyeva M. O'zbek va rus xalq maqollaridagi «Baxt» va «Baxtsizlik» konseptlarining qiyosiy tahlili // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2019. – № 3. – B. 115.

⁶¹ Boboyev F. O'zbek va nemis maqollarining qiyosiy tahlili // O'zbek tili va adabiyoti, – Toshkent, 2017. – №3. – B. 103-106; Yakubova M. O'zbek maqollarining g'arb xalqlari folkloridagi ma'nodosh muqobillari // Ilm sarchashmalari. – Xorazm, 2013. – № 8. – B. 78. 125

chiqarmas)“ tarixiy shaklida uchraydi. Demak, bir vaqtda ikki hududda maqollar turli ko‘rinishlarda, variantlarda qo‘llanilishi, hududiy variantlarni yuzaga keltirishi mumkin. Bundan tashqari, maqollarda ifodalangan mazmun boshqa paremik birliklarda ham uchraydi. Shuning uchun maqollarni madaniy jihatdan tahlil qilganda, boshqa tillardagi maqollar bilan birgalikda matal, topishmoq, frazeologik birliklarni ham tekshirib chiqish lozim bo‘ladi. Ular mazmuniy taqaqqiyot davomida o‘zaro almashinib turadi. Maqol tarkibidagi so‘zlar tizmasi esa maqollik holatidan boshqa paytlarda aynan shu shaklda uchramaydi. Frazeologik birikmada ba‘zan ideomatik ma‘no bilan asl bir-biriga qarama-qarshi kelib qolishi mumkin⁶². Maqollarni pragmatik tomonlama tahlilga tortilsa ular turli maqsadlarda qo‘llanilgan, masalan, ayni bir maqol bir o‘rinda kesatish, yupatish, o‘git berish, maslahat berish, saboq berish, tadbiiq qilish, buyurish kabi semalarni yuzaga chiqarishi mumkin, bu albatta, vaziyat nuqtayi nazaridan. Faqat muayyan xalq yoki etnosning tarixi, maaniyati, turmushi, ma‘naviyati va hakazolar qo‘llanishi mumkin. Biroq har qanday maqol va matal ham lingvokulturologik tadqiqotning predmeti bo‘lavermaydi.

Bu o‘rinda faqat muayyan xalq yoki etnosning tarixi, madaniyati, turmushi, ma‘naviyati va h.k. bilan bog‘liq bo‘lgan maqol va matallar o‘rganilishi⁶³ lozim bo‘ladi. “Alpomish” dostonining ham “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonining ham turli baxshilar tomonidan aytilgan, yozib olingan variantlari bo‘lib, doston materilllarida qo‘llanilgan maqol hamda matallar tilning bir davriga mansub bo‘lsa ham hududiy hamda subyektiv jihatdan farq qiladi. Doston variantlarida maqol va matallarning ba‘zi namunolari asl holida, ba‘zilari esa baxshilar tomonidan ijro jarayoniga vaziyat yo vazn talabi bilan shevalarga moslashtirilib, qisman o‘zgartirilib qo‘llanilgan. Ular vazn jihatdan bir biriga o‘xshash bo‘lsa ham ularda qo‘llanilgan vositalar, fikr ifodasi farqlanadi. Xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lmish maqollar xalqimiz milliy tafakkurining bir ko‘zkusi sifatida tilshunoslikning turli

⁶² Jo‘rayeva B.M. O‘zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari: Filol. fan. dok. (DSc) dis. avtoref. – Samarqand. 2019. – B. 14. 126

⁶³ Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани.–Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001.–Б.63.

aspektlarida tahlil qilish mumkin. Xalq dostonlarimizda qo‘llanilgan paremalarni lingvokulturologiyaning o‘rganish obyekti, lingvomadaniy matn sifatida qarab, shu aspektda yondashsak, maqollarimiz zamirida jo bo‘lgan juda ko‘p bilimlar, xususan, maqol ijodkori bo‘lgan xalqning milliy qadryat, an‘ana va urf-odatlarini, maishiy hayotidagi o‘ziga xosliklarni, milliylikni, e‘tiqodimizni, tabiat va jamiyatga bo‘lgan munosabatini mazkur xalqlarga tegishli tarixiy qaydlarni, umuman olganda, xalq madaniyatini qayta yashash jarayonida qo‘llagan odatlari, harakatlari natijasining mahsulidir. Masalan: qadimda o‘zbek xonadonlarida qo‘shnilar o‘rtadagi devorning biror yeridan teshik ochib qo‘yishgan. Bu teshik orqali bir-biridan xol-axvol so‘rashgan, tansiq ovqat qilishganida biron idishda shu ovqatdan uzatishadi. *“Mehmon kelsa eshikdan, rizqi kelar teshikdan”* maqoli anashu odatning ta’siri tufayli yuzga kelgan bo‘lishi mumkin. Ba’zan muayyan bir tilga tegishli *realyalar* ana shu tilning maqollarida ham o‘z aksini topadi va majoziy ma’no kasb etadi. *Realyalar* qaysi madaniyat va tilda paydo bo‘lgan bo‘lsa, o‘sha xalqning qadr-qimmatini hisoblanadi. *Realya* – o‘rganilayotgan tildagi tildagi predmet va hodisalar tarixi, madaniyati, iqtisodiyoti va turmush tarzini anglatuvchi so‘zlardir, ular qiyoslanayotgan tildagi so‘zlardan butunlay yoki qisman farq qiladigan tushunchalardir⁶⁴.

Xalq maqollari semantikasidagi lisoniy va madaniy xususiyatlar o‘zaro bog‘liq. Biz quyida M.L.Kovshova tomonidan ilgari surilgan lingvokulturologik taqqoslash usulidan foydalanamiz. Mazkur usulga ko‘ra maqollardagi lisoniy va madaniy belgilarni ajratib olish jarayoni ikki bosqichda olib boriladi. Birinchi bosqichda lisoniy ma’noning barcha aspektlari (denotative ma’nodan baho semantikasigacha), uning ifodalash usullari (tuzilishi, tarkibiy qismlari, ko‘chimlar, qoliplar solishtirib chiqiladi⁶⁵. Natijada olamni kategoriyalashdagi o‘xshash va farqli tomonlar, biror belgini tiplashtirish, madaniyatning mifologik, diniy, tarixiy, adabiy qatlamlarini o‘zaro qiyoslash imkonini beradi. Har bir xalqning qarashlari va

⁶⁴ Алимжонова. Г.М. Сопоставительная фразеология . -Алма- Ата. Мир языка,1999,-С. 175.

⁶⁵ Ковшова М.Л. Лингвокультурологический анализ идиом, загадок, пословиц и поговорок: Антропонимический код культуры. – М.: ЛЕНАНД, 2019. – С. 17. 127

voqeylikka munosabatida mental xususiyatlar bilan bog‘liq holda bo‘lsa ham ba’zi bir xilliklar ko‘zga ko‘rinadi. Quyidagi “Alpomish” dostonidan olingan parchaga e’tibor qaratadigan bo‘lsak: *“To‘qson qari bo‘zdan bo‘lgan kissasi, Shundoq qalmoq aylanadi maydonda....”* o‘xshatishlarga boy bo‘lib, ma’na bo‘rtirishlar orqali yuzaga kelgan. Dostonimiz qaxromonining ko‘rinishi, kuch-quvvati bo‘rtirilish orqali etnik *stereotiplar* vujudga kelgan. Steriotiplar muayyan guruh yoki jamoaning soddalashgan, sxemalashgan, emotsional bo‘yoqdor va favqulotda barqaroq bo‘lgan obrazi, turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining o‘ziga xosligidir. Ular u yiki bu xalqning milliy xarakteri haqida obyektiv ma’lumot beradi. M.Kordu elning fikriga ko‘ra, *stereotip*-kishilar haqidagi keskin, ko‘pincha yuzaki tasavvur. Bu umumiyatda yuzakilikka moyil bo‘lganimiz uchun ham boshqa insonlarning xulq-atvorini oldindan ko‘rish⁶⁶ uchun *steriotiplarni* shakllantiramiz. Keltirilgan misol orqali Alpomishning birgina kissasi orqali tassavurimizda uning qanchalik ulkan ekanligi o‘quvchining ko‘z o‘ngida namoyon bo‘ladi, bu orqali steriotip yuzaga chiqadi. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida qo‘llangan “Dushmaning has bo‘lsa qo‘rq” paremasida ham dushmanga xos bo‘lgan kuch-quvvat deymizmi yoki yovuzlik deymizmi dushman so‘zining o‘zidayoq ularga xos bo‘lgan tassavurlar, qarashlar namoyon bo‘ladi. Yuqoridagi paremada ham dushmanim kamchilik yoki bizdan kuchsiz deb suyunma, uning rejalarini, kuch-quvvatini bilmaysan has bo‘lsa ham qo‘rq deya ota-bobolarimizning o‘gitlari kabi saboq bermoqda.

Har qaysi xalqning o‘z qarashlari, voqeylikka munosabatida mental xususiyatlar bilan bog‘liq holda har xilliklar ko‘zga tashlanadi. Olamni kategoriyalashdagi o‘xshash va farqli jihatlar, biror belgini tipiklashtirish, madaniyatning mifologik, diniy, tarixiy, adabiy qatlamlarini o‘zaro qiyoslash imkonini beradi. Shu sababli xulosa va hukm, mazmun muqobil bo‘lsa-da, ifoda planida farqlar kuzatiladi. Shunda bu so‘zni eshitib, Qalmoqshoh turib aytdi: *“O‘zingdan chiqqan baloga qayga borasan davoga”*. *Tovga borib uytib yursa, sen*

⁶⁶ М.Кордуэлл. Психология А-Я.Словарь-справочник. –М.Файр-пресс.2000. С.-448.

bizga Alpomishni mast qilib bermading, bir baloni mast qilib berding, chirib o'lib ketadi, deb zindonga solding, hammaga ham tashvish berding, shu ishlarni bekor qilding. Bundan chiqadi, bul o'lmaydi ekan (F.Y.:331) Ushbu parchada qo'llangan *"O'zingdan chiqqan baloga qayga boray davoga?"* maqoli odatda o'z yaqinlari nodonligi tufayli aziyat chekkan insonlar tomonidan aytiladi. Bunda shaxsning fe'l-atfori, yaqinlarining unga bo'lgan munosabatlari, ya'ni e'tirozlari, noroziliklari ifodalanadi. *"Go'ro'g'lining tug'ilishi"* dostonida ham xuddi shunga o'xshash *"O'zingniki o'zagiga tepsang ham ketmaydi ekan, kishining bolasiga kishmish bersang ham turmaydi ekan"* (Po'lkan shoir.:18) Ushbu maqolda yetim bola boqqan kishilarning ohu zori sifatida yaratilgan. Maqolda yetim boqqan bilan unga kishmish berib boqsang ham o'zingning bolangdek sodiq, mehrlil bo'lolmaydi, og'ir gaplaringni ko'tarolmaydi tassavuri yuzaga chiqadi. *"O'zingniki o'zagiga tepsang ham ketmaydi ekan, kishining bolasiga kishmish bersang ham turmaydi ekan"* (Po'lkan shoir.:18) paremasidan ham o'zbek xalqiga xos bo'lgan bolajonlik, serfarzandlik jihatlari nomoyon bo'ladi. Ota-bobolarimiz juda bolajon bo'lishgani o'zlarining o'nlab farzandi bo'lishiga qaramasdan yetim bolalarni ham o'z bolasidek boqqani xalq dostonlarimiz tilida ham o'z ifodasini topgan. Yuqoridagi maqolda yetim so'zi orqali yetimlarga xos xulq-atvor, yetim asrayotgan ota-onalarga xos xislatlar ham, o'gay ona yoki o'gay ota obrazlari gavdalanadi. Yana shunga o'xshash *"O'zing tug'may ul bo'lmas, sotib olmay qul bo'lmas"* paremasi ham qo'llanilgan bo'lib, unda ham asrab olingan bola o'z o'g'lingdek bo'lmasligi aytib o'tilgan. Shuningdek, tariximizning qul sotib olish davri ham o'quvchi ko'z oldida namoyon bo'lib turibdi. Yuqoridagi o'zganing bolasini boqish mazmunidagi birliklarimiz bugungi kunda qo'llaniladigan *"Yetim bola asrasang og'zi burning qon bo'lar, Yetim qo'zi asrasang og'zi burning moy bo'lar"* birikmasi bildirayotgan ma'no-mazmunga mos kela oladi. Yuqorida keltirilgan maqollarimizni lingvokulturologik tahlil asosida ikki bosqichda amalga oshiramiz:

Maqollar tarkibidagi lisoniy xususiyatlarni yuzaga chiqarish:

Ushbu birliklarni madaniy belgilar, madaniy semantika egasi sifatida baholab, millat madaniy-lisoniy olam manzarasi uchun muhim qirralarni kashf qilish,

shuningdek, tillararo va madaniyatlararo uyg'unlik va yaqinlik munosabatlarini yoritib berish.

Birinchi bosqichda ifoda jihatidan *“O‘zimdan chiqqan baloga, qayga boray da‘voga”* maqoli qarama-qarshilik asosiga qurilgan bo‘lib, uning obrazli motivlashgan ichki qurilishi zidlik ishtirokchilarining bir mantiqiy o‘zakdan kelib chiqishiga xoslangan. Maqol qofiyali juftlik ko‘rinishda bo‘lib, asosiy zidlik juftlikning birinchi qismida ifodalangan, ikkinchi qismni improvizatsiya mahsuli sifatida ham baholash mumkin. Hukmning ifodalanishiga ko‘ra maqolda zidlik kuchli tarzda namoyon bo‘lgan. Zidlik ishtirokchilari obrazi maqolda aniq ifodalanmagan, ya’ni unda andisha, nutq odabi xususiyati yaqqol ko‘rinadi. Zidlik uchun tayanch so‘z vazifasini balo bajarmoqda.

Ikkinchi bosqich yuqorida keltirilgan birliklarda arxetipik tasavvur izlari seziladi. Bunda tashqi va ichki jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi, inson ichki organizmida yuz berayotgan o‘zgarishlarning tashqi jihatdan ham namoyon bo‘lishi ko‘rinadi. G‘am-tashvish, dard tushunchasining konseptuallashuv ildizlari olamning mifologik manzarasiga, “tashqi” va “ichki” olamni zidlashdek arxetipik ziddiyatga asoslangan. Maqollarda qo‘llanilgan balo (tashvish,dard) obrazi insonning ichki hissiyotini tavsiflash uchun ishlatilmoqda, unda ortga qaytarib bo‘lmas-tugatilgan jarayonning kodi sifatida maydonga kelgan. Keyingi *“O‘zingniki o‘zagiga tepsang ham ketmaydi ekan, o‘zganing bolasiga kishmish bersang ham turmaydi ekan”* maqoli ham ifoda jihatidan qarama- qarshilik mavjud, obrazlari motivlashgan qurilishi murakkab, zidlik mavjud. Obrazlari bir mantiqiy o‘zakdan kelib chiqishiga xoslangan. Mantiqan qofiyalangan. Unda ham hukmda zidlik kuchli tarzda namoyon bo‘lgan. Shunday holatlarda xalqimizning madaniyatidagi steriotiplarning o‘ziga xosligi namoyon bo‘ladi, jumladan, o‘zbek tilida tashvish, qayg‘u bu ham bir kasallikdir, mantiqan qaralganda. Xullas, maqollarda madaniyatning antropomorf, texnomorf, topomorf kodlari namoyon bo‘ladi. Buday holatlar millatlar orasida olamni va odamni tafakkur va tassavvur etishning har xil ekanligini ko‘rsatadi. *Ajali kasartki tegar ilonga, // Indan chiqib pishak bilan hazillar, //Magar ajal izlab kelsa sichqonga* (F.Y.:136). G.Jumanazarova dastavval alohida maqol sifatida

shakllangan, alohida hayotiy asosga, badiiy zaminga asoslangan gaplarning baxshi tomonidan ijro jarayonida birlashtirilishini aytib o'tgan⁶⁷. Dostonlar tilida qo'llanilgan paremlar tuzilishi, anglatayotgan ma'nolari hamda semantikasi jihatidan adabiy til so'zlashuv nutqi, dialekt va shevalarda qo'llanilishi bilan bir-biridan farqlanishi mumkin lekin mantiqan shaklan juda o'xshashdir.

Yuqoridagi maqol kabi holatlarda maqollar poetik qolip vazifasini o'tab, undan oldingi o'xshatish hamda qiyoslashlar baxshining badiiy to'qimasi bo'lishi ham mumkin. Keltirilgan misolimizda "Sichqonning o'lgisi kelsa, mushuk bilan o'ynashar" maqolining boshqacha varianti qo'llanilgan. Keyingi "Ajali kasartki tegar ilonga" birikmasi maqol yoki badiiy ijod mahsulidir. Maqoldagi *kasartki* (kaltakesak)-ilon, *pishak* (mushuk) – *sichqon* antiteza vositasi uchun qo'llanilgan. Maqollardagi zidlik asosini zoomorfik kod tashkil etgan. Yuqoridagi maqollarda sichqon va mushuk otlari va o'ynashmoq va o'lmoq fellari orqali zidlik munosabati yuzaga chiqqan. Xalqimiz tilidagi o't bilan o'ynashmoq iborasida ham shu kabi ma'no ifodalangan. Bir hil holatni turlicha talqin qilish o'sha millat, xalqning shu vaziyatga obyektiv bahosidan kelib chiqadi. Bu maqollarda hayotda yuz beradigan turli holatlarning asl sababchisi insonlarning o'zi ekanligiga ishora bor. Maqolning o'z ma'nosida mushuk bilan o'ynashgan sichqon oxir oqibat unga yem bo'lishi ko'rsatilgan. Yuqoridagi maqollarda paremik obrazlar har xil bo'lsa ham, mazmun mushtarakligi dunyo xalqlarining fikriy yaqinligini ko'rsatadi.

O'zbek xalq maqollarida o'zidan yuqori mavqeyga ega bo'lgan. O'zidan yuqori turadigan yosh jihatdan deymizmi, kuch jihatdan deymizmi, o'zidan yuqori turadigan odam bilan olishish tabiatidagi sichqon-mushuk zidligiga qiyos bo'la oladi. Paremlar mazmun jihatdan bir-biriga muqobil bo'lsa ham, ularda qo'llanilgan vositalar, fikr ifodasi mentalitetga mos holda farqlanadi. Maqollarda tayanch so'z vazifasini mushuk va sichqon bajarmoqda. Ushbu maqollarda biror ishning oqibatini bila turib xato qilish odamlarning o'ziga bog'liq ekanligi ifodalangan. Har qaysi xalq maqollarida an'anaviy tarzda yaxshi-yomon

⁶⁷ Jumanazarova G.U. Fozil Yo'ldosh o'g'li dostonlari tilining lingvopoetikasi (leksik-semantik, lingvostilistik va lingvostatistik tahlil): Filol. fan. dok. (DSc) dis. – Toshkent, 2017. – B. 205. 129

xislatlarni, yaxshi-yomon odamni farqlash uchun zid ma'noli sifat, ravish so'z turkumiga mansub so'zlarni faol qo'llash kuzatiladi. O'zbek baxshilarimiz ijodida qo'llanilgan paremalarda ot so'z tuyrkumiga mansub so'zlardan zidlikni ifodalash uchun foydalanilganligini ko'rishimiz mumkin. Tahlilda keltirilgan o'zbek maqolida kasrtki (kaltakesak)-ilon, pishak (mushuk)-sichqon antiteza uchun qo'llanilgan bo'lsa, Bekmurod Jo'raboy o'g'li variantida sher-ayiq qarshilantirishi ham kuzatiladi.

Ayiq borib sherga changal soladi,

Agar yetsa, u ayiqning ajali (B.J.:219).

Yoki

Bo'ri qarisa ham qo'ylik holi bor,

Ma'lum bo'lar endi bobongning holi (B.J.:217).

Qiyoslanadigan bo'lsa, mazkur maqollarda sher, mushuk, ilon, bo'ri "kuchli"lik ramzini, sichqon, ayiq, kasartki, qo'y "kuchsiz"lik ramzini ifodalamoqda. *Hakkaning bolasi qarchig'ay bo'lmas (B.J.:217)* maqolida hakka va qarchig'ay zidlanishi ham shu ma'nolarni ifodalash hamda qiyoslash uchun ishlatilmoqda. Quydagi mataldagi "kuchli"lik gilos va uning ixchamligi bilan, kuchsizlik terak va uning novchaligi bilan ifodalangan. *Alpomish aytdi-Ey, Qorajon, zo'r kishi juda ham irik bo'lami, nima sababdan terakning bo'yi novcha bo'ladi, o'zi bo'sh bo'ladi. Gilosning daraxti bo'yi past bo'ladi, o'zi qattiq bo'ladi (B.J.:46).* Bekmurod Jo'raboy variantida qo'llanilgan yuqoridagi hikmatli so'zlar avloddan-avlodga o'tish jarayonida sayqallanib maqol sifatida tilimiz xazinasidan joy olgan. Bu kabi jarayonlarni barcha xalqlar folklorida ko'rish mumkin. *Xafa falak boshga slogan zulm bor, Qayga borsam bir boshimga o'lim bor (F.Y.:281).* Yuqoridagi o'rinda ham "bir boshga bir o'lim" xalq maqoli ishlatilgan. Baxshi Alpomishning ayanchli ahvolini shu maqol yordamida ifodalash misolida (qo'rqoqlik qilib, nomardlarcha tirik qolgandan ko'ra, mardonovorlik bilan o'lgan yaxshiroq"⁶⁸

⁶⁸ Shomaqumudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. O'zbek xalq maqollarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbek Sovet Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990. – B. 41. 131

g‘oyasini ilgari suradi. Maqol takror asosiga qurilgan bo‘lib, senexdoha usulida ma’no ko‘chgan. Maqolda qat’iy hukm ifodalanadi. *“O‘lim haq”, “Qirq yil qiyomat bo‘lsa ham, ajali kelgan o‘ladi”* qabilidagi iboralarda ham shu ma’no yashiringan. *Jonim qo‘zim, bilmaganim bildirma, Do‘st yig‘latib dushmanimni kuldirma (F.Y.:284)*. Bu jumlada baxshi “Do‘st achitib gapirar, dushman kuldirib” xalq maqoli asosida yangi ibora yaratgan. Maqolda anglashilgan ma’no do‘stlikni ulug‘lashga bag‘ishlangan. Maqolda zid ma’noli do‘st –dushman, achitib-kuldirib so‘zlaridan hamda ko‘chma ma’noli so‘zlardan foydalanilgan. O‘zbek xalq dostonlari tilida qo‘llanilgan. Paremlar lug‘atlarda aks etgan variantlardan qisman farq qilsa ham, ularda anglashilayotgan mazmun mehr-oqibat, oqibatsizlik, yaxshilik va yomonlik, do‘stlik va dushmanlik kabi hayotiy, mantiqiy xulosalar aks etib turadi. Dostonlar matnida qo‘llanilgan Paremiologik birliklar ko‘proq pand-nasihahat odob-axloq, insof hamda diyonat, kamtarlik, xudbinlik, tarbiya va odob kabi mazmun munosabatlarni ifodalab, personajlarga qaratilganligi kuzatiladi. Dostonlar tilida shunday maqollar ham mavjudki, ular baxshilarimizning individual ijodining mahsuli deb hisoblash mumkin. Bunday maqollarda ifodalangan mazmun xalq istemolidagi maqollarda aks etgan. Baxshilarimizning individual tarzda ifodalagan maqollarida tuzilishi, tarkibidagi so‘zlar ishtiroki hamda xususiyatlari yaqqol farqlanib turadi. Tadqiqotimiz doirasidagi dostonlarda ko‘plab hikmatli so‘zlar ham qo‘llangan bo‘lib, ular dostonning didaktik xususiyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Masalan: *Manmanning zavoli bordir yig‘lama, //Kamlikning kamoli bordir, yig‘lama (B.J.:183)*. Bu o‘rinda baxshi insonning eng oliy xislatlardan biri-kamtarlik to‘g‘risida so‘z yuritadi. Kamtarlik xislati nafaqat o‘zbek xalqida, balki dunyoning boshqa xalqlarida ham ulug‘lanadi. Buni quyidagi maqollar vositasida ham ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek xalqida kamtarlikni ulug‘lovchi “Kamtarlik ko‘ka ko‘tarar, manmanlik yerga kiritar”, “Kamtarlik-katta davlat”, “Kamtarlikning kamoli bor” kabi bir necha maqollar uchraydi. Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li maqolning “Kamtarga kamol, manmanga-zavol” variantini nazarda tutib, dostonda kuylagan.

Bu maqol qofiyali tarzda qarama-qarshi ma'noli kamtar –manman, kamlik- kamol so'zlari vositasida tuzilgan. Baxshining improvizasiya qilishi natijasida qofiya talabi bilan o'zbek xalq maqolida ma'no saqlangan holda shakl o'zgartirilgan. Maqolda hukmning ifodalanishi qat'iy, zid ma'noli so'zlar vositasida manmanlik salbiy, kamtarlik ijobiy voqeylik bilan tugashiga ishora seziladi. Birlikda ifodalangan kamtarlik sifati insonni ulug'lovchi fazilat sifatida qayt etilmoqda. Bu o'z navbatida, uning madaniyatini ko'rsatadi, madaniyatdagi stereotip turfaligi namoyon bo'ladi: o'zbek tilida kamtarlik hamda manmanlik. Bu olamni tasavvur va tafakkur qilishning o'ziga xos ekanligini ko'rsatadi. *Bolam, eshit mening aytgan so'zimdi, // Xafa qildim, bolam, senday qo'zimdi, // Otlantiray senday sarvinozimdi, // Elat bilan birga yurmoq lozimdir[r]* (F.Y.:54). Baxshi ushbu baytda nutq tarkibining bir muhim qismi sifatida "Elat bilan birga yurmoq lozimdur" matalini qo'llagan. Bu matal gap ko'rinishida bo'lsa ham, uni maqollarga o'xshab alohida qo'llab bo'lmaydi, chunki u mazmunan tugal fikrni anglatmayapdi, unda hukm yo'q. Maqollarda bo'lgani kabi obrazlilik, ko'chma ma'nolilik ifodalanmagan. "Matalnutqda axborot berish, maqol esa shu axborotni jonli timsollarda yetkazish, uni dalillash, isbotlash vositasi sifatida qo'llanadi"⁶⁹. Shu xususiyati bilan maqollardan matal ajralib turadi. Bu matalda hamjihatlik g'oyasi ifodalangan bo'lib, mazmunan "Yolg'iz otning changi chiqmas, changi chiqsayam dong'i chiqmas" yoki "Bo'linganni bo'ri yer, ayrilganni ayiq" maqollariga mos keladi. Matalda ifodalangan ma'no ko'pchilik bilan birga bo'lishning afzalliklari, eldan ayrilishning yomon oqibatlarini haqida. "Elat bilan birga yurmoq lozimdir" matalida qat'iy hukmdan ko'ra maslahat, g'amxo'rlik semasi kuchli ifodalangan. Bu kabi matallar xalqqa xos bo'lgan milliy xarakterini ko'rsatadi. O'zbek xalqi bir-biridan ham andisha qiladi. Oddiy haqiqatni ham birovning yuziga aytishdan ham iymanadi. Bu maqol va matallar tahlili jarayonida har bir xalqning psixologik xususiyatlari aks etishini ham yana bir bor isbotlaydi. Uchala holatda ham bir xil holatni ifodalash uchun ma'nosi bir-biriga yaqin maqollardan foydalanish holatlari uchraydi.

⁶⁹ Jo'rayeva B.M. O'zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatic xususiyatlari: Filol. fan. dok. (DSc) dis. avtoref. – Samarqand. 2019. – B. 16. 132

“Alpomish” dostonida gender jihatdan ayollarga xos bo‘lgan ko‘p gapirish odati *“Elakka kirgan xotinning ellik og‘iz gapi bor”* xalq maqoli vositasida beriladi. Baxshilar bu maqolning turli variantlardan foydalanishgan: Fozil Yo‘ldosh variantida o‘zgarishsiz holatda “Elakka borgan xotinning ellik og‘iz gapi bor”, Egamberdi Ollomurod o‘g‘li variantida “Elakka borgan xotinning ellik og‘iz so‘zi bor” tarzida. Olovga borgan xotinning o‘ttiz og‘iz gapi bor”, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li variantida esa “Elakka borgan xotinning ellik og‘iz so‘zi bor, o‘tga borgan xotinning o‘ttiz og‘iz so‘zi bor” tarzida ishlatilgan. Maqollarda elak hamda ellik, o‘t(olov) va o‘ttiz so‘zlari alleteratsiya sifatida qo‘llanilgan bo‘lib, juftliklardagi raqamlar vositasida ko‘plik ifodalangan. O‘zbek xalqi maqollarida qofiya so‘zlardan yoki ohangdosh so‘zlardan foydalanish mezonga aylangan: “Elning kuchi ellik botmon”, “Qirqdan qirg‘in yomon”, “O‘tga borganning o‘ttiz og‘iz gapi bor” kabilar.

Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li va Egamberdi Ollomurod o‘g‘li variantida qo‘llanilgan “gapi bor” birikmasi o‘rnida Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li variantida “so‘zi bor” qo‘llanilgan. Demak, baxshilar uchun so‘z va gap ba’zi o‘rinlarda farqlanmaydi. Maqolda “elak” madaniy kod vazifasini bajaradi. So‘z qo‘ni-qo‘shnichilik samimiyligi, jamoviylikni qadrlash, qo‘l mehnatiga asoslangan turmush tarzi kabi madaniy belgilarni ifodalaydi, shuningdek, “non” konsepti doirasiga olib chiqadi. Elak gender semaga ega bo‘lib, ayollarning kundalik mashg‘uloti, odatlari, hatto bahonalari ham ishora qiladi: “Qayda eding?” – degan savolga odatda “Qo‘shnikiga elakka chiqqandim” javobi olinadi. Dostonlar matnidagi paremalarning ishlatilishida xilma-xil variantlar qo‘llanadiki, G.Jumanazarova ularni quydagi turlarga bo‘ladi.

- a) so‘z almashtirish natijasida hosil bo‘lgan leksik variantlar;
- b) so‘z yasash elementlarini almashtirish natijasida hosil bo‘lgan;
- v) grammatik ko‘rsatkichlarni almashtirish natijasida hosil bo‘lgan variantlar;
- g) shakliy tuzilishdagi variantlar.

“Alpomish” va “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonlari variantlarida mazmunan o‘xshash va shaklan farqlanuvchi bir qancha paremiologik birliklarni uchratish

mumkin. *Maqul bildi kanizlarning soʻzini, // Kuchuk bosmas yoʻlbars-sherning izini, // Borib koʻrsam deydi biyning qizini(F.Y.:171)*. Maqol “Ot izini toy bosar” maqoliga maʼno va mazmun jihatdan juda yaqin. Har ikkisida ham “genetik va feʼl-atvordagi vorislik” semasi bor. “Kuchuk bosmas yoʻlbars-sherning izini” maqolida achchiq kinoya, qiyoslash munosabati mavjud. *Bedovning toyligʻi boʻlmas, botirning gadoyligi boʻlmas. Toy boʻlgani bilan otasining joyini bosib qolgan ekan (B.J.:220)*. Ushbu maqolda ham insonni baholashda xalqimizga xos “zot, yeti urugʻ” kabi tagmaʼnolar yashiringan. *Yigitga pand berar otning mayibi* matali xalqimizdagi “*Ish quroling soz boʻlsa, mashaqqating oz boʻlar*” mazmunidagi maqolning yana bir xalqona variantidir. Bu birikmada ham gender jihat namoyon boʻlib turibdi. Safarga chiqishda, katta katta bir ishni boshlashda asbob-anjom hamda sheriklarni toʻgʻri tanlab olish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, ot bir lat yesa tuzalishi qiyin boʻlishi, u qaytalanishi yuqoridagi maqolning yuzaga kelishiga sabab boʻlgan. Ikkala maqolning mazmun-mundarijasidagi farqlar quyida berilgan. Bedov, yaʼni chopqir ot yoshligidan shu xususiyatga ega boʻladi. Bedovlik otlarda tugʻma feʼl-atvor hisoblanadi, u keyinchalik paydo boʻlmaydi.

“Goʻroʻlining tugʻilishi” dostonida bir oʻrinda “*Ona rozi xudo rozi*” boshqa oʻrinda “*Ena rozi xudo rozi*” koʻrinishlarida paremiologik birliklar qoʻllangan boʻlib bugungi kunda “*Ota rozi xudo rozi*” shaklida koʻproq qoʻllaniladi. Ushbu parema ona tushunchasi onani rozi qilmoqlik lingvomadaniy kansept darajasiga koʻtarilmoqda.

Koʻrib turganimizdek, paremiologik birliklarning ifoda planidagi har xillik yoki aynan bir xalq uchun xos boʻlgan steriotipning boshqa xalqda uchramasligi hamda olam manzarasini har bir xalq oʻz qarashlari bilan koʻrishida farqli jihatlar mavjud. Paremiologik birliklarni qiyosiy tahlil qilish jarayonida turli lingvomadaniyatlarning dunyoqarashi, fikrlash doirasi, dunyo tasviri, shaxslar tili, turli lingvomadaniyatlarning mushtarak va farqli tomonlarini, tasavvur olami va hayot haqiqatini anglashini koʻrishimiz mumkin. Xalq dostonlari tili oʻzbek xalqining lingvomadaniyatida muayyan marosimlar va anʼanalarning yuzaga kelishi hamda oʻzbek xalqining tarixi bilan bogʻliq jarayonlarni ham aks ettiradi. Bu

jihatdan u o'zbek madaniyatida milliy marosimlarning o'ziga xos atributi hisoblanadi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

Frazeologik birliklar semantikasi ikki qatlamga ega. Birinchi qatlam – iboraning umum tomonidan qabul qilingan badiiy ko'chim va turg'un o'xshatishlarga qorishtirilgan denotativ ma'nosi. Ikkinchi qatlam – matn muallifi (doston ijrochisi va matn qahramonlari) bilan bog'liq pragmatik, kognitiv va madaniy ma'nolaridir.

Iboralarda qanday so'zlar qo'llanilishi so'zlovchi, doston ijrochisi, matnda ifodalanayotgan ijtimoiy-ruhiy vaziyatga bevosita aloqador bo'lib, xalqning tarixi, madaniyati, ijtimoiy tuzum borasidagi dunyoqarashi, turmush tarzi, urf-odatlar haqida axborot beradi.

Frazeologik birlik komponentlaridan biri, odatda otlar, semantik jihatdan yetakchi mavqeda bo'lib, boshqa uzvlar semantik markaz atrofida ayrim semalari vositasida birikadi. Shu nuqtai nazardan, shoir yoki baxshi semantik markaz bo'lgan uzvni saqlagan holda iboradan ba'zi shakliy o'zgarishlar bilan foydalanishi kuzatiladi.

Maqol va matallarning lingvokulturologik tahlili ikki bosqichda: 1) lisoniy tahlil; 2) madaniy tahlil asosida olib borildi. Bunda paremiologik birliklarning boshqa tillardagi muqobillarini ham solishtirish ko'zlangan samarani beradi.

Ushbu dostonlarning belgilab olingan variantlarini solishtirish natijasida o'zbek xalqi hayoti, turmush tarzi, hududlar o'rtasidagi mushtaraklik va tafovutlarni aniqlash imkoniga ega bo'lindi.

UMUMIY XULOSALAR

Xalq dostonlari o‘zbek tili, madaniyati va milliy qadriyatlarining o‘ziga xosligini, xalqimizning ijtimoiy-maishiy turmush tarzi, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti, urf-odatlarini ifodalovchi boy badiiy manbadir.

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” va “Alpomish” dostonlarining tarixiy, etnografik, madaniy, folkloristik, uslubiy, poetik jihatlari hozirga qadar chuqur o‘rganilgan bo‘lsa-da, eposning lisoniy birliklarda milliy-madaniy belgilarning voqelanishi tahlili bu sohalar kesishuvida yuzaga kelgan muammolarni yangicha ilmiy-badiiy dunyoqarash orqali hal etishga imkon beradi. Chunki dostondagi lingvokulturologik birliklar o‘zbek millatining o‘ziga xos qiyofasini ochish uchun xizmat qilgan.

Har bir xalq madaniyatining muhim mental, tarixiy va milliy ildizlari tildagi etnografizmlarda saqlangan. Etnografizmlar qadimiy urf-odat, an‘ana va qadriyatlarning kichik ramziy belgisi sifatida namoyon bo‘ladi.

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” hamda “Alpomish” dostonlarida qo‘llanilgan frazeologik birliklar tarkibidagi markaz uzv, semantik markaz milliy-mental axborotlarni to‘liq va yorqinroq tasvirlab berish, shuningdek, milliy-madaniy konseptlarning ifodasi sifatida alohida vazifa bajarish uchun xizmat qiladi.

Somatik komponentli frazeologizmlar o‘zbek xalqining mentaliteti va milliy-madaniy o‘ziga xosligini, olamning frazeologik manzarasini yorituvchi vosita ham sanaladi. Frazeologizmlarni lingvokulturologik aspektda o‘rganish mazkur birliklarning xalqning estetik va badiiy tafakkur darajasini belgilovchi omil ekanligini asoslaydi.

“Alpomish” dostonining variantlaridagi badiiy-lisoniy unsurlar, nutqiy vositalar ijrochi shaxs ta‘sirida ham ayrim ifodaviy o‘zgarishlarga uchragan. Natijada maqollarning hudud hamda ijrochi bilan bog‘liq individual variantlari, yondosh maqol va matallar, frazeologizmlar yuzaga kelgan.

Tilning areal xususiyatlariga asosan, unda o‘ziga xos hududiy unsurlarning ifodalanishi ham dostonning milliy-madaniy, badiiy qimmatini oshirishda katta samara beradi.

Iboralarda qanday soʻzlar qoʻllanilishi soʻzlovchi, doston ijrochisi, matnda ifodalanayotgan ijtimoiy-ruhiy vaziyatga bevosita aloqador boʻlib, xalqning tarixi, madaniyati, ijtimoiy tuzum borasidagi dunyoqarashi, turmush tarzi, urf-odatlar haqida axborot beradi.

Frazeologik birlik komponentlaridan biri, odatda otlar, semantik jihatdan yetakchi mavqeda boʻlib, boshqa uzvlar semantik markaz atrofida ayrim semalari vositasida birikadi. Shu nuqtai nazardan, shoir yoki baxshi semantik markaz boʻlgan uzvni saqlagan holda iboradan baʼzi shakliy oʻzgarishlar bilan foydalanishi kuzatiladi.

Doston matnida qoʻllanilgan paremiologik birliklar tahlilini til va madaniyat uygʻunligida yoritish olamni anglashning oʻzbekona oʻziga xosligini ochib berishda muhim tarixiy-madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy va ilmiy- badiiy ahamiyatga ega.

1. Abdiyev A. T. Alpomish dostoni tilining leksik-semantik va stilistik xususiyatlari. – Nukus, 2011.
2. Axmedov H.Y. Alpomish dostonida qadimiy, diniy e'tiqodlar bilan bog'liq frazeologizmlar va ularning semantikasi. // Oriental Renaissance: Innovative educational, natural and social sciences. 2022.
3. Baydayeva G. Okkazonal antonimlarni vujudga keltiruvchi obyektiv va subyektiv omillar//O'TA, 2010. 2-son.
4. Boboyev F. O'zbek va nemis maqollarining qiyosiy tahlili // O'zbek tili va adabiyoti, – Toshkent, 2017. – №3.
5. Fayzullateva D. N. Xalq dostonlari tilining lingvomadaniy tadqiqi. – Jizzax: 2022. – B. 16.
6. Hojiyev A. Tilshunoslik teminlarining izohli lug'ati. – Тошкент: Fan, 2002.
7. Homidiy H., Abdullayeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlar lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.
8. Jabborov Eshpo'lat. O'zbek xalq o'yinlari leksikasi. –Тўқрлуте, 1998.
9. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili.–Toshkent, 2005.
10. Jo'rayeva B.M. O'zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari: Filol. fan. dok. (DSc) dis. avtoref. – Samarqand. 2019.
11. Koshg'ariy M. "Devonu lug'atit turk"1-Tom. – Toshkent, 1960.
12. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent, 1987.
13. Rahmonov G'. Sinonimlar qatorida graduomiyaning ifodalanishi. // O'zbek tili va adabiyoti. 2012-yil 3-son, 71-72-b.
14. Sadriddinova M.Z. O'zbek maqol va matallari leksikasi.–Тошкент, 1984.
15. Sarimsoqov B. "Balandparvoz so'zlar". – Toshkent, 1986.
16. Shamsiyeva M. O'zbek va rus xalq maqollaridagi «Baxt» va «Baxtsizlik» konseptlarining qiyosiy tahlili // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2019. – № 3. – B. 115.
17. Shomaqmudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. O'zbek xalq maqollarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbek Sovet Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990.
18. Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh. Ma'nolar mahzani. – Тошкент, 2001.
19. Soatov B.A O'zbek xalq maqollarining janr va she'riy xususiyatlari.– Тошкент, 1990.
20. ToshevaD.A. Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2017.
21. Toshpo'latov Z. Aforizmlarning janr xususiyatlari va badiiyati. Filol.fanlari nomzodi...diss.avtoref. – Тошкент, 2006.
22. Xolmonova Z. T. "Shayboniyxon" dostoni leksikasi. – Тошкент, 1998.

23. Yakubova M. O'zbek maqollarining g'arb xalqlari folkloridagi ma'nodosh muqobillari // Ilm sarchashmalari. – Xorazm, 2013. – № 8.
24. Yo'ldosheva M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
25. Абдурахмонов Х. Мақоллардаги боғловчисиз кўшма гаплар структурасининг баъзи бир хусусиятлари. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Toshkent: 1962, 6-сон.
26. Абдурахмонов Х. Мақоллардаги боғловчисиз кўшма гапларда айрим гап бўлакларининг такрорланиши. // ЎТА, – Toshkent, 1962, 3-сон.
27. Абдурахмонов Х. Синтаксические особенности узбекских народных пословиц. АКД. – Toshkent, 1964.
28. Абдурахмонов М. Фольклорная афористика и словарь. – Toshkent: Fan, 1989.
29. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие. – Москва: Наука, 2010. – С.21.
30. Алимжорова Г.М. Сопоставительная фразеология. – Алма-Ата: Мир языка, 1999. – С. 175.
31. Аникин В.П. Круглов, Ю.Г. Русское народное поэтическое творчество. – Л., 1983, – С.116.
32. Аристотель. Метафизика. – Л., 1999.
33. Барли Н. Структурный подход к пословице. – М., 1984.
34. Бердиев Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиялогик луғати. – Toshkent: Ўқитувчи, 1984.
35. Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. Монография. – М.: Изд. РУДН, 2008. – С. 240.
36. Ганиева Ш. Узбек фразеологизмларининг структур тадқиқи. – Toshkent: Fan, 2013. – Б. 73 -75.
37. Горкий А.М. История русской литературы. – М, 1957. – С. 38.
38. Григорьева Л.Л. Фразеологическая репрезентация религиозного мира человека (на материале русского, английского и арабского языков) Авторуф. дис... канд. филол. наук. – Казан, 2009. – 21 с.
39. Жумаева З.Ш. Фразеологик бирликларнинг семантик ва лингвокультурологик тадқиқи. Филол. фан. фалсафа док (PhD) дис.... автореф. – Жиззах, 2021. – Б. 58.
40. Жуманазаров У., Жуманазарова Г. Халқ дostonлари тилидаги лингвомаданий бирликлар. Монография. – Toshkent, 2019. – Б. 277.
41. Жуманазарова Г. “Ширин билан шакар” дostonининг луғавий ва лингвопоетик хусусиятлари (Фозил Йўлдош ўғли варианты асосида): Филол. фан. номз.... дис. автореф. – Toshkent, 2008. – 26 б.
42. Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоетикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил). Филол. фанлари д-ри дис. – Toshkent, 2017. – 268 б.
43. Жуманазарова Г. Халқ дostonлари тилидаги иборалар семантикаси // Узбек тили ва адабиёти. – Toshkent, 2015. – № 6. – Б. 81.

44. Исмоилов Ф.Оламнинг фразеологи манзарасида “инсон” концепти// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2015. - № 6. – Б. 22.
45. Ишаев А. Достонлар тилининг баъзи бир хусусиятлари // Эргаш шоир ва унинг достончиликда ўрни. – Тошкент, 1971.
46. Ковшова М.Л. Лингвокультурологический анализ идиом, загадок, пословиц и поговорок: Антропонимический код культуры. – М., 2019.
47. Кордуэлл М. Психология А-Я.Словарь-справочник. – М.: Фаир-пресс, 2000. – С. – 448.
48. Маматов А, Болтаева Б. Фразеологик бирликларнинг лингвомаданий ва семантик - прагматик тадқиқи. – Тошкент, 2018.
49. Маслава В.А. Лингвокультуроология. Учебное пособие. 4- е изд – Москва: Академия, 2010. – 208 с.
50. Маслова В.А. Лингвокультуроология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – Москва, Изд. Центр “Академия”, 2001.С.-208.
51. Маҳмудов Н. Тилининг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012 № 5. – Б. 6-7.
52. Никитина У.С. Игръ с телом / Никитина У.С.Психосемантика телесности. – Москва, 2005. – С. 51.
53. Оллоёров Қ.М. Хоразм достонлари ономастикаси (“Гўрўғли” ва “Ошиқнома” туркум достонлари асосида). Филол. фан. фалсафа д-ри... (PhD) дисс. Автореф. – Самарқанд, 2018. – 46 б.
54. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
55. Раҳимов А.С. Ўзбек халқ достонлари лексикасининг қиёсий-тарихий таҳлили (Эргаш Жуманбулбул ўғли ижоди мисолида). Филол. фан. номз....дис. автореф. – Самарқанд, 2002. – 25 б.
56. Рўзимбоев Х.С. Жанубий Хоразм достонлари тилининг луғавий-маъновий таҳлили (“Шаҳриёр” ва “Маликаи Завриё” достонлари мисолида) Филол. фан. номз....дис. автореф. – Тошкент, 2000.
57. Сариев С.М. Хоразм “Гўрўғли” достонларининг қўлёзма вариантлари. Филол. фан. номз....дисс. – Тошкент, 2007.
58. Телия В.Н. Русская фразеология: семантические, прагматические и лингвокультурологические аспекты. – Москва, Школа. “Языки русской культуры”, 1996.
59. Турсунов С. Лексические особенности дастана “Алпамыш”. Автореф. дис...канд. филол. наук. – Ташкент, 1990.
60. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. - 5-ж.
61. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 100 жилдлик. 1-жилд. Алпомиш (Фозил Йулдош ўғли варианты). – Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015.
62. Ўзбек халқ мақоллари (наршга тайёрловчи М.Қутлиева) – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013.

63. Ўзбек халқ мақоллари (нашрга тайёрловчилар: Т.Мирзаев, А.Мусақулов, Б.Саримсоқов). –Тошкент: Шарқ, 2013.
64. Узбекские народные пословицы поговорки и загадки. – М.: 1985.
65. Умаров И. “Малика айёр” достони лексикаси филол. фан. фалсафа д-ри... (PhD) дисс. Автореф. – Фарғона, 2020.
66. Ўринбаева Д.Б. Халқ оғзаки ижоди: жанрий-лисоний ва лингвостатистик тадқиқ муаммолари: филол.фан. д-ри (DSc) дисс.автореф. – Самарқанд, 2019.
67. Уринбоев Б. Ўзбек халқ мақолларида трансформациялаш. Ўзбек тилшунослиги масалалари. – Самарқанд, 2001.
68. Уринбоев Б., Бозорбоев К. “Алпомиш” достони фразеологизмларининг табири. – Самарқанд: 1998. – Б. 89.
69. Усмонов Н. Мақолларда таълимга оид атамалар //ЎТА, –Тошкент, 1992, 8-сон, 35-бет.
70. Халиков А.А. “Тўрўғлининг туғилиши” достони тилининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз....дис. автореф. – Тошкент, 2009.
71. Холманова З. “Шайбонийхон” достони лексикаси (Пўлкан шоир варианты асосида). Филол. фан. номз....дис. автореф. – Тошкент, 1998. – 25 б.
72. Холмуротова Ж. Шимолий Хоразм достонлари лексикасининг функционал-услубий хусусиятлари. Филол. фан. номз....дисс. – Тошкент, 2000. – 160 б.
73. Худойкулова Л.Сурхон воҳаси совчилик кўшиқлари ва айтимлари/Ўзбек фолклоршунослиги масалалари. Таникли фолклоршунос олим,профессор О.Сафаров таваллудининг 70 йиллигига бағишланган илмий мақолалар тўплами. 2-китоб. –Тошкент: Фан, 2010.
74. Шаклеин В.М. Лингвокультурология. Традиции и инновации. Монография.– Москва, Флинта, 2012.
75. Шоабдурахманов Ш. О художественных средствах языка поэмы “Равшан”. Автореф. дис...канд. филол. наук. – Тошкент, 1949.
76. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Д. Нега шундай деймиз (ўзбек мақолларининг изоҳли луғати). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.
77. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Д. Ҳикматнома (ўзбек халқ мақолларининг изоҳли луғати). – Тошкент: ЎМЭ, 1990.
78. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар маҳзани.–Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001.

Internet saytlar

1. En.m.wikipedia.org
2. www.kh-davron.uz
3. www.ziyouz.com.
4. Academ.platforma.tr
5. Google Akademiya.

Normamatova Gulasal Toshboy qizining 70230101 – Lingvistika: o‘zbek
tili mutaxassisligidan magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
“O‘zbek xalq dostonlarida paremiologik birliklarning ifodalanishi”
mavzusidagi dissertatsiyasiga ilmiy rahbar
xulosasi

O‘zbek folklorining keng tarqalgan, yirik janrlaridan biri dostonidir. Xalq dostonlari qadimiyatning buyuk bir ehsoni, o‘zlari yaratilgan davrning umumiy dunyoqarashi, ayni paytda jonli an’anaviy ijod va ijro sharoitlarida xalq ruhiyatining obyektiv holatini davrlararo ifodalab, mazmun va shakl jihatidan goh kengayib, goh torayib, ajdodlardan avlodlarga og‘zaki ravishda yetib kelgan adabiy yodgorlik hisoblanadi. Ular ona tilimizning beqiyos boyliklarini, cheksiz imkoniyatlarini hamda uning umumturkiy va milliy bosqichlariga xos tarixiy taraqqiyot qonunlarini aks ettiruvchi dalillarni o‘zida asrab kelayotgan mumtoz badiiy manbalardandir. Shu nuqtayi nazardan xalqimiz orasida mashhur bo‘lgan dostonlar matnidagi Paremiologik birliklarning lingvistik xususiyatlarini turli aspektlarda o‘rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida zikr etilgan muammolarning mavjudligi, shuningdek og‘zaki nutq jarayonining qolipini yaratish va takomillashtirish nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilishning zarurligi magistrlik bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Biroq o‘zbek tilshunosligida muhim ahamiyat kasb etuvchi “O‘zbek xalq dostonlarida paremiologik birliklarning ifodalanishi” bo‘yicha tadqiqot ishining mavjudligi bizga ma'lum emas. Termiz davlat universiteti magistratura bo‘limi 70230101 – Lingvistika (o‘zbek tili) yo‘nalishi magistranti Normamatova Gulasal Toshboy qizining magistr akademik darajasini olish uchun tayyorlagan

“O‘zbek xalq dostonlarida paremiologik birliklarning ifodalanishi” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi aynan shu dolzarb masalaga bag‘ishlanganligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur dissertatsiya kirish (magistrlik dissertatsiyasi annotatsiyasi) va uch asosiy bobni o‘zida qamraydi. Annotatsiyada magistrlik dissertatsiyasining bajarilishiga taalluqli barcha bandlar talab darajasida rasmiylashtirilgan bo‘lib, umumiy holda tadqiqotning mavjud ilmiy-amaliy ahamiyatini ifoda etadi.

Dissertatsiya doirasidagi uch bobning birinchi, “Paremiologik birliklarning lingvistik tadqiqi masalasi” deb nomlangan bobida tilshunosligimizda paremiologik birliklarning tadqiqi, o‘rganilish darajasi, uning fandagi ilmiy ahamiyati talqini masalalari atroflicha yoritilgan. Bobning umumiy mazmuni rejaga muvofiq keladi.

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” va “Alpomish” dostonlaridagi paremalarning leksik-semantik va mavzuviy-tematik xususiyatlari deb nomlangan ikkinchi bobda ushbu dostonlarning leksik tarkibi va dostondada qo‘llanilgan maqol, matal va frazeologizmlarning leksik- semantik xususiyatlari ahamiyati bo‘yicha ma‘lumotlardan, qarashlardan iborat masalalar muhokamasi jamlangan. Mazkur bobning umumiy ko‘lami dissertant tomonidan rejaga muvofiq tarzda ochib berilgan.

Dissertatsiyaga tegishli “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” va “Alpomish” dostonlaridagi paremiologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari” deb nomlangan uchinchi bob esa yuqoridagi dostonlarda qo‘llanilgan frazeologik birliklar va maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularda xalqimiz madaniyating aks etishi haqida fikr yuritilgan. O‘zining tahlillarida dissertant ushbu dostonlardagi paremiologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari to‘g‘risida o‘rinli xulosa qiladi.

Shuningdek, dissertatsiya ishida dostonlarda uchraydigan ko'plab atamalarga ham to'xtalinib, dissertant ko'plab atamalarning etimologiyasi, ularning xalq madaniyati, lingvomadaniyatida tutgan o'rini lingvomadaniy tahlil usulida ko'rsatib bergan. Tadqiqot ishiga bu singari yondashuv dostonidagi paremalarga oid qismlarni to'laqonli tarzda anglash imkonini beradi, dissertant tomonidan tadqiqot ishida qo'llanilgan kuzatuv, qiyoslash, leksik, fonetik, grammatik tahlil usullaridan maqsadga muvofiq tarzda foydalanganini isbotlaydi.

O'z ishida Normamatova Gulasal Toshboy qizi "Go'ro'g'lining tug'ilishi" va "Alpomish" dostonlaridagi paremiologik birliklarning qo'llanishi va uning tilshunoslikda tutgan o'rni va kasb etgan ahamiyati to'g'risida xulosalarni keltiradi.

Ishda qayd etilgan yutuqli jihatlar bilan birga ayrim ishoraviy (puntuatsion) xatoliklar uchraydi. Shuningdek, adabiyotlar ro'yxati hamda havolalarni rasmiylashtirishga doir kamchiliklar mavjud. Mazkur xatolar juz'iydir va ularni tuzatsa bo'ladi. Ko'rsatilgan nuqsonlar ishning ilmiy salmog'i, umumiy sifatiga ta'sir etmaydi.

Xullas, Normamatova Gulasal Toshboy qizini magistr akademik darajasini olishga to'liq loyiq deb hisoblayman, uning "O'zbek xalq dostonlarida paremiologik birliklarning ifodalanishi" mavzusidagi dissertatsiya ishini yuqori saviyada bajarilgan ish sifatida baholayman.

Ilmiy rahbar:



Sh. T. Maxmaraimova
Termiz davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

Termiz davlat universiteti 70230101- Lingvistika: (o'zbek tili)
yo'nalishi magistranti Normamatova Gulasal Toshboy qizining
magistr akademik darajasini olish uchun tayyorlagan "O'zbek xalq
dostonlarida paremiologik birliklarning ifodalanishi" nomli
dissertatsiyasiga

TAQRIZ

Tilshunoslar uchun folklor namunalari, xususan, xalq dostonlari muayyan tilning jonli so'zlashuv tiliga yaqinligi, uning tarixi, madaniyatidan boxabar qilishi jihatdan doim eng qimmatli manbalardan biri bo'lib kelgan. Shu bois xalq dostonlarining til xususiyatlarini o'rganish, ulardagi shevaga xos leksikani tadqiq etish hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Xususan, "Alpomish", "Go'ro'g'li" turkumlariga mansub dostonlar o'zbek xalqning boy madaniy tarixidan, turmush tarzidan boxabar etadi, tilimiz taraqqiyotidagi o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi. Shu bois ham ularni lingvistik jihatdan tadqiq qilish muhim ilmiy natijalar beradi. Mazkur magistrlik dissertatsiyasi ham o'zbek qahramonlik eposi bo'lgan "Alpomish" hamda "Go'ro'g'lining tug'ilishi" turkumidagi dostonlarda paremiologik birliklarning lingvistik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, muayyan ma'noda dolzarblikka egadir.

Tadqiqot kirish, asosiy uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Tadqiqotning kirish qismida mavzuning dolzarbliligi, maqsad va vazifalari, ilmiy, amaliy ahamiyati kabi jihatlari yoritilgan. Ishning birinchi bobi "*Paremiologik birliklarning lingvistik tadqiqi masalasi*" deb nomlangan bo'lib, unda dissertant tomonidan paremiologiya tushunchasi ancha batafsil sharhlangan, o'zbek tilshunosligida paremiologik birliklarning o'rganilishi tadqiq qilingan, shuningdek, turli olimlarning fikrlari keltirilgan, zarur o'rinlarda ularga munosabat ham bildirilgan. Paremiologik birliklarning jahon hamda o'zbek tilshunosligida o'rganilishi masalasi hamda paremiologik birliklarning folklorshunoslik va lingvistik nuqtayi nazardan o'rganilishi muammolari haqida bayon qilingan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "*Go'ro'g'lining tug'ilishi*" va "*Alpomish*" dostonlaridagi paremalarning leksik-semantik va mavzuviy-tematik xususiyatlari deb nomlangan. Mazkur bobda dostonda uchraydigan paremiologik birliklarning leksik-semantik, mavzuviy-tematik xususiyatlari tahlil qilingan, dissertant dostonlardagi paremlarni *epic qahramonlar ruhiy holati bilan bog'liq paremiologik birliklar, diniy atamalar va qarashlar bilan bog'liq paremlar, milliy urf-odatlar bilan bog'liq paremlar* hamda turli ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq paremlar kabi mavzuviy guruhlarga ajratgan. Ularning har birini dostonlardan olingan misollar yordamida asoslashga harakat qilgan.

Ishning uchinchi bobi "*Go'ro'g'lining tug'ilishi*" va "*Alpomish*"

dostonlaridagi paremiologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari" deb nomlanib, unda ibora hamda maqollarning lingvomadaniy tahlili amalga oshirilgan. *Boshi bo'sh, boshi ochiq, boshi bog'lanmagan* kabi iboralarning "Alpomish" dostonida uchrashi va uning milliy-madaniy jihatlarini yoritishda boshqa asarlardan ham maqol va iboralarning lingvomadaniy jihatlarini yoritishda boshqa asarlardan ham misol olinib, qiyosan tadqiq qilingan.

Magistrlik dissertatsiyasining ko'rsatilgan yutuqlari bilan bir qatorda quyidagi kamchiliklari ham mavjud.

Ishda ishoraviy, imloviy xatolar ham mavjud. Ularni bartaraf etish zarur. Ammo bu ishga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Umuman olganda, yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklar, tavsiyaviy xarakterda bo'lib, ishning umumiy qiymatini pasaytirmaydi. Shu bois tadqiqotchi Normamatova Gulasal Toshboy qizining magistrlik dissertatsiyasi reja asosida ketma-ket yoritilgan, yozilish sifati, hajmi dissertatsiya mavzusi va yoritilishi magistrlik dissertatsiyasiga qo'yilgan talablarga mos kelganligi uchun himoya qilishga tavsiya qilaman.

Taqrizchi:



Xoliyorov O'rol Mengliyevich
f.f.f.d.(PhD)

Termiz davlat universiteti 70230101-Lingvistika: (o'zbek tili)
yo'nalishi magistranti Normamatova Gulasal Toshboy qizining
magistr akademik darajasini olish uchun tayyorlagan "O'zbek xalq
dostonlarida paremiologik birliklarning ifodalanishi" nomli
dissertatsiyasiga

TAQRIZ

Tilshunoslar uchun folklor namunalari, xususan, xalq dostonlari muayyan tilning jonli so'zlashuv tiliga yaqinligi, uning tarixi, madaniyatidan boxabar qilishi jihatdan doim eng qimmatli manbalardan biri bo'lib kelgan. Shu bois xalq dostonlarining til xususiyatlarini o'rganish, ulardagi shevaga xos leksikani tadqiq etish hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Xususan, "Alpomish", "Go'ro'g'li" turkumlariga mansub dostonlar o'zbek xalqning boy madaniy tarixidan, turmush tarzidan boxabar etadi, tilimiz taraqqiyotidagi o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi. Shu bois ham ularni lingvistik jihatdan tadqiq qilish muhim ilmiy natijalar beradi. Mazkur magistrlik dissertatsiyasi ham o'zbek qahramonlik eposi bo'lgan "Alpomish" hamda "Go'ro'g'lining tug'ilishi" turkumidagi dostonlarda paremiologik birliklarning lingvistik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, muayyan ma'noda dolzarblikka egadir.

Tadqiqot kirish, asosiy uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Tadqiqotning kirish qismida mavzuning dolzarbliligi, maqsad va vazifalari, ilmiy, amaliy ahamiyati kabi jihatlari yoritilgan. Ishning birinchi bobi "Paremiologik birliklarning lingvistik tadqiqi masalasi" deb nomlangan bo'lib, unda dissertant tomonidan paremiologiya tushunchasi ancha batafsil sharhlangan, o'zbek tilshunosligida paremiologik birliklarning o'rganilishi tadqiq qilingan, shuningdek, turli olimlarning fikrlari keltirilgan, zarur o'rinlarda ularga munosabat ham bildirilgan. Paremiologik birliklarning jahon hamda o'zbek tilshunosligida o'rganilishi masalasi hamda paremiologik birliklarning folklorshunoslik va lingvistik nuqtayi nazardan o'rganilishi muammolari haqida bayon qilingan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "Go'ro'g'lining tug'ilishi" va "Alpomish" dostonlaridagi paremalarning leksik-semantik va mavzuviy-tematik xususiyatlari" deb nomlangan. Mazkur bobda dostonda uchraydigan paremiologik birliklarning leksik-semantik, mavzuviy-tematik xususiyatlari tahlil qilingan, dissertant dostonlardagi paremlarda uchrovchi sinonim, omonim, antonim so'zlarni misollar yordamida tadqiq qilgan. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida Po'lkan shoir : "Haq saqlasa balo yo'q, Haq qarg'asa davo yo'q" paremasidan ham foydalanilgan.

Ushbu paremani semantik tomondan tahlil qilinganda ushbu parema tashiyotgan ma'no o'z ma'nosida, birorta leksema ko'chma ma'noda qo'llanmagan. Paremadagi so'zlarning leksik tomoniga nazar tashlasak sinonimlik xarakteriga ega, sinonimlar qatori mavjud bo'lgan so'zlar ham uchraydi. Masalan: "Haq" so'zi *Yaratgan, Alloh, Yaratuvchi, Parvardigor, Xudo* kabi sinonimlar qatori bilan ma'nodoshlik hosil qila oladi. Bundan tashqari "Haq" so'zi omonimlik xususiyatiga ham ega "haq"-ulush(ulush)-*U mehnatiga yarasha haq oldi.* "haq"-to'g'ri (sifat) *Ustoz haq gapni aytdi.* Dostonda qo'llangan yuqoridagi paremada "balo"- so'zi ham qo'llangan bo'lib ushbu so'z ham – *ofat, kulfat* leksemalari bilan sinonimlik qatorni tashkil qilsa, "davo" –so'zi *shifo, darmon, chora* kabi leksemalar bilan ma'nodoshlar qatorini hosil qiladi. Vaholanki, "davo" –so'zi "da'vo"(shikoyat, arz) leksemasi bilan paronimlik jihatini ham namoyon etadi. Ushbu parema struktur jihatdan murakkab parema bo'lib, paremaning tarkibiy qismlari orasida mazmuniy jihatdan zidlash munosabatini ham ko'rishimiz mumkin.

Ishning uchinchi bobi "*Go'ro'g'lining tug'ilishi*" va "*Alpomish*" dostonlaridagi *paremiologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari*" deb nomlanib, unda ibora hamda maqollarning lingvomadaniy tahlili amalga oshirilgan. *Boshi bo'sh, boshi ochiq, boshi bog'lanmagan* kabi iboralarning "Alpomish" dostonida uchrashi va uning milliy-madaniy jihatlari o'rganilgan. Maqol, ibora va matallar tahlilga tortilgan hamda o'zbek xalqiga xos mentalitetni namoyon qilgan paremalar alohida tadqiq qilingan.

Xulosa qilib aytganda, Normamatova Gulasal Toshboy qizining magistrlik dissertatsiyasi mavzuga mos rejalar asosida ketma-ket yoritilgan, yozilish sifati, hajmi magistrlik dissertatsiyasiga qo'yiladigan talablarga mos kelganligi uchun himoya qilishga tavsiya qilanadi.

Taqrizchi:



Sharif Yoqubov TerDU Pedagogika fakulteti f.f.n dots.